

ISSN: 2181-3116
2181-3108



VOLUME-12



ISSUE-1



February–2023

WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL



WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

International scientific electronic journal

Volume-12 _Issue-1

February-2023

*World scientific research
journal*

*Jahon ilmiy tadqiqot
jurnali*

MUASSIS:

**Qo'qon davlat pedagogika instituti,
"Ustozlar uchun" MCHJ**

TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Tahririyat kengashi raisi:

**D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,
dotsent**

Jamoatchilik kengashi raisi:

**D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,
dotsent**

Bosh muharrir

**D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,
dotsent**

Mas'ul muharrir:

**N.S.Jo'rayev - psixologoya fanlari nomzodi,
dotsent**

Mas'ul muharrir yordamchisi:

**O.Y.To'xtasinova- filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

Nashr uchun mas'ul:

**Rasulov Inom Muydinovich -
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyaragentligi
tomonidan berilgan 1547 raqamlı
guvohnoma asosida ro'yhatga olingan**

Tahririyat manzili:

**Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon
ko'chasi, 23-uy**

**Telefon:
(0373) 542-38-38**

**E-mail:
info@wsrjournal.com**

Tahrir kengashi:

Sh.Farmonov - O'zR FA akademigi
 Sh.Namozov - O'zR FA akademigi
 S.Rashidova - O'zR FA akademigi
 I.Asqarov - kimyo fanlari doktori, professor
 V.Xo'jayev - kimyo fanlari doktori, professor
 Sh.Abdullayev - kimyo fanlari doktori, professor
 M.Isakov - kimyo fanlari doktori, professor
 R.Rasulov - fizika-matematika fanlari doktori, professor
 B.Samatov - fizika-matematika fanlari doktori, professor
 D.Akbarov - fizika-matematika fanlari doktori
 A.Xusanov - fizika-matematika fanlarinomzodi, dotsent
 V.Isaqov - biologiya fanlari doktori, professor
 G'.Abdullayev - biologiya fanlari doktori
 A.Batashov - biologiya fanlari doktori
 D.Mamatqulov - biologiya fanlari nomzodi, professor
 H.Xonboboev - texnika fanlari nomzodi, dotsent
 B.Nu'monov - texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 I.Oxunov - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 R.Payg'amov - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 N.Valiyev - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 A.Gapparov - Kimyo fanlari nomzodi, dotsent
 N.Karimov - O'zR FA akademigi
 A.S.Sagdullayev - O'zR FA akademigi
 O.Akimova - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
 V.Borisova - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
 I.Artyushkov - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
 M.Rasulova - filologiya fanlari doktori, professor
 Sh.Iskandarova - filologiya fanlari doktori, professor
 D.Nabiyeva - filologiya fanlari doktori, professor
 O.Bozorov - filologiya fanlari doktori
 A.Ziyayev - filologiya fanlari doktori (DSc)
 D.Jamolitdinova - filologiya fanlari doktori (DSc)
 Z.Qobilova - filologiya fanlari doktori (DSc)
 M.Hoshimova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
 M.Siddiqov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
 M.Jamoliddinov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
 O.O.Bozorov - filologiya fanlari nomzodi
 M.Rasulova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
 V.Karimova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 M.Djo'rayev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 G.Kislov - falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya)
 G.Abdullayev - falsafa fanlari doktori, professor
 M.Aminova - falsafa fanlari nomzodi, dotsent
 M.Temirbo耶ev - falsafa fanlari nomzodi
 T.Fayzullayev - siyosat fanlari doktori, professor
 A.Rasulov - tarix fanlari doktori, professor
 R.Shamsiddonov - tarix fanlari doktori, professor
 Q. Akbarov- tarix fanlari nomzodi
 T.Haydarov - iqtisod fanlari doktori, professor
 N.Babayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
 N.Erkaboyeva - pedagogika fanlari doktori, dotsent
 S.Alimsaidova - pedagogika fanlari doktori, dotsent
 Z.Asimova - pedagogika fanlari doktori, dotsent
 V.Qodirov - pedagogika fanlari doktori, dotsent
 A.Tolibjonov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
 J.Azamov - yuridika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 D.Soliyeva - psixologiya fanlari doktori, dotsent
 O.Bektoshev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 M.Ergasshev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 N.Aliboyeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 G.Nazirova - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
 A.Abdurashitov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Fan tarmoqlari: Matematika, fizika, informatika, geografiya, psixologiya, ijtimoiy fanlar

ASTRONOMIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

Ismoilova Nafisa Isroil qizi

Navoiy viloyati Uchquduq tumani Kasb-hunar maktabi

Fizika va astronomiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada astronomiya fani osmon jismlari va ular sistemalarining harakatini, tuzilishini, kelib chiqish sabablarini va rivojlanishini o'rGANADIGAN fanligi va astranomiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Astronomiya, osmon jismlari, astronomic ma'lumotlar, Misr, Xitoy, Bobil, vaqt, gorizont, Yer, Oy, Quyosh, fan, materiya.

Astronomiya fani osmon jismlarining va ular sistemalarining harakatini, tuzilishini, kelib chiqishini va rivojlanishini o'rGANADIGAN fan. Astronomiya eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, u insonning amaliy ehtiyojlari asosida yuzaga keldi. U to'plagan bilimlar insoniyatning amaliy ehtiyojlari uchun qo'llaniladi va xizmat qiladi.

Dastlabki astronomik ma'lumotlar bundan ming yil avval Bobil, Misr va Xitoyda ma'lum bo'lgan bo'lib, ulardan shu mamlakat xalqlari vaqtini o'lchash, gorizont tomonlarini aniqlashda keng foydalanganlar.

Hozirgi kunda nafaqat fan sifatida, balki qishloq va xalq xo'jaligida, geografik joylarni o'rGANISHDA, uchirilgan sun'iy yo'ldoshlarning axbarotlarni qabul qilish va uzatishda, foydali qazilmalarni izlab topishda ham astronomiyaning kundalik ehtiyojga aylanayotganligini sezishimiz mumkin.

Ammo unung vazifalari shu masalalarni yechish bilangina chegaralanmaydi.

Bizning Yer Koinotning bir qismi hisoblanadi. Oy va Quyosh Yerda okean hamda dengiz suvining ko'tarilishi va pasayishi (asosan Oyning Yerga yaqinlashishi va uzoqlashishi hisobiga)ni yuzaga keltiradi. Quyosh nurlanishi va bu nurlanishning o'zgarishi Yer atmosferasidagi jarayonlarga va organizmlarning hayot faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunungdek, astronomiya turli kosmik jismlarning Yerga ta'sir etish mexanizmini ham o'rGANADI.

Astronomiya kursi talabaning mifik, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olgan fizika-matematika va tabiiy-ilmiy ma'lumotlarni to'ldirib, nihoyasiga yetkazadi.

Hozirgi zamon astronomiyasi matematika va fizika, biologiya va kimyo, geografiya va kosmonavtika bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu fanlar yutuqlaridan foydalaniadi va o'z navbatida ularni boyitadi. Boshqa fanlar oldiga yangidan-yangi vazifalar qo'yish bilan ularning taraqqiyotini kuchaytiradi.

Astronomiyani o'rganishda qaysi ma'lumotlar ishonchli dalillardan va qaysilari esa vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan ilmiy farazlardan iboratligiga ahamiyat berish zarur.

Astronomiya koinotdagi moddalarni laboratoriya sharoitida yuzaga keltirib bo'lmaydigan holatlarda va masshtablarda o'rganadi, shu bilan u olamning fizik manzarasini hamda bizning materiya haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi. Bularning hammasi talabalarning tabiat haqidagi ilmiy tasavvurlarini rivojlantirishda kata ahamiyatga ega.

Astronomiya Quyosh va Oy tutilishlarini, kametalarning paydo bo'lishini va yo'qolishini oldindan hisoblab chiqish, Yer va boshqa osmon jismlarining kelib chiqishi va evolyutsiyasini tabiiy-ilmiy tushuntirish imkoniyatlarini ko'rsatish bilan insonning bilish doirasi cheksizligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda astronomiya kosmik fazoni o'rganishda va uni zabit etishda, kosmonavtikani rivojlantirishda va bizning sayyoramizni kosmosdan turib o'rganishda, o'quvchilarda esa kosmonavtlik, uchuvchi va shu bilan bir qator kasblarga qiziqishini ortishiga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. M. Mamadazimov, B.F. Izbosarov, I.R. Kamolov "Astronomiya" Toshkent-2014
2. M. Mamadazimov "Astronomiya" darslik "Davr nashriyoti" Toshkent-2018.

FEATURES OF MODERN INTERNET DISCOURSE

*Kokand Pedagogical Institute
Master's degree of English language
Islomova Madinakhon*

Abstract: The article reveals the idea of Internet discourse as a special kind of verbal exchange in the modern-day Internet space, describes the language of the Internet and the linguostylistic features that occur with it.

Key words: Internet discourse, communicative environment, communication conditions, approaches of conveying meaning, polystylism..

In a huge sense, the time period "discourse" (from Latin "discursus", French "discours", English "discourse" - movement, circulation; conversation)I suggest speech, the manner of human language activity; way of speaking. In the work of N.A. Akhrenova, we discover the following definition of the idea ~ ~ discourse in linguistics - "the method of developing a text in conjunction with ~ ~ pragmatic, socio-cultural, psychological factors","a purposeful social action, along with the interplay of human beings and the mechanisms of their consciousness".[1] Discourse is categorized in extraordinary ways. Most researchers of the phenomenon distinguish private and institutional discourse. Within the framework of private discourse, everyday and existential are considered everyday and existential are considered, institutional is represented via political, diplomatic, administrative, legal, military,pedagogical, religious, mystical, medical, business,advertising, sports, scientific, stage, mass statistics types of discourse. Scientists refer Internet discourse to a separate kind. Internet discourse is a distinct kind of conversation in the Internet space, which can be each personality-oriented (communication of everyday users in social networks, maintaining on-line diaries, blogs, personal internet pages, participation in Internet discussions and discussions on forums), and status-oriented (maintaining professional net pages and debts on a sure subject matter in social networks and the blogosphere).

Being an artificially created verbal exchange environment, Internet discourse is a merely conditional personality and has no temporal or spatial limitations, motives the so-called "blurring" of state,national, economic, political and cultural boundaries. Internet as a different phenomenon of modernity attracts the interest of different researchers, being a factor of convergence of a number areas of communication that are now not interconnected and feature autonomously and independently. The end result is the heterogeneity and forte of the language and, correspondingly, the heterogeneity of the genres used in a number types of Internet verbal exchange (e-mail, chats, digital bulletin boards, expert on-line conferences forums,numerous social networks, diaries , blogs, private pages of users).

The language of the Internet is diverse, the language ability of the Internet discourse range in positive lexical and grammatical characteristics, now not usually special and special (there is a certain similarity with some linguistic traits of different functional styles), but pretty genuinely differentiated and forming a single pragmatic complicated [2]. Analysis of English-language Internet blogs dedicated to a number of matters allowed us to spotlight the following attribute elements of Internet discourse:

- the absence of non-verbal potential of communication, acquainted and characteristic of oral speech (intonation, gestures facial expressions, timbre and voice power). Emotional lack compensation is carried out the usage of distinctive pictograms: emoticons, emoji, conveying a number of emotions and thoughts of the speaker in the shape of yellow faces, capital letters or the use of capital letters (Caps Lock), imitating extended intonation in the voice or a request to pay interest to the facts highlighted in this way. (For example, Sooooooo good! Oooooh wow, MANY award-winning pubs, you NEED to head there; NO WAY!; This is the most demanding 'parenting' blogs I've ever study (as in EVER) . UGH!! SO insensitive and self-centered. YECK!; FOR THE LOVE OF GAWD WHO IS YOUR BEST FRIEND?; A GORGEOUS store!!!; I LOVE your taste);

- a tendency to agrammatism - a deviation from the spelling, syntactic and punctuation norms of the literary language (Like it? Pin it!; I couldn't to give up to examine all of textual content till I finished; Any favorits you propose ?; I plan to cease never);

- excessive punctuation: deliberate use of a large number of query or exclamation marks, or repetition of the identical letter (Sure???: So plenty love your way, Chandra – been there!!!!!!!; Yesssss!!!; Ohh; A cool store!!!; My husband bought me that Earth puzzle for my birthday this yr and it.is.hard.);

- adding GIF files. GIFs and memes are oftentimes used in\ message texts as a visible illustration of an emotional or evaluative reaction to a message or as an addition to textual content by using reproducing an motion or conduct that is hard to categorical in a textual surroundings the usage of linguistic means;

- the full-size use of abbreviations (dr-Birthday, ATP-thank you, Lp-best friend, martyr- young man, salary-earned fee; IDC I do not care, COS-because, GF-girlfriend, wait a sec-second; NP-no problem, Rare, SIS-sister, THX-thanks, U-you; lmk-let me know) ;

- formation of neologisms in accordance to more than a few productive word-formation fashions (tracing, affixation ("googlable" - that which can be determined in search engines), a must-visit; univerbization (creation of one phrase from the phrase: demanding state of affairs - tension; blerdsblack nerds; truncation (oft-often), direct borrowing besides adjustments (angst -existential fear, extreme anxiety));

- the presence of onomastic vocabulary with extended expressive coloring (face-muzzle- face, cry-roar-sobbing, power away-expose- expel);

•polystylism and hybridization - the use of language capability of unique practical patterns (journalistic, creative and colloquial), the use of each impartial and colloquial, and normative language devices (It's the sugar from the wine calling you. I would lecture all of us who would hear about the evils of sugar, inform them that I absolutely did no longer have a candy tooth, constantly the one to go to the huge bag of salty chips instead.

– In this excerpt from a culinary blog, the creator makes use of neutral, emotional and evaluative vocabulary, figurative language, full types of verbs, and full-length frequent sentences. What're you up to this weekend? - a sentence the usage of colloquial vocabulary and quick forms);

•continuous digital communication as a manifestation of mass human verbal exchange (a lot of texts are posted on the network, which are examples of live, direct responses to positive messages, which, in turn, are stimuli for subsequent reactions and comments);

•represents a new structure of linguistic interaction, a new functional sub-style - written colloquial speech - a one-of-a-kind mixture of written literary and oral spoken language. Thus, the facets of Internet conversation are due to changes in the prerequisites of communication, the acquisition of new fascinating opportunities. They have an effect on the world community on the language is multifaceted and diverse. Internet discourse develops new approaches of conveying meaning. The effect of the Internet on the language is determined at all degrees of the language system: at the degree of vocabulary, word-formation models, punctuation and spelling, syntactic structure, employer and structuring of the text, preference of conversation strategies.

Bibliographic list:

1. Ахренова Н.А. Основные способы классификации жанров интернет-дискурса//Вестник ЮУрГГПУ. 2009. N_09.[Электронный ресурс]: официальный сайт. Режим доступа:<https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye sposoby klassifikatsii-zhanrov-internet-diskursa>(дата обращения: 25.20.2020).
2. Валиахметова Д.Р. Письменная разговорная речь в контексте особенностей интернет дискурса//Боденовские чтения. Бодуен де Куртенэ и современная лингвистика: мат-лы междунар. науч. конф. Казань. Изд-во Казан. ун-та. 2001. Т.2. С.7-9.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA MATEMATIKA DARSLARINI
INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ORQALI O‘QITISHNING
USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI**

Ikromova Sevinch Elniyoz qizi

*BuxDPI, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri
p.f.d (DSc), dotsent Saidova Mohinur Jonpo ‘latovna
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

Mamlakatimizda ta’lim tizimida umumta’lim maktablarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni matematika fanlarni o‘qitish jarayonida yangi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan yangi innovatsion texnologiyalar ta’limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta’kidlanmoqdaki, maktablarda darsni yangi innovatsion texnologiyalar asosida o‘tish o‘quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri, nutqiy faoliyatini rivojlanishiga kuchli ta’sir etadi. O‘quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o‘quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat yangi innovatsion texnologiyalar, ulardan foydalanishni, balki yangi texnologiyalarning dars turi, dars tipi, dars metodlariga mutanosib va mos kela olishini ta’minlashni, innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarning anglash, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtira olish qobiliyatini shakllantirish yo‘llarini chuqur anglashlari zarur.

Dars jarayonida foydalanishi mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalardan biri bu interfaol metod sanaladi. **Interfaol metod** degani bu ko‘p kuch sarf etmay, yuksak natijaga erishishdir. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlarning usuli juda xilma-xil bo‘lishi zarur.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir nechta original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum tushunchalarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Dars jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Tahsil oluvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
2. Har bir tahsil oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi.
3. Har bir tahsil oluvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.
4. Mashg‘ulot jarayonida tahsil oluvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, tahsil oluvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar. Oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad- tahsil oluvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Masalan: (O‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladigan savollar tizimi.)

-Matematika darsida biz nimalar qilamiz?

-Matematika darsida biz misol va masala yechamiz, turli matematik topshiriqlar bajaramiz. –Sanashni qaysi darsda o‘rganamiz?

-Matematika darsida.

- Kim 1dan 10 gacha to‘g‘ri va teskari sanab beradi?

-1 2 3 4 5 6 7 8 9 1 0

10 9 8 7 6 5 4 3 2 1 va hokazo.

«Klaster» metodi

Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob‘yektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning tahsil oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan tahsil oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda tahsil oluvchilar tomonidan bildirilayotgan

g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Interfaol metodlarning asosiy xususiyati shundaki, u bir mulohaza ustida ko‘proq to‘xtalishga, u haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilishga undaydi. Masalan, Klaster metodidan boshlang‘ich sinf matematika darslarida katta mavzu yoki bo‘lim so‘ngida, qolaversa, yangi mavzuni o‘tish jarayonida ham foydalanish mumkin. Masalan, 10 ichida arifmetik amallarni bajarish bo‘limi so‘ngida bu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. O‘quvchilar aynan shu bo‘limni o‘tish jarayonida nimalar bilan tanishgan bo‘lsa, birin-ketin xotirasiga keltirib, hatto misollar va ularning yechilish yo‘llarigacha qayd etishga harakat qiladilar. Klaster metodidan foydalanish chog‘ida uning xususiyati va ahamiyati haqida o‘quvchilarga tushuncha berib o‘tish lozim. Masalan:

-tayanch tushunchani o‘qigach, nimani o‘ylasangiz shuni yoriting;

- yozilgan fikr orfografik jihatdan tahlil qilinmaydi;

-berilgan vaqt nihoyasiga yetmagancha fikrni yozishdan to‘xtamaslik, bir muddat hech narsa tasavvuringizda hosil bo‘lmasa, to eslab olguncha, biror narsaning rasmini chizish,

-g‘oyalar aloqadorligi va xilma-xilligiga e’tibor berish,

-vaqt tugagach, tushuncha atrofidagi kerakli asosiy g‘oyalar yig‘ilib, chiroyli matn hosil qilish.

Masalan:

Interfaol metodlarni chiroyli usulda jadvallar orqali tushuntirib, yetkazib berish uchun biz **ta’lim vositalaridan** foydalanamiz. Ko‘p adabiyotlarda ta’lim vositalari **grafik organayzerlar** ham deb yuritiladi. Bularga “BBB”, “Baliq skeleti”, “T sxemasi”, “Venn diogrammasi”, “Insert jadvali”, “Nilufar guli” yaqqol misol bo‘la oladi.

Bir so‘z bilan aytganda, boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Matematika darslari jarayonida ham kerakli va zarur innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uni hayot jarayonida ham tatbiq etishga o‘rgatmoq zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Azizzodjaeva N.N. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar - Т.: 2007. 14-23 bet.
2. Alimov R.X, Xayitmatov O‘.T, Xakimov A.F, Yulchieva G.T, Azamatov O.X, Otajonov U.A. Axborot tizimlari.-Т.:2013.-38-50 b.
3. Олимов К.Т. Проблемы создания учебников специальных дисциплин нового поколения в сфере среднего специального и профессионального образования. Монография. –Т.: Фан, 2004. – 143 с.
4. Dominov D.Z Kompyuter tarmoqlaridan amaliy mashg‘ulotlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish. BMI.- Toshkent, 2012. 10-b.
5. Олимов К.Т.Учебно-методическое обеспечение специальных дисциплин// Узлуксиз таълим.2004. №3 68-75 б.

Zaripova Jasmina Jamshidovna*BuxDPI, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi I-kurs talabasi***Sana:** 20- oktabr**Sinf:** 3**Fan:** Matematika**Mavzu:** 1000 ichida sonlarni ayirish usullari**Maqsad:** a) o‘quvchilarda uch xonali sondan uch xonali sonni xonadan o‘tib ayirish ko‘nikmalarini shakllantirish.;

b) o‘quvchilarga jamoat joylarida o‘zini odobli tutish, odob-axloq qoidalariga amal qilib, o‘zgalarga hurmat ko‘rsata olishga o‘rgatish;

d) o‘quvchilarning 1000 ichida sonlarni ayirishga doir misollar yechish malakalarini rivojlantirish;

Dars turi: yangi tushuncha berish va bilimlarni mustahkamlash**Dars uslubi:** aralash, guruh bilan ishlash**Dars jahozi:** mavzuga oid ko‘rgazmalar, darslik, rasmlar.**Darsning borishi**

T/R	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	10daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	5 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- 1) O‘quvchilar bilan salomlashish
- 2) Xona ozodaligiga e’tibor berish
- 3) Navbatchi axboroti
- 4) Fasl, ob-havo,bayram sanalari esga olinadi.

II. O‘tgan mavzuni so‘rash

Sinf o‘quvchilari guruhga bo‘linadi.. Guruh a’zolari kelishgan holda raqam tanlashadi. Dars davomida shu raqam ostidagi topshiriqlarni bajaradilar. (**Bu metodlar orqali o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalar shakllantiriladi.**)

1

2

3


4

O‘tgan mvzu o‘quvchilardan so‘raladi. O‘tgan mavzuga oid guruhlarga topshiriqlar beriladi.

1-guruh “Xazonrezgilik”.Ayni shu faslda barglar sarg‘ayib to‘kila boshlaydi. Keling, biz barglarga to‘kilishiga yordam beramiz. Daraxtdagi barglarda o‘tgan mavzuga oid misollar berilgan.Agar siz ushbu misollarni yecha olsangiz, ular yerga to‘kilishi mumkin. Yecha olmasangiz barglar daraxtdan to‘kilmay qolishi mumkin.



808-208



624

110


400

621


120

600

I1-guruh.”T” chizmasi metodi. Berilgan sonlarni toq va juft sonlarga ajratadi.



III guruh. Moslashtir. Shakllarning burchaklari soniga ko‘ra uch xonali sonlar tuzib, moslashtiradi.



640
853
500
644
440
368

IV guruh “Bu meniki” o‘yini

O‘qituvchi 2 va 3 xonali sonlarni turli ko‘rinishda ovoz chiqarib aytadi. E’lon qilingan son qaysi o‘quvchining qo‘lida bo‘lsa, “Bu meniki” deb ovoz chiqarib aytishi lozim. Bu ta’limiy o‘yin o‘quvchilarni hushyorlikka da’vat etadi.

- Besh yuzlik, ikki o‘nlik, to‘rt birlik
- 210 birlikdan iborat son
- 3 ta yuzlik, 6 ta birlik
- 799 dan keyingi son
- Eng katta uch xonali son
- 399 va 401 orasidagi son
- Eng kichik uch xonali son
- 8 ta yuzlik 5 ta o‘nlik


Har bir guruh taqdimoti tinglanadi va rag‘batlantiriladi.

III.Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzu e’lon qilinadi. Darslik bilan ishlanadi.

Mavzu: 1000 ichida sonlarni ayirish usullari

- 1- **misol.** Modellar asosida hisoblaymiz.



Har bir guruhdan o‘quvchi chiqib, misollarni birma-bir yechib, tushuntiradi.

2-misolni boshlashdan oldin “O‘z o‘rningni top” ta’limiy o‘yini o‘ynaladi. Guruhga uch xonali sonlar yozilgan tarqatmalar beriladi. Guruh a’zolaridan faqat bittasi chiqadi.O‘qituvchi sonlarni o‘sish tartibida joylashtirishini aytadi. O‘quvchilar darhol o‘z o‘rnini topishi kerak bo‘ladi.

O‘yin yuzasidan bir necha savollar berib, faol o‘quvchini rag‘batlantiradi.

198

386

708

916

2-misoldagi ayirish amallarini har bir guruhdan o‘quvchi chiqib bajaradi.



$$561 - 435$$

$$780 - 308$$

$$835 - 118$$

$$992 - 278$$

3-mantiqiy topshiriq. O‘quvchilar mustaqil ravishda bajarishlari uchun imkoniyat yaratiladi.Dastlab ular fikrlari asosida muammo tahlil qilinadi, qiyinchilikka duch kelinsa, yo‘nalatiruvchi savollar beriladi. (*Bu metod orqali o‘quvchilarda axborot bilan ishslash kompetensiyalar shakllantiriladi.*)



“Ertaklar olamiga sayohat”. O‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirib, qaysi ertakni o‘qiganlari, o‘qigan ertaklari multfilmini ko‘rganliklari borasida suhbatlashish. Rasmlar namoyish etiladi. (*Bu metod orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar shakllantiriladi.*)



3-masala sharti o‘qittiriladi. Tarbiyaviy mohiyati ochib beriladi. Jamoat joyida o‘zini tutish borasida qisqa suhbat olib boriladi.


- 1) Qo‘g‘iirchoq teatrining tomosha zali necha o‘rinli? (282 o‘rinli)
- 2) “Oppog‘oy” teatr tomoshasi uchun nechta chipta sotildi? (267 ta)
- 3) Teatr tomoshasi zalida nechta o‘rindiq bo‘sh qoldi? (282-267= 15 ta)

Masala sharti, yechimi va javobi ham doskada, ham daftarga yozdiriladi.

5-topshiriq. Sonlar ketma-ketligini davom ettiramiz.



1-rasmdagi 30 va 130 sonlari o‘rtasidagi farq 100 ga teng. Demak, sonlar nurida sonlar 100 ga oshib boradi. Sonlar nuri to‘ldiriladi.




2-rasmda 20 va 60 sonlariga e’tibor qaratiladi. Ular orasidagi farq 40 ga teng. Demak, bu sonlar nurida sonlar 40 ortib boradi.

IV. Mustahkamlash

Mavzuni mustahkamlash maqsadida mavzuga oid har bir guruhga topshiriq beriladi.

“Kim tez hisoblaydi?” (*Bu metod orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalar shakllantiriladi.*)



Gul yaproqlarida ayirishga doir amallar beriladi. Guruh o‘quvchilari amallarni bajarib gul yaproqlarini ochadilar. Shunda 21, 10, 2022, 33 sonlari chiqadi. Bu sonlar qanday ahamiyatga ega ekanligini savol-javob o‘tkazib, 21-oktabr O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun ekanligi yodga olinib, Buyuk bobolarimizning til borasida aytgan hikmatli gaplari yodga olinadi.

Guruhsar to‘plagan ballar yig‘iladi. G‘olib guruh aniqlanadi.

V. Baholash

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholanadi. G‘olib guruh rag‘batlantiriladi.

VI. Uy ishi

6-misol. Misollarni qanday tartibda yozish va hisoblash zarurligi tushuntiriladi.

**BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLIKLARIDA
MILLIY DASTUR MAZMUNI**

Hikmatova Sevara Rufat qizi

*BuxDPI, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri
p.f.d (DSc), dotsent Saidova Mohinur Jonpo ‘latovna
Boshlang‘ich ta’lim yo ‘nalishi I-kurs talabasi*

Umumiy o‘rtta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda, tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Aniq fanlar bloki yo‘nalishidagi fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o‘zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko‘nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish, to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur. Xususan, matematika fanining o‘z ilmiy tili, o‘z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo‘lib, bu tilda muloqot qilish – kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo‘ladi.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni darslik va turli o‘quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta’minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlarga ega bo‘lish, Vatanni sevish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlarga xabardor va daxldor bo‘lish, doimo zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallahsha intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur. Shu o‘rinda, matematika fanini puxta o‘rganish orqali o‘quvchilar tartib-intizomga o‘rqnadilar, har bir muammoga matematik masala sifatida qarab, uni yechishda qat’iyatli bo‘ladilar.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, matematika


ularni haqgo'y, nohaqlikka befarq bo'lmashlik va vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

Matematika fanini puxta o'rgatish orqali o'quvchilarni jamiyatning faol fuqarosi sifatida rivojlantirib borishga zamin yaratiladi.

Matematika fani bo'yicha ta'lim standartlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining matematika fani bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan umumlashgan talablardan iborat bo'lib, ular matematik mazmun va matematik amaliyot standartlariga bo'linadi.


Dars jarayonida beriladigan topshiriqlar turli kompetensiyalarga mos holda bo'ishi lozim:

1-topshiriq: "Yashirin so'zni top!" o'yini. Tayanch so'z atrofiga kerakli so'zlar yig'iladi. Bosh harf bilan yozilgan harflar esa yig'ilib, so'z hosil qilinadi. **Bu topshiriqni kompyuter orqali bajarish maqsadga muvofiq.**



Bu o'yindan foydalanish nafaqat o'quvchilar uchun qiziqarli bo'libgina qolmay, o'quvchilarning mulohaza yuritishi uchun zamin hozirlaydi. O'quvchilarning abstrakt tushunchalarini o'stiradi (Axborot bilan ishlash).

8-topshiriq: "Ifoda tuz" o'yin metodi. O'quvchilar bu o'yinda tarqatilgan topshiriqlar kitobchasida berilgan shakllarning ko'rinishiga qarab ifoda tuzib, uni yechishi kerak.



Bu topshiriq ham "O'nlik" konsentri doirasida misol, masala yechish jarayonida juda foydali (O'z o'zini rivojlantirish).

9-topshiriq: “Uyga yetib ol” o‘yini. O‘quvchilarga format tarqatiladi. Unda misollar berilgan, lekin ifodalardagi qaysi bir son noma’lum bo‘lsa, shularni topib, o‘z o‘rniga yopishtirib qo‘yilsa, bo‘g‘irsoq uygacha yetib oladi. Bu misollarni bo‘g‘irsoqqa quyon, bo‘ri, ayiq va tulkivoy tayyorlab kelgan. Agar savollardan qaysisini dir topishda xatolikka yo‘l qo‘ysangiz, u uygacha yetib borolmaydi. Shuning uchun, bolajonlar, birlgilikda faqat to‘g‘ri javoblarni topishga harakat qilamiz.

MISOLLARNING TO‘G‘RI JAVOBINI O‘Z O‘RNIGA QO‘YING!			
10	+	8	= 10
—	-	—	= 1
—	+	1	= 10
—	-	8	= 2
9	-	—	= 6
—	-	8	= 1
8	-	—	= 1
9 7 2 10 3 9 9			




MISOLLARNING TO‘G‘RI JAVOBINI O‘Z O‘RNIGA QO‘YING!			
2	+	8	= 10
10	-	9	= 1
9	+	1	= 10
10	-	8	= 2
9	-	3	= 6
9	-	8	= 1
8	-	7	= 1
9 7 2 10 3 9 9			



Bu o‘yin orqali o‘quvchilarni sezgirlik, topqirlik ruhida tarbiyalash mumkin (Kommunikativlik).

10-topshiriq: “Do‘smini top” o‘yini. O‘quvchilar Mushukvoy tayyorlab kelgan topshiriqni guruh bilan hamkorlikda bajaradi. Har ikkala qatordagi misollarni yechadi. Natijaga ajratilgan ranglar bilan jadval ichi bo‘yaladi.

Misollar	Do‘smini top
2+1=	2+4=
3+2=	3+6=
4+2=	3+7=
6+3=	2+3=
7+3=	1+3=
3+1=	1+2=



Misollar	Do‘smini top
2+1=3	2+4=6
3+2=5	3+6=9
4+2=6	3+7=10
6+3=9	2+3=5
7+3=10	1+3=4
3+1=4	1+2=3



Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini o‘stirish mumkin. O‘quvchilar bu singari o‘yin topshiriqlarni sevib bajaradi (Ijtimoiy emotsiyonal va faol fuqarolik).

Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida beriladigan har bir topshiriq bugungi kun o‘quvchisini mantiqiy fikrlaydigan faol shaxs sifatida shakllantirishi kerak.

MULOHAZALAR

Nargis Boymurodova*Buxoro davlat Pedagogika instituti**Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi,**1-bosqich magistranti***Mavzu :** Mulohazalar

Maqsad: O'quvchilarga mulohaza haqida tushuncha berish.Yolg'on va rost mulohazalarni bir-biridn ajratishni o'rgatish. To'g'ri mulohaza yuritishni o'rgatish.

Ta'limi: O'quvchilarga mulohazalar haqida bilim berish. **TK1** matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish, matematik qoidalarni yoddan ifodali ayta olish.**TK2** axborotlarni statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turidan (ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqa ko'rinishga o'tkaza olish; to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan darak gaplar mulohaza deb yuritishini uqtirish. To'g'ri mulohaza yuritishda ko'nikma hosil qilish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mehnatsevarlik, ishchanlik, tirishqoqlik sifatlarini tarbiyalash. Hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lish hissini uyg'otish. **TK3** ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish; o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqtira olish.**TK4** atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariiga rioya qila olish va guruhda ishlay olish;

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni og'zaki va yozma hisoblash malakalarini o'stirish. **FK2** o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.


Metodi: Savol-javob,Rost-yolg'onnei ajrat, Mulohaza testi, kim chaqqon, sirli matematika, quyonga yordam.

Jihizi: Mavzuga oid ko'rgazma, tarqatmalar, test savollari.Kompyuter, prezentatsiya(slaydlar).

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	4 daqiqa

6	Uyga vazifa	3 daqiqa
Jami		45 daqiqa



I. Tashkiliy qism.

- a) salomlashish, davomatni aniqlash, tozalikni tekshirish;
- b) ma'naviyat daqiqasi;
- d) ingliz tili daqiqasi 64 - sixty – four, 65 - sixty – five.
- e) guruhlarga bo'lish
"Xorazmiylar"
"Beruniylar"
"Farg'oniyalar"



I. O'tgan mavzuni so'rash va mustahkamlash. O'tgan mavzuni mustahkamlashda xalqaro baholash dasturlaridan biri TIMSS haqida ma'lumot beriladi. TIMSS -- xalqaro matematika va tabiiy fanlarni o'qitish istiqbollari dasturi bo'lib, bu tadqiqot 4-8- sinf o'quvchilari orasida matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. 4-8- sinf o'quvchilari matematika va tabiiy fanlardan baholashda test topshiriqlarning nazariyasidan foydalilanadi. Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqlarni o'z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o'quvchining, o'qituvchining va ta'lim muassasasining ko'rsatkichlarini (so'rovnomaiga asosan) aniqlab beradi. 4-sinfda ham TIMSS topshiriqlariga o'xshash masalalar berilgan:

Masala. Jek nonning $\frac{1}{2}$ qismini, Anna esa $\frac{1}{4}$ qismini yedi. Ikkalasi ham nonning qaysi qismini yeyishdi? Bu masalani tushuntirish davomida buni uyga berilgan ulushlarga bog'lab tushuntirish o'quvchining mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga zamin yaratadi.



Baholash: Uy vazifasining bajarilishi, mustaqil misollar bajarishiga qarab rag`batlantirish.

To`g`ri yoki noto`g`ri ekanligi haqida aytish mumkin bo`lgan darak gaplar MULOHAZALAR deb ataladi.

So`roq gaplar va shaxsni munosabati bildirilgan gaplar (qizil gul eng chiroylidir) mulohaza bo`la olmaydi.

III. Yangi mavzu bayoni:

1-misol

1) Tulkichanening mulohazasi to`g`rimi ? 25 sonida 2ta birlik va 5ta o`nlik bor. Bu yolg`on mulohaza, chunki 25 sonida 2ta o`nlik 5 ta birlik bor.

2) Quyidagi mulohazalar to`g`rimi yoki noto`g`rimi: Mulohazali test:

1. Toshkent - O`zbekistonning poytaxti. R
2. Fevral 30 kundan iborat. Y
3. 11- eng kichik ikki xonali son. Y
4. 1 eng kichik son emas. Y
5. 5 soni 3 sonidan katta. R
6. $5*8=40$ ekani noto`g`ri. Y
7. $9+6=15$ ekani noto`g`ri. Y

2. Mulohazalarni o`qing. Ulardan qaysilari to`g`ri va qaysilari noto`g`ri? Quyonchaga yordam beraylik? O`yini orqali rost va yolg`on mulohazalar aniqlanib tekshiriladi.

3. Matematikada to`g`ri mulohaza rost (*R*) va noto`g`ri mulohaza yolg`on (*Y*) deb ataladi. Bunday yoziladi: $(214 > 83) = R$ va bunday o`qiladi: „ $214 > 83$ “mulohaza

- rost“. $(56 - 48 = 18) = Y$ va bunday o‘qiladi: „ $56 - 48$ ayirma 18 ga teng“ mulohaza
- yolg‘on“.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

4. Berilgan mulohazalardan rost va yolg‘on mulohazalarni tanlab oling va o‘qing.

a) $1 \text{ h} = 60 \text{ min}$; R

b) $1\text{h}= 100 \text{ min}$; Y

d) k harfi - unli; Y

e) qo‘y - baliq; Y

f) $657 + 203 = 650 + 203$. Y

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va baholash.

O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki va topqirligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasi, fikrini to‘g‘ri va ravon ifodalay olishi, i o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy ballar e’lon qilinadi va faol, bilimdon o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Al-Xorazmiy avlodni, Beruniy avlodni, Farg‘oniy avlodlari aniqlanib taqdirlanadi.

VI Uyga vazifa.



5. Masalalarni yeching va yechilishlarini taqqoslang:

1) Tikuvchi birinchi kun 10 ta, ikkinchi kun 8 ta sochiq tikdi. Hamma sochiqlar uchun 36 m gazlama sarflandi. Tikuvchi har kuni necha metrdan gazlama sarflagan?

Yechish : 1) $10+8=18$ 2) $36:18=2$ 3)
 $10*2=20$ 4) $8*2=16$ Javob: Tikuvchi har kuni 20 m va 16 m gazlama sarflagan.

2) Tikuvchi 2 kunda 18 ta sochiq tikdi. U birinchi kun 20 m, ikkinchi kun esa 16 m gazlama sarfladi. Tikuvchi birinchi kun nechta sochiq tikkani? Ikkinci kun-chi?

Yechish: 1) $20+16=36$ 2) $36:18=2$ 3)
 $20:2=10$ 4) $16:2=8$ Javob: 1-kun 10ta va 2-kun 8 ta sochiq tikkani.

Mustahkamlash

Kimchaqqon?

- a) $1 \text{ h} = 60 \text{ min}$; R
- b) $1 \text{ h} = 100 \text{ min}$; Y
- d) k harfi – unli; Y
- e) qo‘y – baliq; Y
- f) $657 + 203 = 650 + 203$. Y

“O‘QUV LUG‘ATI” VA “O‘QUV LUG‘ATCHILIGI” TUSHUNCHALARI, ULARNING UMUMIY TASNIFLARI

Hasanova Sayyora Fazliddin qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti ta ’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang ‘ich ta ’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘quv lug‘ati, o‘quv lug‘atchiligi tushunchalariga tavsif berilgan, o‘quv lug‘atlarining tasnifi bayon qilingan. O‘quv lug‘atlarining ona tili hamda boshqa tillarni o‘rgatish, tilni tasvirlash va me’yorlashtirish, tillar va madaniyatlararo munosabatni ta’minlash kabi muhim ijtimoiy vazifalarni bajarishi ko‘rsatib beriladi.

Tayanch so‘zlar: o‘quv lug‘atchiligi, leksikografiya va metodika, o‘quv lug‘atlari, o‘quv lug‘atlari tasnifi, ona tili ta’limi.

O‘quv lug‘atlari ona tili hamda boshqa tillarni o‘rgatish, tilni tasvirlash va me’yorlashtirish, tillar va madaniyatlararo munosabatni ta’minlash, til leksikasini ilmiy tekshirish hamda talqin qilishdek muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. U o‘quv jarayoni bilan aloqador bo‘lib, o‘quv mashg‘ulotlariga, darslikka moslashtiriladi. Lug‘at maqolalari sodda, aniq, tushunarli, hajman kichik, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quv lug‘atlariga tom ma’noda antropotsentrik lug‘at deb qaralmoqda. O‘quv leksikografiyasi esa, ko‘rib o‘tilganidek, leksikografiyaning o‘quv lug‘atchiligi tarixini o‘rganish, o‘quv lug‘atlarini tuzish tamoyillarini ishlab chiqish, o‘quv lug‘ati tiplari va turlarini aniqlash, muntazam takomilashtirib borish, yangi o‘quv lug‘atlarini tuzish va nashrga tayyorlash bilan shug‘ullanadigan eng faol va yosh tarmog‘i hisoblanadi.

Zamonaviy o‘quv lug‘atchiligi faqat o‘quv lug‘atlari tuzishni emas, balki leksik minimumlar, o‘quv lingvostatistikalar, leksikani o‘qitish bo‘yicha qo‘llanmalar, til o‘qitishga mo‘ljallangan darsliklarda leksikani taqdim etish va semantizatsiyalash va boshqa vazifalarni ham o‘z zimmasiga oladi. Lug‘atlar har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisoiy rivojlanishining ramziy timsoli hisoblanadi. Lug‘at faqat tilni o‘rganish emas, xalq madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihatlari xususida ham ma’lumot berish uchun xizmat qiladi.

Manbalarda lug‘atlarning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi asosiy vazifasi ajratiladi:

- ona tilini va boshqa tillarni o‘rgatish;
- ona tilini tasvirlash va me’yorlashtirish;

- tillar va madaniyatlararo munosabatlarni ta'minlash;
- til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish.

Tilshunoslik fanlari tizimida leksikografiyaning o'quv lug'atchiligi tarmog'i paydo bo'lgandan buyon, mutaxassislarni o'quv lug'ati qanday lug'at, uni yaratishda qanday mezonlar ustuvorlik qiladi, asosiy vazifalari nimadan iborat, umumiy lug'atlardan nimasi bilan farqlanadi, boshqa tipdagi lug'atlardan ustunligi nimada degan savollar qiziqtirib kelgan. Jalon tilshunosligida XX asr boshlaridayoq bu savollarga atroflicha javob berildi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda o'quv leksikografiyasini o'z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdagi yangi avlod antropotsentrik o'quv lug'atlarining yangi-yangi janrlarini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanmoqda.

Ma'lumki, har qanday lug'atda nimanidir o'rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug'atlarga o'quv lug'ati toifasiga kiritiladi va ular maxsus mezonlar asosida tuziladi. O'quv lug'atlari foydalanuvchilarning yoshi, ruhiy-fiziologik holati, bilim darajasi, dunyoqarashiga asoslanadi. Bunday lug'atlarda so'zlikni qamrab olish imkoniyati chegaralangan bo'ladi, ya'ni so'zlik qamrovi o'quv jarayoni ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O'quv lug'ati shu tipdagi katta lug'atlarni qisqartirish yo'li bilan yaratilmaydi, u o'quvchilarning mavjud maktab darsliklari, o'quv qo'llanmalari va boshqa materiallardagi ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishiga ko'mak beradigan tushunchalar asosida tuziladi.

M.A.Skopinaning ma'lumot berishicha, ilk marta "o'quv lug'ati" termini rus lug'atchiligidida E.D.Polivanovning 1926 yilda yaratilgan "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at"ining so'zboshisida ishlatiladi. Muallif o'z lug'atini xarakterlar ekan, "hajmiga ko'ra spravochnik lug'at deb bo'lmaydi, uni o'quv lug'atlari toifasiga kiritish o'rinni", deydi.

"O'quv lug'atchiligi" termining ilk ta'rifi L.A.Novikovga tegishli bo'lib, uning o'quv lug'atchiligi vazifalari chegarasi, uning muammolari va o'quv lug'atlari tiplari aniqlashtirilgan "O'quv leksikografiyasini va uning vazifalari" deb nomlangan maqolasida uchraydi: "Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o'quv leksikografiyasini hajman kichik va katta ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya"

O'quv leksikografiyasini xarakterlaydigan ushbu mezonlar P.N.Denisovning "o'quv lug'ati" terminiga bergen ta'rifida o'z aksini topdi: "O'quv lug'ati – so'zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o'quv-uslubiy talablarga javob beradigan, odatda, hajman kichik bo'lgan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etadigan kitob"

O'quv lug'atlari, odatda, o'quv leksikografiyasining tadqiq ob'ekti hisoblanadi. O'rganish obyekti – o'quv lug'atining tavsifiy belgilari o'quv leksikografiyasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. O'quv lug'atchiligi o'tgan asrning 70-yillarida leksikografiyaning alohida tarmog'i sifatida ajralib chiqdi va o'ziga xos nazariy asoslari, maqsadi va vazifalariga ega bo'lgan lingvometodik yo'nalish sifatida taniladi.

L.G.Sayaxov ushbu yo‘nalishning o‘ziga xos belgilari xususiga to‘xtalar ekan, “Uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari, bir tomondan, o‘quv jarayoni – ta’limning umumiy maqsadi, ikkinchi tomondan – lingvistik maqsadlar, uning rivojlanish mantig‘i bilan belgilanadi”, – deydi. Aslida ham o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyoti faqat leksikografiyaning emas, lingvodidaktikaning ham taraqqiyotiga bog‘liq. SHu bois keyinchalik o‘quv lug‘atlariga lingvodidaktik vosita sifatida qarash an’anaga aylandi. Xususan, V.V.Morkovkining mashhur “O‘quv leksikografiyasi maxsus lingvometodik yo‘nalish sifatida” deb nomlangan maqolasidan so‘ng o‘quv lug‘atlarining lingvistik va pedagogik, didaktik vazifalariga e’tibor qaratish ommalasha boshladi.

“O‘quv leksikografiyasining nazariy asoslari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida V.V.Morkovkin “o‘quv lug‘ati” terminiga quyidagicha izoh beradi: “ma’lumot olish, til o‘rganishga yordam berish maqsadida maxsus yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asarga o‘quv lug‘ati deyiladi”.

Mutaxassislar o‘quv lug‘atini yaratishda bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lgan ikki asosiy muammoning echimi, ya’ni:

- 1) so‘zlikni tanlash, taqdim qilish usuli;
- 2) ta’limning bosqichi, nutqiy faoliyat vaziyati, nutq uslubi, ta’lim oluvchining ona tilisi, madaniy, ma’naviy saviyasi va boshqalarning hisobga olinishi lozimligini ta’kidlaydilar.

Ana shu mezonlardan kelib chiqib, so‘nggi yillarda “o‘quv leksikografiyasi” termini ta’rifiga lug‘atning o‘rganilayotgan tilni o‘qitish metodikasi bilan bog‘lanishiga urg‘u berildi, ya’ni: “o‘quv leksikografiyasi – leksikografiyaning lug‘at yoki lug‘at tipidagi boshqa asarlarda til birliklarinining pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan tavsifining nazariy va amaliy aspektlarini qamrab oladigan maxsus sohasi” deb izohlandi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘quv leksikografiyasi va uning ob’ekti bo‘lgan o‘quv lug‘atlarining tavsify belgilariga, asosan, uch xususiyat:

- ta’limiy maqsadga yo‘nalganlik;
- hajman chegaralanganlik;
- til (ona tili yoki boshqa til) o‘qitish uchun mo‘ljallanganlikka urg‘u beriladi.

O‘quv lug‘atiga berilgan ta’riflar ichida V.V.Morkovkining ta’rifida hajm etakchi mezon sifatida olinmaydi, u lug‘atning maqsadi, lingvodidaktik xarakterga ega bo‘lishi, ya’ni ta’limga yo‘nalgan bo‘lishiga diqqatni qaratadi. SHunga asosan u o‘quv lug‘atchilagini alohida lingvometodik yo‘nalish, an’anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida paydo bo‘lgan fan ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quv leksikografiyasining asosiy bo‘limlarini:

- a) o‘quv lug‘atlarini tuzish nazariyasi va amaliyoti;
- b) leksik minimumlarni tuzish nazariyasi va amaliyoti;
- v) o‘quv leksikostatistikasi nazariyasi va amaliyoti;

g) leksika bo‘yicha lug‘at tipidagi o‘quv qo‘llanmalarini yaratish nazariyasi va amaliyoti;

d) darslikka ilova qilingan va muayyan mavzu uchun beriladigan lug‘atlarda til leksikasining taqdim etilishi va semantizatsiyasi nazariyasi va amaliyoti tashkil etishi lozim.

V.G.Gak ham o‘quv lug‘atchiligining nazariy va amaliy aspektlari haqida to‘xtalar ekan, uning leksikografiya va pedagogika oralig‘idagi amaliy fan ekanini tasdiqlaydi. SHu bois ilmiy adabiyotlarda o‘quv leksikografiyasi lingvodidaktik fan, lingvopedagogik yo‘nalish, pedagogik leksikografiya degan turli nomlar bilan yuritilishi kuzatiladi. So‘nggi yillarda shu yo‘nalishda bajarilgan ishlarda o‘quv lug‘atchiliga antropotsentrik lug‘atchilik, o‘quv lug‘atlariga esa antropotsentrik lug‘at sifatida qarash ommalashib borayotgani kuzatilmoqda.

Zamonaviy lingvodidaktlarning izlanishlarida o‘quv leksikografik qo‘llanmani yaratishda ikkita bir-biri bilan aloqador bo‘lgan muammo:

1) an’anaviy leksikografik muammo – so‘z tanlash, uni taqdim qilish mezonlari, leksikografik pometalar va hk.;

2) metodik xarakterdagi muammolar – ta’lim bosqichi, o‘quvchining yoshi, nutqiy qobiliyati, darajasi va boshqa masalalar echimini topishi kerak.

O‘quv lug‘atlarini tavsiflashda uning funksional yo‘nalishi – vazifalari muhim rol o‘ynaydi. P.N.Denisov “Biz o‘quv lug‘atini so‘zlik va to‘rtta vazifa – o‘quv, ma’lumot berish, me’yorlashtirish va sistemalashtirish vazifasini bajarishga xoslangan minimal leksik sistema deb hisoblaymiz”, – deydi.

So‘nggi yillarda bajarilgan ishlarda o‘quv lug‘atlari leksikografiyaning alohida janri emas, shunchaki o‘quv jarayoniga ko‘proq kirib borgan ko‘rinishi mazmunidagi fikrlar ham uchraydi. E.YU.Balalaevaning “O‘quv lug‘atlarining umumiylari va maxsus vazifalari” deb nomlangan maqolasida muallif o‘quv lug‘atlari masalasida tadqiqotchilar orasida qat’iy to‘xtam yo‘qligini ta’kidlaydi. U, jumladan, B.Bim-Badning o‘quv lug‘atlarining ta’limiy, ma’lumot berish va tizimlashtirish, shuningdek, boshqa barcha lug‘atlarga xos bo‘lgan axborot berish va me’yorlashtirish vazifalarini bajarishi, M.Laptevaning terminologik o‘quv izohli lug‘atlarining axborot berish, tizimlashtirish va mustaqil bilim berish kabi etakchi vazifalarni bajarishiga doir fikrlarini keltirib o‘tadi. E.YU.Balalaeva mazkur olimlarning mulohazalarini inkor etar ekan, M.Kovyazina, T.Petrashev, V.Tabanakovlar kabi bu borada P.N.Denisov fikrlariga qo‘shilishini va o‘quv lug‘atlarining to‘rtta – ta’limiy, tizimlashtirish, ma’lumot berish, me’yorlashtirish vazifalarini bajaruvchi minimal leksik tizim ekanligini ta’kidlaydi.

O‘quv lug‘atlarini pedagogik aspektida o‘rgangan T.V.Jerebilo o‘quv lug‘atlarini bir qator o‘ziga xos xususiyatlariga qaramay, darsliklar, qo‘llanmalar va turli didaktik materiallardagi ma’lumotlarni shunchaki leksikografik shaklga keltirish, jamlash va saqlash vazifasini bajaradigan vosita deb hisoblaydi. Uningcha, har qanday lug‘at

ta’lim berish va inson shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida o‘quv, ta’limiy, tarbiyaviy, intellektual rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy vazifalarini bajaradi. O‘quv lug‘atlari ushbu universal funksiyalar bilan bir qatorda ma’lumot berish, axborot uzatish, tizimlashtirish, me’yorlashtirish, motivlash kabi maxsus funksiyalarni ham bajaradi xolos”.

Umuman olganda, T.V.Jerebilo o‘quv lug‘atini didaktik tizimning shunchaki bir qismi sifatida qaraydi va uning vazifasida ta’lim jarayoniga xoslanish biroz chuqurlashgan deb hisoblaydi. Ayrim tadqiqotchilar T.V.Jerebiloning qarashlariga qarshi chiqadi va bu fikr har doim ham to‘g‘ri kelavermasligi, masalan, o‘quv terminologik lug‘at tarbiyaviy vazifa bajarmasligiga e’tiborni qaratadi.

V.V.Dubichinskiy 2008-yilda nashr etilgan “Rus tili leksikografiyası” kitobining “O‘quv lug‘atchiligi” qismida: “Masalan, S.I.Ojegov va N.YU.SHvedovlarning 80 000 so‘z va iborani qamrab olgan “Rus tilining izohli lug‘ati”ning 1997-yilda nashr etilgan 4-nashridan o‘quvchilarga ta’lim berishda foydalanish mumkinmi? Qanday qilib o‘qituvchi va o‘quvchidan qamrab bo‘lmaydigan narsani qamrab olish talab qilinadi?” degan savolni qo‘yadi va shu o‘rinda amerikalik tilshunos V.M.Riversning “leksikon ta’lim ob’ekti bo‘la olmaydi”, N.YU.SHvedovaning “tilni lug‘at orqali o‘qitish mumkin emas” degan fikrlarini keltiradi. “Biroq, – deydi muallif va o‘quvchining ikkilanishiga imkon qoldirmay, – bugungi kunda o‘quv lug‘atchiligining asosliligi va zaruriyligi haqidagi bahslar asta-sekin susayyapti. N.YU.SHvedovaning foydalanuvchi “lug‘atga yoki allaqachon til bilgan, yoki uni o‘rganmoqchi bo‘lganda murojaat qiladi” degan fikri o‘quv lug‘atchiligi nuqtai nazaridan mutlaqo asossizdir”.

Olim o‘z fikrini davom ettirib 1950 yillardayoq L.V.SHerba lug‘atning hajmiga ishora qilgani, S.I.Ojegov lug‘atlarning o‘rta va kichik turlarini ajratganiga e’tiborni qaratadi va tilshunoslardan urchun bugungi kunda til leksik sathini uni o‘rgatish maqsadi bilan lug‘atda aks ettirish vazifasi leksikografiyaning eng muhim muammolaridan biri ekanligi ma’lum bo‘lganini aytadi. U nafaqat ikki tilli lug‘atlar, balki bir tilli lug‘atlar ham o‘zida tilni tasvirlash hamda o‘qitish maqsadini birlashtira olishini qat’iy ta’kidlaydi.

Xuddi shuningdek, A.E.Suprun ham “Lug‘at ta’lim berishi mumkinmi? – degan savolni qo‘yadi va fikrini davom ettirib: – Ehtimol, mumkin. Albatta, lug‘at – mashqlar to‘plami emas, shuning urchun undan o‘qitish va, ayniqsa, ko‘nikmalarni mustahkamlashni talab qila olmaysiz. Ammo lug‘at, ko‘nikmalarnigina emas, ma’lumotlarni ham o‘rgatishi mumkin”, deydi.

V.V.Dubichinskiy o‘quv lug‘atining eng muhim xususiyati metodik talablarga asosan til o‘rganishga qaratilgan vosita ekanligi, aslida, o‘quv lug‘ati nafaqat leksikografik, balki didaktik nashrligini, ona tili ta’limi ham, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi ham unga ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. U mutaxassislarning o‘quv lug‘atchiligi sohasini ajratish yoki ajratmaslikka doir ikkilanishlariga quyidagi fikrlari bilan nuqta qo‘yadi: “O‘quv lug‘atchiligining tadqiq sohasini uch tizimga mansub

bo‘lgan uch koordinatli maydon – lingvistik, psixologik va sotsiologik mezonlarga asoslangan tizim sifatida belgilash mumkin”. O‘quv lug‘atlariga bunday yondashuv, o‘z o‘zidan, uning antropotsentrik lug‘at ekani, insonni har tomonlama qamrab oluvchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

V.V.Morkovkin “Lingvotsentrik lug‘atlar – bu til uchun va til haqida bo‘lgan lug‘atlar. Ularning asosiy vazifasi mavjud til faktlarini yozish, tavsiflash va baholash. Antropotsentrik lug‘atlar – inson uchun yaratilgan lug‘atlardir. Ularning asosiy vazifasi insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o‘rgatish”, degan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 391 б. Б.125
2. Скопина М.А. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря // Теоретические основы разработки словарей учебного типа: Сб. научных трудов. / Под ред. Н.М. Шанского, Е.А. Быстровой. – М: НИИОП АПН СССР, 1981.– С. 58-70.
3. Саяхова Л.Г. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Словарь в системе филологического образования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции 26-27 октября 1999 г. / Отв. ред. Л.Г. Саяхова, Т.Н. Дорожкина. – Уфа, 2001. –С. 22-25.
4. Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. М.: Русский язык, 1977, с.28-37.;
5. Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ... д-ра филол. наук (в форме научного доклада). – М.: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990. С.9
6. Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы. Проблемы учебной лексикографии. М., Изд.-во Моск.ун-та, 1977. 189 с. –С 4
7. Гак В.Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в историческом аспекте) / В.Г. Гак // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М., 1977. – С. 11.
8. Старикова И.Л. Основы построения учебных словарей сопроводительного типа: на материале “Толкового словаря школьника” Автореф. дисс. канд.филол.наук. – М. 2008., - 25 с.
9. Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы ее описания / П.Н. Денисов. – М.: Русский язык, 1993. – 248 с. С. 210-211
10. Жеребило Т.В. Информационные модели в учебной лексикографии: теория, система, технология. Грозный: Изд-во ЧГПИ, 1997. - 37 с.; Жеребило Т.В. Учебный словарь по культуре речи.-Грозный:Изд-во ЧГПИ,1995.- 50с.;
11. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дубичинский В.В. – М.: Наука: Флинта, 2008. – 432 с. –Б 335.
12. Супрун А.Е. Некоторые свойства учебного словаря и словарь для обучающего // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексике. – М.,1978. С. 43

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HAR XIL JANRDAGI MATNLARNI TAHLIL QILISH USUL VA VOSITALARI

Jamilova Bashorat Sattorovna

Bux DU professori

Nishonova Nigora Azamat qizi

BuxDUPI magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida har xil janrdagi matnlarni tahlil qilish usul va vositalari orqali ularning tushunish darajalarini takomillashtirish hamda fanlarga bo'lган qiziqishlarini oshirish jarayonlari haqida ma'lumotlar, fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: janr, usul, vosita, ko'rgazmali ta'lif, tarbiyalash asoslari, hikoya orqali tushunish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены сведения и мнения о процессах повышения уровня понимания и повышения интереса учащихся к науке посредством методов и средств анализа текстов различных жанров.

Ключевые слова: жанр, метод, средство, наглядное образование, принципы обучения, понимание через рассказ.

ANNOTATION

This article provides information and opinions about the processes of increasing students' interest in science and increasing the level of understanding through the methods and tools of text analysis of various genres.

Key words: genre, method, tool, visual education, principles of education, understanding through story.

KIRISH

Masal, axloqiy mazmunni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko'proq she'riy tarzda yoziladi. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar - hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan oxirida qissadan xissa, ya'ni ibratlari xulosa chiqariladi. Bu o'quvchilarni ahloqiy tomondan tarbiyalashga katta imkon beradi. Masalda fikrning qisqa, lo'nda, chirolyi va ifodali tasvirlanishi, tilining o'tkirligi va xalqchilligi o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishda muhim material hisoblanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminasion nuqta va echimi bo'lган kichik pesani eslatadi. U biror voqeа- hodisani qisqa va mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

Bolalarni masaldagi kinoyaviy mazmun emas, balki, birinchi navbatda,

obrazlarning go'zalligi o'ziga jalgan qiladi. SHuning uchun masal ustida ishlashni hayvonlar hayotidan yozilgan hikoya ustida ishlash kabi uyushtiriladi. Odatda, masal personajlari o'z xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari bilan, nutqiy uslublari, odatlari bilan o'zlarini tavsiflaydilar, ba'zan u xarakteristikani masalning boshqa personaji to'ldiradi. Muallifning o'zi esa bir-ikki so'z bilan tavsifni mukammallashtiradi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganishda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga (masalni to'liq qayta hikoya qildirish tavsiya etilmaydi), ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi. 1- sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, 2- sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar. Masal tili ustida ishlaganda, o'quvchilar nutqini boyitish uchun unda ishlatilgan obrazli iboralar, badiiy vositalar o'quvchilarga mustaqil toptiriladi: o'quvchilar o'qituvchi bergen gap yoki iborani masaldagi ibora bilan almashtiradilar. Masalan, SHukur Sa'dullaning "Laqma it" masalining tili ustida ishlash jarayonida o'qituvchi "Qish kelib sovuq boshlandi. Bo'ron turdi" gaplarini beradi, o'quvchilar gaplarini topib aytadilar. Masal tahlil qilinayotganda voqeа rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida tavsif tuzish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Personajga xarakteristika berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalilanadi. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, avtor tilini yaxshi tushunish, xar bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur. Masalan, "Laqma it" masalini o'qiganda, laqma itning yalinib-yolvorishi, mushukning to'g'riso'zligi muomalasi orqali ifodalandi. Dialogli masallarni rollarga bo'lib o'qish, inssenirovka qilib, aytdirish maqsadga muvofiqdир.

Shunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: masal mazmunini aniq idrok etish; kompozisiysi, qatnashuvchilarning xarakteriga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish allegoriyanı aniqlash; Qish keladi qilich olib,

Bo'ron bilan dovrug' solib

masal qismlaridagi asosiy fikrni aniqlash; masal xulosasini tahlil qilish. Mana shu izchillik hisobga olinsa, masal o'qish darsining qurilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari (bunda masalning xususiyatlari va qaysi sinfda o'qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi:

1) masal muallifi haqida o'qituvchi hikoyasi;

- 2) o'qilgan masal materiali yuzasidan viktorini (savol-javob o'yini);
- 3) o'qilgan masalda qatnashuvchi shaxslar (hayvonlar) xarakteriga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o'qituvchi o'qishi (magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko'rsatish). Emosional baholash planida suhbat.

3. Masalning aniq mazmunini analiz qilish:

1) masal struktura va kompozisiyasini aniqlash (o'qish, reja tuzish v.h.);

2) qatnashuvchilaming xatti-harakati, fe'l-atvori sabablarini, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o'qish, so'z bilan va grafik rasm chizish, savollarga javob);

3) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib undagi asosiy fikrni belgilash.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan o'xhash hodisalarga taqqoslash.

She'r-ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his -tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqeahodisalarini poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ya'ni she'riy hikoyalar va lirik she'rlar o'qitiladi. She'riy hikoyada syujet, ya'ni voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r "biror hayotiy voqeahodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati "kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashga to'g'ri keladi". Bunda "ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi".

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy (g'oyaviy) mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. SHuning uchun she'rni tahlil qilib, uning mazmunini o'quvchilarga tushuntirish lozim. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilinganidagi ish turlaridan foydalanish mumkin. Tursunboy Adashboevning "Navoiy bobomlar" she'riy hikoyasi mazmuni savollar yordamida gapirtirilishi mumkin. Ammo lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she'rni o'qish darsida eng asosiy ish turi uni his-hayajon bilan ifodali o'qishdir. She'r ifodali o'qilgach, undagi tushuntirilishi zarur bo'lgan so'z va iboralar ikki-uch so'z bilan qisqacha izohlanadi.

She'rni o'qishdan oldin ba'zan unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa aytib beradi. Ba'zi she'rlarni o'qishga o'quvchilarni

uzoqroq tayyorlash, masalan, Qudrat Hikmatning “Qish”, “Bahor” she’rlarini o’qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o’tkazish maqsadga muvofiq.

Boshlang’ich sinflarda ko’rgazmali ta’limning asosiy formasi lirk she’rni ifodali o’qish hisoblanadi. Lirk she’rni ham, she’riy hikoyani ham o’quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir, uning uchun she’r birinchi marta o’qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o’quvchilarga qanday ta’sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O’qituvchi she’rni shunday ifodali o’qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so’z kuchliroq ta’sir etsin. O’qish oddiy bo’lishi kerak. O’qiyotganda tabiiy zavq - shavq, shodlik, xursandlik, qahrg’azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo’l qo’ymaslik zarur. Bolalar she’rni o’qiganda, she’riy satrga rioya qilishlari, she’r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

She’r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she’r mazmuni haqida o’quvchilarga ko’p savol berish tavsiya etilmaydi. O’quvchilarga she’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o’zi kifoya. Masalan, 4-sinf o’quvchilari Qudrat Hikmatning “Qish to’zg’itar momiq par” she’rni o’qiganda, “Qaysi fasl haqida o’qidingiz?” savoliga javob berishlari etarli; 4-sinf o’quvchilari shu shoirning “Bahor” she’rini o’qiganda, o’qituvchi: “She’rda yilning qaysi fasli haqida o’qidingiz? (Bahor)”. “Shamol haqida nima deyiladi? Terak, bedapoya, qushlar haqida-chi?” savollarini beradi.⁴ Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning

2. ⁴ Oripov K., Obidova M. Ifodali o’qish. T., «O’qituvchi», 1982- yil.

o’ziga xos fikrlari, his-tuyg’ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek zamonamiz qahramonlari, o’zbek xalqi Vatan himoyasi, xalqimizning qaxramonona ishlari haqidagi she’rlar mazmunini to’laroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she’rlarni o’qishga o’quvchilarni maxsus tayyorlanadi: she’r mazmuniga asos bo’lgan tarixiy voqeа haqida qisqa so’zlab beriladi yoki suhbat o’tkaziladi.

Boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan ko’pgina she’rlarni tahlil qilib, ifodali o’qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi (o’quvchilar darsda ifodali o’qimagan she’rni uyda ifodali yod aytib berishga tayyorlanishni tavsiya etilmaydi).

Bolalar she’rni yoqtiradilar. She’riy nutq engil yodlab olinadi, estetik his- tuyg’u uyg’otadi, kichik yoshdagi o’quvchilar savi yasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she’rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o’qiydilar.

Kichik yoshdagi o’quvchilarga she’rni qanday yodlash kerakligi o’rgatiladi. Buning uchun o’qituvchi o’quvchilar bilan she’rni teng satrli bir necha qismga bo’ladi. O’quvchilarga har bir satr oxirida ritmik pauza qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgi bo’lishi shart emasligi, ritmik pauzada ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik

lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi va bo'lingan qismlar navbatli bilan yodlatiladi.

Z.Diyorning "Bahor keldi" she'rini izohli o'qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) she'rda tasvirlangan bahor belgilari haqida suhbat (analiz);
- 3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) uyda she'rni ifodali o'qish va yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) keyingi darsda she'rni ifodali o'qitish, ifodali yoddan aytdirish.

Ilmiy-ommabop maqolalarni o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat,

kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishslashga va undan aniq bilim olishga o'rgatishdan i borat. Ilmiy prozada real muhit faktlarini kuzatish natijasining mantiqiy umumlashmalari va xulosalari xisoblangan aniq tushunchalar aks ettiriladi.

Tabiatshunoslikka oid (1- sinfda) va tarixiy mavzudagi maqolalami o'qish bilan bog'liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (masalan, daraxt kurtaklarining bo'rtishi), o'quvchilarni yuz bergan o'zgarishlarni, zavodlar, elektr stansiyalarini qurilishi kabi buyuk tarixiy voqealarning guvohi va ishtirokchilari bo'lган kishilar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq. 1-sinf dasturida o'qish bilan bog'liq holda kuzatish, ekskursiya, fan darslar mo'ljallanadi. Masalan, yil fasllari (kuz, qish, bahor, yoz) da mavsumiy tabiat hodisalarini (ob-havoning o'zgarishi, o'simlik va hayvonlarning hayoti) ni, shuningdek, kishilarning mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog', xiyobonlarga) ekskursiyalar o'tkazish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar bilan bog'liq holda fan darslar o'tkazilib, o'quvchilarning o'zları yiqqan, shuningdek, o'qituvchi olib kelgan daraxt kurtaklari, gullar, turli o'simlik va boshqalar o'rganiladi. Ekskursiyada ko'rganlardan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi. Fan darslarida ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin. Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilar ilgari baxtli hayot uchun, o'z hayotlarini yaxshilash uchun, ota-bobolarimiz dushmanidan vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib etishga yordam beradi; bolalar mehnat hayotning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar. Mavjud dasturga ko'ra, 2- sinf o'quvchilari "Toshkent metrosi" mavzusidagi maqolalarni, 4- sinfda esa "Asrga tatigulik kun" asarini o'qish orqali o'tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati, kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, ularda materialistik dunyoqarashni shakllantiradi, mehnat qilish zarurligini tushunishlariga yordam beradi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti (jadvali) asos qilib olinadi:

- 1) o'qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ulami matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o'tkazish;
- 2) maqolani yoki uning bo'limini o'qish, ayrim so'zlarning ma'nosini tushuntirish;
- 3) maqola yoki uning bo'limi rejasini tuzish;
- 4) o'qilgan maqola yuzasidan suhbat;
- 5) o'qilgan bo'limni asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yozish;
- 6) reja asosida maqolani qayta o'qish;
- 7) maqolani yaxlit o'qish; bunda bolalarni qayta himoyalashga tayy orlash va maqola mazmunini yaxshi o'zlashtirishlariga erishish maqsadi ko'zda tutiladi;
- 8) xulosalash va umumlashtirish;
- 9) reja asosida qayta hikoyalash.

Ilmiy-ommabop maqolalar bolalarni gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stiradi.

Xulosa: badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmu nini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy (badiiy asar misolida o'quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetik ta'siri ham ko'zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiicasi. T., O'qituvchi, 1985- yil.
2. Qosimova K., Ubaydullaeva.2-sinfda ona tili darslari.T. "O'qituvchi", 1987- yil.
3. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR “SMART CLASS” //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 18-21.
4. Sunnatula o'gli M. A. et al. TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI //World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 2. – С. 28-33.
5. Yuldashev, S., Saviev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(6), 73-82.
6. Муртазоев А. С. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 54-58.

**MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI**

Shoyeva Yulduz Amin qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi II kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida masalani muhokama qilib yechishga o'rgatishning usul va vositalari, masala yechish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: masala, masala yechish bosqichlari, masala muhokamasi, masalani illustratsiyalash,masala sharti.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy va mazmun jihatdan qayta qurish, ta'lim fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv dasturlarini o'zgartirib, yangilab borish, o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqib, amaliy hayotda qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Buning uchun avvalo, hozirgi zamon maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni mushohada qila oladigan, har bir vaziyat yuzasidan o'z fikrini bildira oladigan tanqidiy, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lishi kerak. Zotan, maktab matematika fanining oldida turgan eng asosiy shartlardan biri-mustaqil fikr yurituvchi, topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashuvchi shaxsni shakllantirishdan iborat. Mustaqil fikr yurita olish ko'nikmasini shakllantirish va uni o'stirishda "masala" tushunchasi boshlang'ich sinf matematika fanining muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyat kelajagiga hissa qo'sha oladigan yoshlarning yetishib chiqishi uchun 1-sinfдан о'quvchilarni hayotga tayyorlash, matematika darslarida ularda matematik masalalarni yechish ko'nikmalarini mukammal tarkib toptirib bormoq va bunga erishish yo'llari, usul va vositalarini ishlab chiqish lozim.

Dastavval "masala" tushunchasi ustida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu tushunchaga barcha tan olgan yagona ta'rif yo'q. Masala tushunchasi sermazmun

kategoriya hisoblanib, o‘z sohalariga qarab har qaysi olimlar uni turlicha talqin qilishadi. “Masala” bu aniq bir biror ko‘rinuvchi, lekin erishilmagan maqsadga ongi ravishda erishishga qaratilgan mos vositadir.

Darsliklarda berilgan masalalarni muhokama qilib yechishga o‘rgatish va buni ko‘nikmaga aylantirish ishlarini o‘quvchilar masala tushunchasi bilan tanishgan ilk klinikdanoq, ya’ni 1-sinfdan boshlab amalga oshirib borish lozim. Buning uchun o‘quvchilarga qulay va ular uchun eng tushunarli yo‘lni tanlay olish kerak.

Bugungi kunda maktablardagi sinov- tajriba ishlari natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matnli masalalarni yechishga, qisqacha shartini to‘g‘ri tuzishga qiynalishadi. Eng ko‘p kuzatiladigan katta kamchiliklardan biri esa masala muhokamasida o‘qituvchi tomonidan masala yechimiga eltuvchi savollarning noto‘g‘ri tanlanishidir. Masala shartining tushunarli bo‘lishini ta’minlaydigan yana bir eng muhim omil ko‘rgazmalilikdir. Maktab matematika darsliklaridagi masalalarni tahlil qilish davomida o‘quvchilarni masalalarni muhokama qilib yechishga o‘rgatishda o‘qituvchi bir qancha bosqichlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq deb isobladik.

1. O‘quvchilarni masalaning mazmuni bilan tanishtirish.
2. Masala matnidan masala yechimini izlash.
3. Masalani yechish.
4. Yechilgan masalani tekshirish.

Har bir bosqichda ishslash rejasini ustida alohida to‘xtalib o‘tsak:

1. Masala mazmuni bilan tanishtirish bu masalani o‘qib, undagi vaziyatni o‘quvchi ko‘z oldiga keltirish demakdir. Masala matnini asosan o‘quvchilar o‘qishadi. Bunda bolalarni masalani to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish juda muhimdir. Masala yechimi uchun zarur bo‘lgan amalni belgilab beruvchi “bore di”, “jo‘nab ketdi”, “baravardan bo‘ldi”, “qoldi”, “keltirildi” kabi so‘zlarga va berilgan sonlarga alohida urg‘u berish, masala savoliga esa alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Masaladagi tushunarsiz so‘zlarning ma’nosini ustida ham alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Joiz bo‘lsa masaladagi narsa yoki holat aks etgan ko‘rgazmali qurordan foydalanish kerak. Chunki bolalar masalada aks ettirilgan hayotiy voqealarni ko‘z o‘ngida tasavvur qila olishi juda muhim.

2. Masala mazmuni tushuntirilgandan so‘ng unga kiritilgan kattaliklar, miqdorlar, berilgan va izlanayotgan sonlarni ajratib ko‘rsatish, ular orasidagi bog‘lanish nimadaligi tushuntirish lozim. Shu orqali yechim uchun kerakli arifmetik amal tanlab olinadi. Tushunarsiz hollarda esa masala o‘qituvchi tomonidan illustratsiyalanishi lozim. Ya’ni ko‘rgazmalilikdan foydalanish kerak. Yuqorida aytib o‘tganimizdek boshlang‘ich sinflarda natijaviylikka erishish uchun ko‘rgazmali vositalar muhim ahmiyat kasb etadi. Asosan harakat, masofaga oid masalalarni tushuntirishda harakatli ko‘rgazmalardan foydalanish orqali masala ustida tegishli amallar illustratsiya qilinadi. Predmetli illustratsiya bilan bir qatorda 1-sinfdan boshlab seatik illustratsiyadan foydalaniladi. Bu masalani qisqa yozib olishdir.

3. Masalaning yechilishi bu yechish strukturasini tuzishda tanlab olingen kerakli amallarni bajarish ketma –ketligidir. Boshlang‘ich sinflarda masalalarning deyarli yarmi og‘zaki bajariladi. Bunda o‘quvchilarni yechilayotgan masalani amallariga doir qisqa va to‘g‘ri tushuntirishlariga o‘rgatish kerak.

4. Masala yechimini tekshirishda eng yaxshi yo‘l masala shartiga teskari masala tuzish orqali yechimlarning munosib keilishini aniqlashdir. Masalaga teskari masala tuzdirish orqali nafaqat yechimni tekshirish, balki o‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish, nutqini o‘stirish va eng muhimi mantiqiy fikrlashini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, masalada ustida to‘g‘ri olib boriladigan bu bosqichlar masala muhokamasini tashkil qilishga xizmat qiladi va bu bosqichlarni har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi aniq qoliplar asosida doimiy bajarib borsa, o‘quvchilarda masalani to‘g‘ri va doimiy ravishda muhokama qilib yechish ko‘nikmasini shakllatiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokrartik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2016.
2. Sh.Rayhonov, F.Qosimov, M.Qosimova “Boshlang‘ich sinflarda tipik arifmetik masalalar ustida ishlash”. B.2017
3. N.U.Bikbayeva, R.L.Sidelnikova, G.A. Adambekova “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, Toshkent., O‘qituvchi, 1996.
4. M.E.Jumayeva, Z.G‘.Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent: “Fan va texnologiya”. 2005

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL JANRIDAGI ASARNI O‘TISHNING SAMARALI USULLARI

*Jo‘rayeva Oliya Usmonovna
Buxoro shahar 35- maktab o‘qituvchisi
BuxDUPI magistranti*

Anotatsiya: Ushbu maqolada 3- sinf ona tili va o‘qish savodxonligida keltirligan masallarni o‘quvchilarga samarali va tushunarli qilib o‘tish usullari keltirilgan.Bu o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma bo‘ladi.

Kalit so‘zlar:Masal, majoziy, usullar, allegoriya, kompozitsiya, mozaika.


Boshlang‘ich sinf darsliklarida masal janriga kam o‘rin berilgan. Holbuki, masaldagi qissadan hissa o‘quvchi matndagi e’tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o‘qib o‘tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o‘rinni, bo‘sliqni to‘ldiradi. Masalning ixchamligi, tilining soddaligi va ixcham, lo‘ndaligi, o‘tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta’sir qiladi. Masal qahramonlarining hatti harakatlari, fe’l-atvorlari, nutqiy o‘ziga xosliklari o‘quvchilar diqqatini o‘ziga jalgan qiladi.

Boshlang‘ich sinf 3- sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” yangi darsligining

“O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiat” bo‘limi , 3- mavzusi 33- betida Shukrullo Abdullayevning “Qo‘rroq bug‘u” masali keltirilgan.Bu masal nasriy usulda yozilgan bo‘lib, yozuvchi bug‘ular va bo‘rilarni masal qahramonlari qilib olgan. Bu masaldagi majoziy qahramonlar aslida jamiyatimiz a’zolaridir. Bug‘ular niqob kiyish orqali bo‘rilarni qo‘rkitib qo‘yib o‘zlarini himoya qilishmoqchi bo‘lishdi lekin afsuski bu hiylalari ish bermay o‘zlar qo‘lga tushib qolishdi .

Masalda qissadan hissa shuki birov niqob kiyishi bilan o‘zgarib qolmaydi,botir bo‘lib qolmaydi.Jasurlik insonning yuragida, qalbida bo‘ladi. Bu masal oraqlari o‘quvchilarga birovga taqlid qilib o‘zini jasur ko‘rsatib bo‘lmasligini, tashqi ko‘rinishni o‘zgartirgan bilan inson jasur bo‘lmasligini, yoki qo‘lidan kelmaydigan ishga chiramaslik xususiyatlarini o‘rgatish mumkin.

QO‘RQOQ BUG‘U



Boshlang‘ich sinflarda masal o‘tishda quyidagi bosqichlarda bo‘lish mumkin:

- masal mazmunini aniq idrok etish;
- masal kompozitsiyasini, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarni, hatti-harakatlarining sabablarini ochish;
- allegoriyani, majoziylikni aniqlash;
- masal xulosasini, qissadan hissani tahlil qilish.

Ana shu izchillik va ketma-ketlik inobatga olinsa, masal o‘qish darsi quyidagicha tashkil qilinadi:

1. Tayyorgarlik ishlari:

- a) masal muallifi haqida o‘qituvchi hikoyasi;
- b) o‘qilgan masal mazmuni bilan bog‘liq suhbat;
- s) o‘qilgan masalda qatnashuvchi timsollarga xos xususiyatlar to‘g‘risida suhbat.

2. Masalni o‘qituvchi o‘qishi (magnitofon eshitish yoki film ko‘rsatish ham mumkin).

3. Masal matni ustida ishslash:

- a) masalning tuzilishi va kompozitsiyasini aniqlash (o‘qish, reja tuzish va hokazo);
- b) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe’l-atvori, xarakteriga xos xususiyatlarni tushuntirish (tanlab o‘qish, so‘z bilan va grafik tasvirlash, savollarga javob berish);
- s) masalninganiq mazmunidan kelib chiqib, undagi asosiy fikrni belgilash;
- d) krossvordlar, ta’limiy o‘yinlar, topishmoqlardan foydalanib, masal mazmuni va g‘oyasini o‘zlashtirish.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil etish.


6. Hayotda uchragan shunga o‘xshash hodisaga taqqoslash.

Bundan tashqari yana masallarni quyidagi usullar orqali bolalarga aniq, tez va tushunarli qilib o‘tish mumkin. Masalan: “Nega ” o‘yini orqali o‘quvchilarning masalni mazmunini qay darajada o‘zlashtirganliklarini nazorat qilgan holda ularning fikrlash qobiliyatları o‘stiriladi. Shu o‘yin oxirida savollarga yechim topiladi va qissadan hissa chiqarishga o‘quvchilar o‘rganib oladilar. Albatta bu ishlar o‘qituvchi boshqaruvida amalga oshiriladi.



Yoki klaster usuli orqali bug'u va bo'rilarining xususiyatlarini tarmoqlab hayvonlarga xos bo'lган xarakterlarni tushunib olishlariga о'rgatiladi. Masalan: Bo'rilar- ochko'z, yirtqich, tishlari o'tkir, yovvoyi ,o'rmon hayvoni, go'shtxo'r bo'lsa, Bug'ular – ular ham yovvoyi,o'rmon hayvoni, o't o'lanlar bilan oziqlanadi,hurkak,yirtqichlarga yem bo'ladi, himoyaga muhtoj.

Yana bir usullardan biri Venn diagrammasi bunda bo'rilar va bug'ular xususiyati ikki bo'lakka yozilsa, ikkalasiga xos bo'lган xususiyatlar kesishgan joyida yozib tahlil qilinadi.Bu yerda tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan о'rmonda o't- o'lanlar o'sadi,o't o'lanlar bilan bug'ular va o'txor hayvonlar oziqlanadi, yirtqich, go'shtxo'r hayvonlar bo'lmish bo'rilar esa bug'ular va o'txo'r hayvonlar bilan oziqlanadi. Natijada ozuqa zanjiri hosil bo'layotgani o'quvchilarga aytiladi.



Masal matnini rollarga bo'lib o'qish" usuli orqali ham o'quvchilarga bajartirib esda qolarli tarzda o'tish mumkin,Chunki bolalarda o'qib esda qolishdan ko'ra ko'z orqali ko'rganlari ko'proq yodda qolarli bo'ladi.

Yana masalni tushuntirishning kreativ usullaridan biri yangicha usul "MOZAIKA" usuli hisoblanadi.Bunda masalga ishlangan rasm berilgan bo'lsa rasmni chiqarib bir necha bo'laklarga qirqiladi. Orqasiga esa masal mazmunini ochib beruvchi savollar yoziladi va tarqatma usulida tarqatiladi. O'quvchilar savollarga javob beradilar.Javobi topilgan savolning qirgilgn bo'laklari doskada birlashtirilib yopishtiriladi. Natijada doskada masalga ishlangan surat hosil bo'ladi.

"MOZAIKA"



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umarova M., Xamroqulova X, Tojiboyeva R O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 3-sinfi uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2019
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, Noshir nashriyoti, 2009.
3. Avliyoqulova N.X, Musayeva N. Pedagogik texnalogiyalar. Toshkent 2008
4. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. "The role of ethnotoponym in the toponym of bukhara district." Theoretical & Applied Science 1 (2020): 414-416.
5. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. "Linguistic-etymological classification of the bukhara district." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.3 (2020): 291-296.
6. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. "The basis of researching the microtoponymy of Bukhara region." Scientific reports of Bukhara State University 1.5 (2018): 92-95.
7. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.
8. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." Conferences. 2021.
9. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.

SENUROZ KASALLIGI VA UNGA TASHXIS QO‘YISH

Nurmatov Sardor Tuxtamish o‘g‘li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Veterinariya meditsinasi faoliyat turlari yo‘nalishi talabasi

Xolto‘rayev Anvar G‘ayratovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Veterinariya meditsinasi faoliyat turlari yo‘nalishi talabasi

Hasanov Elshod Abduqahhor o‘g‘li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Veterinariya meditsinasi faoliyat turlari yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Senuroz - tasmasimon chuvalchanglardan senur (*Multiceps multiceps*)ning umurtqali hayvonlarda keltirib chiqaradigan kasalligi. Ushbu maqolada yuqorida nomi olingan kasallik muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: senuroz, kasallik, hayvon, davolash, diagnostika.

KIRISH

It, bo‘ri va tulkilar senuroz bilan kasallangan hayvonlarning bosh va orqa miyalaridajoylashib olgan pufaklarni iste’mol qilishi bilan parazitni o‘zlariga yuqtiradi. Ularning ichaklarida 40-72 kundan keyin jinsiy voyaga yetgan tasma shaklidagi senur hosil bo‘ladi. Yosh itlarning ichaklarida parazit tez voyaga yetadi.

Senuroz (aylanma, "tentak") - surunkali gjija kasalligi bo‘lib u bilan asosan, qo‘y va echkilar kasallananadi.

ASOSIY QISM

Senuroz kasalligiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri senur pufagining bosh va orqa miyaga yiriklashib borishi natijasida asab sistemasi faoliyatining buzilishidir. Ushbu kasallik bilan og‘rigan hayvonlar bezovta bo‘ladi, tipirchilaydi, bir joyda turib aylanayveradi. Ana shu belgilariga qarab kasallangan mollarni osongina aniqlash mumkin. Bu kasallik yer sayyorasining turli zonalarida keng tarqalgan. Xususan Rossiyaning quyi va o‘rta oqimidagi hududlarda, Qozog‘iston, Shimoliy Kavkaz,

Sibir va O‘rta Osiyo Respublikalarida, Ukraina va Kavkaz orti Respublikalarida ham uchraydi.

Senur bilan kasallangan uy yoki xo‘jalik mollari halok bo‘ladi yoki majburiy ravishdago‘shtga so‘yiladi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, ushbu kasallik xo‘jalikka juda katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Senuroz bilan kasallangan hayvonlarni davolashning yagona yo‘li-xirurgik operasiyaqilish va bosh miyadan yoki orqa miyadan parazit pufagini olib tashlashdan

iborat. Shunga binoan senuroz kasalligiga qarshi kurashning eng muhim yo'li profilaktik tadbirlar majmui, ya'ni ushbu kasallikning kelib chiqishiga (paydo bo'lishiga) yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Buning uchun barcha itlarni yoppasiga majburiy ravishda degelmintizatsiya qilish, daydi va foydasiz itlarni yo'qotish, kushxonalar va shaxsiy xo'jaliklarda senuroz bilan zararlangan mollarning miyasini kuydirib tashlash kabi tadbirlarni qo'llash lozim bo'ladi.

Senuroz dunyoning ko`plab davlatlarida uchrab, qo`ychilik xo`jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazib kelmoqda. Bu borada kasallikni oldini olish, ertachi tashxis qo`yish, davolash bo`yicha ko`plab ilmiy tadqiqotlar o`tkazilgan va yaxshi natijalarga erishilgan. Senuroz asosan qo`y va echkilarda uchraydigan kasallik bo`lib, bosh miya yarim sharlarida va miyachada, kamdan kam hollarda esa orqa miyada pufak hosil qilib, oqibatda hayvonlarning o`limiga yoki majburiy so`yilishiga sabab bo`ladi.

Bu kasallikka tashxis qo`yish hayvonlar hayoti davomida kasallikning klinik ko`rinishi (ko`pincha aylana harakatlar), epizootologik ma''lumotlar (yoshi, yilning birinchi yarmi), allergik intradermal tekshirish natijalariga asoslanib qo`yiladi, yakuniy tashxis operatsiyada pufak olib tashlanganda yoki patologoanatomik yorilib pufak topilganda qo`yiladi[2].

Bugungi kunda Senurozga tashxis qo`yish, boshqa kasalliklardan farqlash, pufakning miya yarim sharlarining qaysi kvadratlarida (Gersen bo`yicha) joylashganligi, qonda bo`ladigan morfologik va biokimyoviy o`zgarishlarini aniqlash dolzarbligicha qolmoqda.

Senuroz klinik belgilari pufakning joylashishiga, hajmiga va miyaning siqilishiga qarab farqlanadi . Asosiy klinik belgilari ko`zlarning xiralashishi, aylanma harakatlar, muskullarning tortilishi, koordinatsiyasining yo`qolishi, ba''zan bir tomonlama ko`rlik, ishtahaning yo`qolishi, boshni o`ng yoki chap tarafga egish, deprissiya, suruvdan ajralish, boshning pufak joylashgan qismida bosimning oshishi sababli qo`l bilan bosib ko`rilganda og`riq reaksiyasi paydo bo`lishi kabi belgilari kuzatiladi [5].

Muallif tomonidan senurozni qo`ylarda noodatiy 2 xil klinik belgilarni uchratgan;

➤ birinchi kasal hayon yon tarafga yotgan holatda boshini qorin sohasiga egib yana dastlabki holatga qaytargan, patologoanatomik yorib ko`rilganda senur pufagi o`rta miyada joylashganligi aniqlangan.

➤ ikkinchi holatda 6-7 oylik qo`zilarda tutqanoq belgilari kuzatilgan, senur pufagi ikkala yarimsharlarda topilgan va senur suyuqligi tarkibidan *S. dysgalactiae* bakteriyasi aniqlagan [3].

Kam uchraydigan muskul senuroziga chalingan echkilari qonining biokimyoviy tahlil natijalari sog`lom echkilari biokimyoviy ko`rsatgichlaridan farq qilmaydi[4].

Olimlar o`z tajribalarida sun“iy zararlantirilgan qo`zilarda senuroz o`tkir davrida eritrotsitlarning cho`kish tezligi , leykotsitlar, eozinofillarning ko`payishini kuzatdilar[1].

XULOSA VA MUNOZARA

Kasallik bo`yicha ma`lumotlar yig`ilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Senuroz kasalligida senur pufagining joylashishiga qarab klinik belgilari ham turlicha bo`ladi.

2. Senuroz miyachada uchragan hayvon o`rnidan turolmaydi, harakat kordinatsiyasi butkul yo`qoladi, klinik tekshirishlar asosida senur pufagi joylashgan joyini aniqlash qiyin.

3. Senurozda Qonning ko`rsatgichlar me``yoriga nisbatan segment yadroli neytrofillar 35,8% ga,xolesterin 3,0% ko`payganligi, eritrotsitlar cho`kish tezligi 2,7 mm/s ga sekinlashganligi, gemoglobin 1,4% ga, eritrotsitlar 33,1% ga, eozinofillar 30,0%ga, AST 64,1% ga kamayganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. John T.Sullivan. Electronic Atlas of Parasitology. Copyright. 2000. The McGraw-HillCompanies.
2. Дадаев С.Д. Паразитология. -Тошкент. 2006. -207 6.
3. Xurramov, SH.X., Xurramov, A.SH. Fitogelmintologiya. O'quv qo'llanma. Termiz2008. -
4. Chowdhury N., Tada I. Helminthology. Springer Berlin, Heidelberg, Narosa Publishing House 1994. XVI, 373 p.
5. Aminjanov M.A “Ценуроз” monografiya, Toshkent 2009. 119 bet.
6. Удовикова Л.А. Галиуллина О.Ю. “Паразитология и инвазионные болезни” Саратов 2017 стр.121

OLMA SIQMASIDAN OZIQ-OVQAT KLETCHATKAGA BOY TO'LDIRUVCHILARI OLISH TEENOLOGIYASI

Bazarbaev Ajiniyaz Polatovich,
Toshkent kimyo texnologiya instituti magistranti.

Iimi rahbar: Dodaev K.O.
*Toshkent kimyo texnologiya instituti
Texnika fanlari doktori, professor.*

Annotatsiya: Hech kimga sir emaski bugungi kunda barcha zamonaviy oziq-ovqat texnologiyasi amalda barcha fundamental fanlarga tayanadi. Xomashyoni qayta ishslash, tayyor mahsulotga aylantirish kabi murakkab jarayonlar fizika, kimyo, biokimyo, mikrobiologiya va boshqa fanlar qonuniyatlariga asoslangan. Marzkur maqolamizda ham olma mevasining siqmasidan oziq-ovqat kletchatkaga boy to'ldiruvchilari olish texnologiyasi haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Olma, oziq-ovqat, kletchatkaga, texnologiyalar, selluloza, mahsulotlar, qandolat, mineral moddalar, iste'mol.

KIRISH

Aniqlangan olma sharbati dunyodagi eng ko'p iste'mol qilinadigan sharbatlardan biridir. Ferment texnologiyasi ko'pincha sharbat hosildorligini oshirish va sharbatni tozalash uchun ishlatiladi. Bugungi kunda, olma klechatkasi sharbatni qayta ishslashning asosiy qo'shimcha mahsuloti bo'lib qolmoqda. Chunki faqat mahsulotning kichik bir qismi ishlatiladi va qolgan qismi pektin ekstraksiyasi yoki hayvon yemi sifatida utilizatsiya qilinadi.

Meva va rezavorlar inson oziqasida va sanoatda qayta ishslash uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning oziqaviy qiymatini tarkibidagi uglevodlar, organik kislotalar, azot va oshlovchi moddalar miqdori belgilaydi. Ovqatlanishda mevalar C, P kabi vitaminlar va A provitamini manbayi sifatida muhim ahamiyatga ega. Inson organizmi meva bilan qon va to'qimalarda ishqoriy-kislotaviy muvozanatni ta'minlaydigan ishqoriy metallarning asosiy massasini qabul qiladi. Mevalar shifobaxsh xossalarga ham ega. Ularda selluloza, gemiselluloza, pektin moddalarini mavjudligi sababli, organizm uchun oziqaviy tolalarning muhim va boy manbayi hisoblanadi. Yangi va qayta ishlangan meva-rezavorlar ovqatlanishda, turli konservalangan mahsulotlar tayyorlashda, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

ASOSIY QISM

Maqolamizning asosiy mazmuni olma mevasining siqmasidan oziq-ovqat kletchatkaga boy to'ldiruvchilari olish texnologiyasi hisoblansada, qisman olma mevasi haqida ham turli xil ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

OIma mevasi eng ko'p tarqalgan urug'li meva hisoblanadi. Olma tarkibida 9% gacha qandlar (fruktoza katta miqdorni tashkil qiladi), 0,2-0,7% organik kislotalar (asosan, olma kislotsasi), 1,5% gacha pektin moddalar va 5-40% C vitamini, shuning bilan birga azotli va mineral moddalar mavjud. Olmaning pektin moddalari jelelovchi xossaga ega bo'lib, undan marmelad, pastila, zefir, jele va konservalangan mahsulotlar tayyorlashda foydalaniladi. Olma pishib yetilishi vaqtiga qarab yozgi, kuzgi va qishki navlarga bo'linadi. Yozgi olma navlari-iyul, avgust oylarida pishadi va 2-3 hafta saqlanadi. Quyida eng ko'p tarqalgan olma navlarini keltirib o'tamiz:

Grushovka moskovskaya - mevasi yapasqi, noksimon, qizil yo'llari bor, och yashil. Eti oq, yumshoq, mazasi qimizak bo'ladi.

Belyi naliv - mevasi konussimon dumaloq, o'rtacha kattalikda, rangi och malla. Eti sersuv, vinosimon nordon ta'mli bo'ladi.

Papirovka - mevasi o'rtacha kattalikda, konussimon dumaloq, och sariq. Eti oq, yumshoq, ta'mi vinosimon nordon.

Shuningdek, olma noyob kimyoviy tarkibga ega. Olma mevalarining kimyoviy tarkibi ularning ozuqaviy qiymatini belgilaydi, va organoleptik va fizik-kimyoviy xossalari, o'zgarish dinamikasi ta'mi tijorat xususiyatlari uchun belgilovchi mezonlardan biridir. Qayta ishlangan xomashyo, sifatiga qarab baholanadi, bu esa jamg'arish va biokimyoviy jarayonlar bog'liq bo'lgan quruq moddalardir. Meva va ularni qayta ishslash mahsulotlarining ta'm sifatlari, alifatik seriyali organik kislotalarning miqdoriy tarkibi va ularning nisbati aniqlanadi. Olma tarkibida asosan olma kislotsasi mavjud (68%) va limon (12%) kislotalar tarkibidagi organik kislotalar asosan meva pulpasi boy. Mevalarning nordon ta'mi bog'liq shakar-kislota indeksi 10% dan 60% gacha (kislotalar va shakarlarning nisbati).

Olmaning ta'mi glitsin tarkibiga bog'liq. Polifenolning mavjudligi mevalar tarkibidagi moddalar ta'm hosil qilish nuqtai nazaridan juda muhimdir. Mevaning asosiy ta'mi shirinlikning ma'lum bir kombinatsiyasiga, ya'ni, nordon, achchiq va biriktiruvchi moddalarga bog'liq. Bog'lovchi ta'mning tashuvchilari polifenollar (taninlar), shuningdek flavonollar va ularning hosilalari hisoblanadi. Meva rangi suvda eriydigan pigmentlarga bog'liq bo'lib, ular antosiyaninlarni o'z ichiga oladi. Miqdoriy va sifat mazmuni yangi mevalarning polifenollari tayyor mahsulot sifati bilan belgilanadi.

Kletchatka – bu bizning tanamizdagi ko'pchilik a'zolarning to'g'ri faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muhim modda hisoblanib, ovqat hazm qilish tizimini nojo'ya mahsulotlardan, shu jumladan toksinlardan tozalashga yordam beradi.

2) odatiy birikmalar (*les groupements usuels*) nisbattan erkin bog‘langan birikmalar bo‘lib tarkibiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritish mumkin

3) frazeologik qatorlar (*les series phraseologiques*) bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir ma’no ifodalab keladi, ammo uning komponenetlari tartibiga o‘zgartirishlar kiritish mumkin

4) frazeologik birliklar (*les unites phraseologiques*), bunda o‘z ma’nosini tamomila yo‘qotgan, komponentlari tartibi qat’iy bo‘lgan biriklarni kiritadi .

Ikkinci kitobida esa Sh.Balli birikmalarning faqatgina ikki turini farqlaydi. U keyingi asari, ya’ni fransuz stilistikasiga bag‘ishlangan asarida odatiy birikmalar hamda frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik biriklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan .Umuman Sharl Balli frazeologiya sohasida tadqiqotni boshlab bergen ilk tilshunoslardan edi. Keyinchalik bu sohada juda ko‘p muvaffaqiyatlarga erishildi.

Frazeologiya ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo‘limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan bo‘lib u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini quyidagicha asoslab bergen edi: “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning gramatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammatic ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining, individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda⁴”. U tilshunoslikda frazeologiya ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo‘lim ekanligini ta’kidlab o’tgan tilshunoslardan biridir.

B.A. Larin Polivanovdan so‘ng frazeologiyani alohida tilshunoslik bo‘limi sifatida o‘rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. U “Frazeologiya” tilshunoslik bo‘limi sifatida hali “yashirin rivojlanish bosqichida”...u hali alohida fan sifatida rivojlanib bo‘lgani yo‘q...ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunoslida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero bu sohaga oid muammolarni ba’zan leksikografiya, ba’zida esa stilistika yoki sintaksisda hal qilinishi hech kimga sir emas⁵” deb ta’kidlab o’tgan.

³ Шарль Б. *Traité de stylistique française*. 1909.

⁴ Поливанов Е.Д. Избранные работы. Статьи по общему языкознанию. –М.: Наука, 1968. – 376 с.

⁵ Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. – М.: Ученые записки. ЛГУ, серия филол.наук. – 1956. – № 198.

Frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov ham ko‘rib chiqqan. U rus tilida frazeologik birliklarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilgan bo‘lib, uning frazeologiyaga oid ishlari o‘z davri uchun yirik qadamlardan biri edi. Ammo uning asari nashr qilingandan keyin ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatda tan olinmadi. Chunki Vinogradov frazeologiyani keng planda tahlil qilgan bo‘lib, uning frazeologiyaga oid asarlarida frazeologik birliklar va oddiy so‘z birikmalari orasidagi chegara belgilab berilmagan edi. Umuman V.V. Vinogradov⁶ tilda frazeologik birliklarni alohida belgilashni taklif qilmagan, frazeologik birliklarni so‘zlar bilan haddan ortiq yaqinligini hisobga olgan holda, u o‘zining teoriyasini so‘zning grammatick tahlili doirasiga kiritgan.

Shunday qilib frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi juda ko‘p bosqichlarni bosib o‘tgan. Xususan, frazeologiyaning rivojlanish tarixini xronologik jihatdan uch davrga bo‘lish mumkin:

Birinchi davr XVIII asrning o‘rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi, bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo‘lga qo‘yilishi M.N.Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq.

Qayd etish o‘rinlik, birinchi davrda frazeologiya leksikografiya ya’ni amaliy lug‘atshunoslik obyekti bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda ko‘proq lug‘atlarda qayd ettirish, ularning ma’nolarining etimologiyasini izohlash, talqin etishga alohida e’tibor qaratilgan edi.

Ikkinci davr, E.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K. Damilov, A.I Yefimov, A.Y. Rojanskiy kabi tilshunoslari ilmiy faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlandi va XX asrning 30-50-yillarini o‘z ichiga oladi. Bu davrni frazeologiya mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri deb ham aytish mumkin.

Uchinchi davr XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda turli metodlarni qo‘llanishi frazeologiya sohasining tez sur’atlar bilan rivojlanishi va ko‘plab frazeologiya mutaxasislarini yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Frazeologiyaning tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida shakllanishi haqiqatdan uzoq davonli yo‘llarni bosib o‘tdi. Hatto, atoqli ingliz tilshunosi Smirnitskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik bo‘limi sifatida ajralib chiqishini qo‘llab-quvvatlagan. U o‘zinig Ingliz tili sintaksisiga bag‘ishlangan asarida bu soha haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Frazeologik birikmalar tadqiqi bilan leksikologiyaning bir qismi bo‘lgan frazeologiya shug‘ullansa ham, bu birliklar tilning sintaktik sathida tahlil qilinishi lozim. Agar bu sohani alohida bo‘lim ekanligi tan olinmas ekan, qanday qilib biz uni fan deb atay olamiz”.

⁶ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М.: Высшая школа, 1974. – 340-344-с.

Frazeologik birliklar tilning lug‘at tarkibini tashkil qilguvchi, mazmunan bitta so‘zga teng birliklar bo‘lgani uchun ko‘p yillar davomida leksikologiya tarkibida o‘rganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta’kidlash lozimki, FBlarning so‘zga ekvivalentligi alohida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan masalalardandir. Sharl Balli ta’limotiga binoan FBlarning eng muhim belgisi yagona bir so‘z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish, olmaslidigadir. Bunday so‘zni Sharl Balli so‘z-identifikator deb atagan va bunday o‘zgarishlarni FBlarning ichki yaxlitgi belgisi sifatida talqin qilgan.

Ammo buyuk tilshunosning bunday qarashlariga to‘g‘ri kelmaydigan holatlar ham til tizimida kuzatiladi. Masalan, fransuz tilida juda ko‘p FBlarning so‘z-identifikatorlari mavjud emas, ya’ni ularni ma’nosini yagona bir so‘z bilan ifodalashning iloji yo‘q.

Shuningdek, tilni frazeologik fondini tashkil qiluvchi maqol va matallar identifikatori faqatgina gaplar bo‘lishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Masalan, *Aide-toi, le Ciel t’aidera , il n’y a que le premier pas qui coûte*. Inglizchaa: Help yourself, heaven will help you, there is only the first step that costs.

Shundan kelib chiqqan holda frazeologik birliklarni tilning boshqa birliklaridan farq qiluvchi, o‘ziga xos ma’no va tuzilishga ega bo‘lgan birliklardir deb bemalol aytsak bo‘ladi. Ularni so‘z ekvivalenti sifatida ko‘rib chiqish faqat sohani chalkashtirish, qiyinlashtirishga olib boradi. Albatta frazeologik birliklar va so‘zlar umumiyligi jihatlarga ega, ammo bu umumiylikni bo‘rttirib ko‘rsatish kerak emas. Xususan, ularni o‘ziga xosliklarini quyidagicha ifodalab ko‘rsatsak bo‘ladi:

1. FBlar va so‘zlar tuzilish jihatdan ham semantik jihatdan ham alohida, alohida birliklar hisoblanadi.
2. Frazeologizmlar bir butun holda, yoki qisman ko‘chma ma’noga asoslangan, so‘z birikmasi yoki gap shaklidagi birliklar hisoblanadi. Turg‘unlik, struktur-semantik jihatdan yaxlitlik ular uchun xos jihatlardir. So‘zlar esa ular kabi so‘zlardan emas morfemalardan tashkil topgan bo‘ladi. So‘zlar lug‘aviy ma’nosida ham ko‘chma ma’noda ham qo‘llanila oladi. So‘zlarda frazeologik birliklar uchun xos bo‘lmagan prefikssatsiya va affikssatsiya hodisalari kuzatiladi. Tildagi barcha so‘zlar bir biri bilan paradigmatic munosabatga kirisha oladi, ammo FBarda bunday xususiyat mavjud emas.
3. So‘zlar va FBlar tilning turli sathiga xos birliklardir, frazeologizmlar – frazeologik sath birliklari bo‘lsa, so‘z leksik sath birligidir.
4. Tilning turli sathlariga oidlik FBlarni nafaqat farqlaydi balki ularning aloqadorligini ham ko‘rsatib beradi. Masalan ularning har ikkalasida ham bir xil sintaktik funksiya bajarish kuzatiladi. Shuningdek ularning har ikkalasida ham ko‘p ma’nolilik va omonimiya, antonomiya sinonimiya kabi ma’no munosabatlari kuzatiladi .

Frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak bo‘ladi. Chunki aynan u xalqning tarixini, madaniyati va o‘ziga xosligini ko‘rsata oladi. Frazeologizmlar asosan millat an’analari-yu, urf–odatlarini, o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo fransuz tili frazeologiyasida milliy an’analarni ifodalab keluvchi FBlar bilan bir qatorda internatsional frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Ba’zi FBlarda arxaik elementlar ham saqlanib qolgan.

Ingliz va o`zbek tilshunosligida frazeologik birikmalar bo`yicha bir nechta ilmiytadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay mazkur mavzu ingliz va o`zbek tillarida qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan keng o`rganilmaganligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida frazeologik birikmalarni o`zbek maktablarida o`quvchilarga o`rgatishning lingvodidaktika masalalari bo`yicha olib borilgan ishlar salmog`i ham ozchilikni tashkil etadi Frazeologik birikmalarning paydo bo`lish yo`llari va ularning o`zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari mavzusini o`rganishda umumiyl tilshunoslik va o`zbek va ingliz tili frazeologiyasi hamda leksikologiyasi bo`yicha mavjud ilmiytadqiqotlar, xorijiy tilshunos olimlar professor I.V.Arnold, akademik V.V.Vinogradov, professor A.V.Kunin, L.P.Smit, shuningdek o`zbek tilshunos olimlardan professor E.M.Umarxo`jayev, dotsent I.S.Soliyev, Sh.Rahmatullayev, dotsent A.Abduvaliyev, professor S.R.Rahimov va boshqalarning ilmiy ishlari va asarlari xizmat qildi. Shu bilan birga ingliz va o`zbek va fransuz tillarida frazeologik birikmalarning leksik hamda leksikografik ifodalanishi yoritildi va tilda tutgan o`rni aniqlandi .

XULOSA

Ingliz tilida frazeologik birikmalar mavzusini o`rta maktablarda o`quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo`llanadigan interfaol metodlar yordamida o`qitish samarali natijaga erishish garovi hisoblanadi. O`quvchilarning intellektual faolligini oshirishda interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta`lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi. Interaktiv usullar o`zaro harakat, yoki hamkorlik asosida harakatni bildiradi. Bu metodlar bo`yicha ishslash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur. Interfaol dars ta'lim sifatini kafolatlaydi. Chunki interfaol ta'lim jarayonida o`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchini o`qitish emas, ta'lim jarayonini boshqarish va o`quvchiga sharoit yaratib berishdan iborat bo`lib, o`quvchining vazifasi o`rganilayotgan har qanday bilim, ko`nikmalarni o`zi, o`rganilayotgan muammoning yechimini o`zi qidirib topishidan iborat. Muammo o`quvchi tomonidan yechilganligi uchun ham o`quvchining o`zlashtirishi kafolatlanadi. O`quvchilar bilan ishslash jarayonida o`quvchiga mavzu yuzasidan og`zaki, yozma va test savollari hamda shu kabi mashqlar berib borish orqali frazeologik birikmalar va iboralarni o`rganish va o`zlashtirishdagi qiyinchiliklarni, muammolarni bartaraf etishga erishiladi. Xulosa qilib aytganda, so`nggi yillarda chet til o`qitish tizimida keng qo`llanilayotgan

metodlar asosan suggestopedik metodning nazariy asoslaridan kelib chiqib shakllangan. Ayniqsa interfaol metodlardan foydalansa dars samaradorligi yanada oshishi kuzatilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Алехина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке: автореф. дис. канд. филол. наук. - М., 1968. - 23 с.
- 2.Алехина А.И. Фразеологическая единица и слово. - Минск, 1991.
- 3..Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии - Л., 1963.
- 4.Аюпова Р.А. Связь фразеологической антонимии с пейоративной и мелиоративной оценочностью // Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы: междунар. науч. конф., посвященная 200-летию Казан. ун-та (Казань, 4-6 окт. 2004 г.): тр. и материалы / под общ. ред. К.Р. Галиуллина. - Казань, 2004. - С. 100-101.
- 5..Варфоломеева Н.С. Сравнительно-сопоставительный анализ фразеологической антонимии (на материале английского, китайского и русского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук / Варфоломеева Н.С.; [Моск. пед. ун-т]. - М., 2001. - 24 с. - Библиогр.: с. 22.
- 6..Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. - М.: Просвещение 1978. - 160 с.
- 7.Зибуцайте Э.И. Глагольные фразеологические синонимы в современном французском языке: автореф. дис. канд. филол. наук. - М., 1962. - 25 с
- 8.Зимин В.И. Основные виды лексико-семантических отношений фразеологических единиц современного русского языка (применительно к фразеологическому словарю): автореф. дис. канд. филол. наук. - М., 1968. - 25 с.
- 9.Кравцова А.А. Аттракция как лингвистическое явление и её функционирование во фразеологии // сб. науч. тр./ МГПИИ им. М., Тореза - М. 1980 - вып. 168.
- 10.Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Издание второе, переработанное, М., 1996
- 11.Кунин А.В. О фразеологической вариантности и структурной синонимии в современном английском языке // Проблемы фразеологии и задачи ее изучения в высшей и средней школе. - Вологда, 1965. - С. 32-33.
- 12.Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка / А.И. Молотков. Л.: Наука, 1977. - 282 с.

**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MADANIYATLARARO
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING
BIR NECHA JIHATLARI**

Raximova Nigora Atakulovna

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

“Madaniyat” so'zi turli fanlarda turli xil ma'nolarni anglatadi va hayotdagi dastlabki ijtimoiylashuvimizning bir qismi sifatida madaniyat orqali har birimiz dunyoda muloqot qilish, harakat qilish, fikrlash, obyektlar va vositalardan foydalanish usullarini o'rganamiz. Ushbu maqolada til, madaniyat, madaniyatlar tipologiyasi, kommunikatsiya turlari, og'zaki muloqot, madaniyatga moslashish, madaniyatlararo to'siqlar va to'qnashuvlar kabi masalalar yoritilgan. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ligvokulturologiya masalalari ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsada, biroq o'z yechimini topgan emas. Mazkur maqolamiz ayni mana shu masala – tilshunoslikning yangi sohasi - chet tilini o'qitish jarayonida madaniyatlararo munosabatiga qaratilganligi bilan e'tiborlidir.

Kalit so'zlar: madaniyat, ijtimoiy aloqa, madaniy aloqalar, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo aloqa, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, ekzistensial kompetensiya.

ABSTRACT

The word “culture” has different meanings in different disciplines, and as part of our socialization in life, by means of culture each of us learns ways to communicate, move, think, use objects and tools in the world. This article addresses issues such as language, culture, typology of cultures, types of communication, oral communication, cultural adaptation, and intercultural barriers and conflicts. Linguoculturological issues related to the concept of language and culture, which are currently attracting everyone's attention in linguistics, have been studied by many scholars, but have not been resolved. It is noteworthy that this article focuses on this issue - a new field of linguistics - intercultural relations in the process of teaching a foreign language.

Keywords: culture, social communication, cross-cultural communication, communicative competence, intercultural relations, linguistic competence, sociolinguistic competence, existential competence.

Til va madaniyat o'rtasidagi aloqalar. Til o'rganish nafaqat alifbo, lug'at va grammatikani o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, matn mazmunini, masalan, xulq-atvor va madaniy me'yorlarini o'rganishni o'z ichiga qamrab olishi zarur. Yangi

axborot texnologiyalari tufayli ish jarayonlari, kundalik hayot tarzi, ta'lim va kundalik muloqot jarayonlarida madaniyatlararo o'zaro ta'sirning barcha xususiyatlari ko'z o'ngimizda o'zgarib bormoqda. Masalan, talabalar qandaydir yangi tilni o'rganayotganlarida yangi til mazmuni haqida va bu tilni o'rganish jarayonida ushbu til xususiyatlari bilan birgalikda madaniyat bilan ham bevosita muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Har qanday tilni o'rganish uchun ular nafaqat tilni, balki u bilan bog'liq barcha xususiyatlarni: joy, makon, tarix va madaniyatni o'rganish jarayonidan o'tadilar. Shunday qilib, ular tilda gaplashish orqali o'sha til madaniyatiga, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchi va mohiyatiga avtomatik ravishda singib ketishlari mumkin. Shuning uchun Gao, Tang va Xu kabi tilshunoslar [“Madaniyat va til”- 2009.

101-129] “Til - bu madaniyat va bu ikki atama bir-biri bilan chambarchas bog'liq” degan qat'iy fikr bildirgan edi. Brok va Nagasaka [“Til o'qitish asoslari” – 2005. 12-23] kabi boshqa mutaxassislar til o'rganishning barcha bosqichlarida madaniyatlararo yoki pragmatik kompetensiyani hisobga olish kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu dastur o'rganilayotgan xorijiy til o'rganuvchilarni ijtimoiy ko'nikmalarga ega qila oladi, chunki o'quvchilar bu ko'nikmalar orqali ijtimoiy aloqa o'rнata oladilar va bu borada muvaffaqiyatga erisha oladilar. Til aloqa vositasi va madaniyat birligi sifatida qo'llaniladi. Ingliz tili o'qitish tizimi sohasida til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga oid ikki qarama- qarshi nuqtai nazar mavjud: birinchi qarashda til va madaniyat uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Ushbu fikr Biram va Grandi tomonidan 2003- yildagi maqolasidan olingan. “Biroq ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra, ingliz tilini o'qitish madaniy kontekstlaridan individual ravishda o'rganish kerak”, - deb ta'kidlanadi Sardining 2002- yildagi kitobida. Ushbu mashhur munozaralar til va madaniyat tushunchalari bir- biriga bog'langan yoki bog'lanmaganligini ko'rib chiqadi. Til va madaniyat ajralmas tushunchalardir. Madaniyat tushunchasini o'quv dasturining asosiy mavzusi sifatida tushunmaslik kerakligi haqida berilgan eng so'nggi bahs 2003-yilda Bennet va boshqalar tomonidan taqdim etilgan. Ushbu olimlar madaniyat tushunchasini til o'qitish jarayonidan chetlatish uchun bir nechta noto'g'ri fikrlarni sanab o'tishgan. Birinchidan, ular til o'quv dasturlari allaqachon ishlab chiqilgani va uni butunlay o'zgartirib bo'lmasligini aytishadi. Shunday ekan, xorijiy til o'quv dasturiga madaniyat tushunchasini kiritish uchun o'quv dasturida qo'shimcha joy yo'q deb hisoblashadi. Ikkinchidan, ko'pgina o'qituvchilar uchun biror bir xalqning madaniyatini o'rgatish til o'rgatishdan ko'ra qiyin tuyuladi. O'qituvchilar odatda madaniyatlararo kompetensiyani o'rgatishga tayyor emasliklarini his qiladilar, shu tufayli madaniyat bilan bog'liq holatda o'qitish tajribasi deyarli yo'q. “Ular tajribaga ega bo'lgan taqdirda ham madaniyat tushunchasi va u haqidagi fikrlar o'zgarib turadi”, - deya fikr yuritadi Korbet [200354/64]. Uchinchidan, ba'zi oliy ta'lim muassasalari ham madaniyat va tilni chambarchas holda o'qitishni ma'qul ko'rishmaydi va ular ko'pincha talabalarni universal yoki milliy testlarda yuqori ball olishga tayyorlash kabi ta'limga

oid ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan shug’ullanadilar va shu sababli talabalar o’rtasida madaniyat haqida yetarlicha ko’nikma hosil bo’lmaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, yuqoridagi ma’lumotlar Bennet tomonidan emas, balki boshqa o‘qituvchilar va amaliyotchilar tomonidan ham aytilgan dalillarga asoslangan. Til va madaniyat doirasida tildan tashqari, real dunyoda mavjud bo’lgan madaniy voqelikda qo’llaniladigan lingvistik shakllar emas, balki boshqa ramziy tizimlar mavjuddir: biz madaniyat deb ataydigan odatlar, e’tiqodlar, yodgorliklar va madaniy hodisalar shular jumlasidandir. Madaniyatga aylanish uchun tildagi har bir tarkibiy qism ma’noga ega bo’lishi kerak. Bu xuddi biz kundalik turmushimizda hayotimiz uchun zarur bo’lgan narsalarga e’tibor qaratganimizdek gap”, - deb munozara qiladi Kramsh.

Til o’rganish va o’qitishning dasturlari boy pedagogik tajribalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak:

- muloqotga kirishuvchi sifatida orttirilgan tajribasi;
- o’quv jarayonida vositachilik qobiliyati;
- o’quvchilarning ma’lumot qabul qilish jarayoni yoxud o’quvchining o’quv uslubini aniqlash;
- til va madaniyatni o’qitish jarayonida texnologiyalardan foydalanish;
- sinfda turli xil faol jamoalar tashkil etish;
- ta’lim va madaniyat o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganish;
- vositalar (asboblar va texnologiyalar), faoliyat tizimlari va jamoalardagi amaliyot jarayonini o’z ichiga oladi. Til o’rganish orqali talabalar bir vaqtning o’zida kamida ikkita til va shu til tizimida madaniyat bilan hamohang tarzda ishlashni o’rganadilar. Xorijiy til o’rganish jarayonlariga ijtimoiy- madaniy yondashuv o’quvchilarning amaliyotda o’zlarining tajribalari, ishtiroklari, vositachiliklaridan foydalanishlariga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar o’quvchilarning o’quv muassasalarida yangi akademik “madaniyatlar” (harakat qilish, o’zaro ta’sir o’tkazish, tilni, obyektlar va jarayonlarni baholash va ulardan foydalanishning yangi usullari)ni o’rganish jarayonida ta’sir qiladi. [Ji, 2008: 100].

Madaniyat va til o’qitish-fikrlash doirasini o’zgartirish. Til foydalanuvchining muloqot qilish qobiliyati va barcha ijtimoiy kompetensiyalari tomonidan shakllantiriladi, shuning uchun bularning barchasi kommunikativ kompetensiyaning aspektlari sifatida qaralishi mumkin. Umumiy kompetensiyalarga deklarativ bilimlar (zamonaviy texnologiyalarni qo’llay olish mahorati, ijtimoiy madaniy bilimlar va madaniyatlararo xabardorlik), ko’nikma va nou-xau, amaliy va madaniyatlararo ko’nikma, ekzistensial kompetensiya va o’rganish qobiliyati (tilni

bilish va muloqotga kirishish, umumiy fonetik tushuncha va ko'nikmalar, o'rganish qobiliyatları va ijodkorlik qobiliyatları) kiradi. Kommunikativ til kompetensiyalariga lingvistik kompetensiyalar (leksik, gramma tik, semantik, fonologik, orfo grafik va orfoepik), sotsiolingvistik kompetensiyalar (ijtimoiy munosabatlarning lingvistik belgilari, xushmuomalalik qoidalari, xalq donoligi ifodalari, farqlarni qayd etish, dialekt va urg'u) va pragmatik kompetensiyalar kiradi [CEFR 2002: 101-130]. Xorijiy til o'qituvchilari va tadqiqotchilari yuqorida sanab o'tilgan barcha toifalarda u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan boshqa bir kompetensiyaga, ya'ni madaniy qobiliyat mavjudligiga butunlay ishonishadi. Masalan, Bardos Kanal va Sveyn [1980: 23-32] tomonidan ishlab chiqilgan modelga beshinchi kompetensiya sifatida madaniyat tushunchasi qo'shildi. Ularning fikricha, madaniyat boshqa barcha kompetensiyalarda mavjud va uning ajralmas bir qismidir. Xorijiy til o'rgatish jarayonidagi madaniyat maqomi, ahamiyati va mazmuniga oid yana bir qancha mulohazalar va qarashlar shakllantirilib, bu masalaning qay darajada murakkab ekanligini ko'rsatadi. Ushbu keltirilgan talqinlar Rivers [1981:78], Biram [1989: 98] va Silay [1993: 67] ga tegishlidir. Riversning so'zlariga ko'ra, "Biz o'quvchilarga dars mazmunini o'zlashtirishga yordam beradigan mos rejaga ham, ijodkorlik qobiliyatiga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Jarayonlar o'quvchilarni til muhitidan tashqariga chiqishga undashi kerak, shunda ular so'zlovchilarning madaniyat darajalarini chuqurroq idrok eta boshlaydilar. Bu jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarning o'rganilayotgan chet tilida turli xil oldingi tajribasi va malakalarini hamda o'quvchilarning muayyan tilda ona tili sifatida so'zlashishlari yoki munosabatlarini ko'rsatadi. Talabalarning til o'rganish jarayonida har xil darajada bo'lishlari ularning o'rganish uslublari har xil ekanligini anglatadi. Shunday qilib, tillarni o'rganish bo'yicha pedagogikani ishlab chiqishda o'qituvchilar o'rganish uslublari va talabalarning qobiliyatlarini, shuningdek, eng muhimi, til va madaniy xilma-xillikni hisobga olishlari kerak" [1981. 314]. "Chet tilini o'rgatish ta'lim sifatida mening o'quvchi va o'qituvchi sifatidagi tajribamda ham, pedagogik falsafamda ham o'z milliy yashash muhiti va madaniyati chegarasidan xalos bo'lishdir" [Byram 1989: 8]. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, o'rganilayotgan xorijiy tildan ona tilida so'zlashuvchi sifatida foydalanadigan odamlarning madaniyatini til o'rgatishda e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Bir qancha tilshunos olimlar xorijiy til o'qitish uslublarini til o'rganuvchilarning mahalliy va xalqaro madaniyatga kirishuvchanlik qobiliyatları bilan birligida hisobga olgan holda ushbu jadvalni yaratishadi. Bu orqali nafaqat chet tili o'rganuvchilarining muvaffaqiyatga erishuv jarayonlari, balki foydali maslahatlar ham berib o'tiladi.

Quyidagi jadvalda chet tilini o'rganish va o'rganilayotgan til madaniyatiga bevosita aralasha olish to'g'risida amalda sinalgan ma'lumotlar keltiriladi:

Mulohaza o'quvchilarda til va madaniyatning muloqotdagি roli haqida tushunchani rivojlantirishga yordam beradi. Bilimlarni rivojlantirish, o'quv uslublarini yangilash va mulohaza yuritish orqali talabalar madaniyat va til o'rtasidagi tafovutlar va o'xshashliklarni oson anglaydilar. Bu Kramshning "Bugun o'qituvchilar uchun mavzuni qay tarzda o'quvchiga yetkazishni bilish yetarli emas ular qo'shimcha o'quv uslublarini yaratish amaliyotini o'rganishlari kerak"-degan fikriga mos keladi [2006: 251]. Ular nafaqat bilimni rivojlantirish va undan foydalanishni o'rganadilar, balki til, madaniyat va undan foydalanish haqida meta-ongni rivojlantiradilar. Bu meta-ong asta-sekin o'zo'zini, o'z tilini, o'z madaniyatini anglashga aylanadi. [TfEL Frameworkning 1-domeni:

2012]. Talabalar o'quv dasturi davomida ijtimoiy aloqa o'rnatishlari va ta'lim maqsadlarini tushunishlari kerak va bu ma'nolar har doim talqin qilish uchun zarurdir.

O'quvchilar mavzu haqida berilgan sharh bilan birga keladigan mulohaza, talqinlar, taxminlar, istiqbollar, pozitsiyalar xilma-xilligini o'rganadilar. Bu muloqotda almashinadigan narsa nafaqat faktik bilimlar, mavzular va g'oyalar, balki tajriba almashishda ishtirok etayotganlarning barchasining tajribasi, ijodkorona fikrlari va dunyoqarashini o'z ichiga oladi. [Liddikout va Sarino: 2013].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, ushbu maqola til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratishga urinish, nega madaniyatni o'qitish chet tili o'quv dasturining ajralmas qismi bo'lishi kerakligini tushunish haqida ma'lumot beradi. Adabiyotlarni chuqur tahlil qilish madaniyat va uning chet tillarini o'rganish jarayonidagi ahamiyatli jihatlarni yaxshiroq tushunishga hissa qo'shishga qaratilgan edi. Til o'rganish yoki o'qitish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u faqat o'rganilayotgan chet tilining grammatik, leksik va fonologik xususiyatlarini bilish va tushunish bilan cheklanib qolmasligi, balki o'sha til madaniyatini o'rganish yoki o'rgatish bilan ham shug'ullanishi kerak. Politzer va Brusk kabi ba'zi olimlarning fikricha, "Til va madaniyat bir xil tushunchalardir". O'qituvchilar nafaqat o'z o'quvchilariga madaniyatlararo muloqot qanday sodir bo'lishini taqdim etishlari va tavsiflashlari kerak, balki madaniyatlararo muloqotda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'yinlar yoki simulyatsiyalar kabi amaliy vositalarni ham qo'llashlari zarur. Madaniyatlararo va shaxslararo (o'zaro) samarali muloqotni ular haqida yetarlicha tushunchaga ega bo'lmasdan amalga oshirish mumkin emas. Xorijiy tilni madaniyat bilan birgalikda o'rganishdan maqsad – muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e'tibor bergen holda tahlil qilishdan, farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to'qnashuvlarni oldini olishdan iborat. Til va madaniyat tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-biridan ajratilmaydi, chunki tilning o'zi madaniyatdir. Madaniyatni o'qitish o'quvchilarga odamlarning turmush tarzi, qarashlari, e'tiqodlari va qadriyatlarini va til ko'nikmalari haqidagi bilimlarini

oshirishga imkon beradi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, agar o'qituvchilar til o'qitish metodiga madaniyat tushunchasini targ'ib qilsalar, o'quvchilar til o'rganishda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin, ya'ni o'quvchilar bu bilan nafaqat til bo'yicha, balki o'rganayotgan tillari haqida barcha zarur manbaalarga ega bo'ladilar. Zero, madaniyat til yuzaga kelishidan oldin paydo bo'lgan tushunchadir.

REFERENCES

1. Bardos Canale va Swain.“Language”.1980 54-55-b
2. Brock & Nagasaka . Pragmatic Content in Global and Local Textbooks. 2005; 34-40-b // [“Til o'qitish asoslari” – 2005. 12-23]
3. Byram & Gerundy. Context and Culture in Language Teaching and Learning. 2003// GAO, 2006// Jiang, 2000// Malmaud, 2015// Tang, 2009// Xu, 2009; 210-b
4. Byram & Gerundy. Context and Culture in Language Teaching and Learning. 2003 – yildagi maqola - 57-b
5. Cefr, “Diskuss kompetensiyasi va fuksional kompetentsiya”-2002- 101-130-b 6. E.Sheyen.“Til” // ” Madaniy elementlarni e'tiborsiz qoldirishga moyil bo'lgan til o'rgatish muammosi”. 2004-32-76
7. Gee. Discover Book. 2008; 100- b
8. Kramsch. Language and Culture. 2006.- 101-b
9. Sardi, "Teaching Techniques of Culture and language" -2002-23-54 South Australian Teaching for Effective Learning-TfEL Frameworking -1- domen.
10. Khasanova, Gulسانам Кхусановна MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/main-trends-in-the-development-of-educationand-professional-training-in-the-world> (дата обращения: 05.01.2022).
11. Khusanova, Khasanova Gulسانам. "Essential features of vocational education systems in Uzbekistan and Japan." European science review 3-4 (2018).
12. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
13. Хашимова С. НЕКОТОРЫЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УДВОЕНИЯ В ЯПОНСКОМ ЯЗЫКЕ. - Страны. Языки. Культура. – С. 334-338.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1-10
15. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同 " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"-A LINGUISTIC AREA. Journal of Central Asian Social Studies, 1(01), 05-14.
16. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1086-1092.

JADIDCHILAR HARAKATINI O'RGANISHGADA MAHALLIY VA XALQARO OLIMLARNING FIKRLARI

Nosirov R.O.

TDTrU professori

Annotatsiya.

Ushbu maqolada jadidchilar harakatini o'rganishgada mahalliy va xalqaro olimlarning fikrlari xaqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, Turkistonda paydo bo'lgan jadidchilik harakati va o'sha davrda sshakllangan ta'lif falsafasining ijtimoiy-tarixiy genezisi, jadidchilik harakatining xalq maorif sohasiga ta'siri va insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi muhim o'ringa ega ekanligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif, jadidchilar, tarix, genezis, istiqbol, mohiyat, maorif, sivilizatsiya, xalq ta'limi, bilim.

Kirish. Jadidlar kim bo'lganini tushunib olish uchun o'sha davr tarixini juda yaxshi bilish zarur. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida paydo bo'ldi. Agar biz jadidchilik paydo bo'lishining tarixiy sabablarini tushunishni istasak, tarixga birox chuqurroq kirib borishimiz, XIX asrdagi falsafa va ma'rifikatning kuchayishi, qanchalik g'ayritabiyy ko'rinasini, O'rta Osiyo xonliklarining XVI asrda Buyuk ipak yo'li zaiflashib qolgani bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan qoloqligi obektiv sabablarini anglab olishimiz kerak bo'ladi. O'sha vaqtida dengiz yo'llari ochilib, G'arbda, Yevropada texnologiyalar jadal rivojlanana boshladi. Subektiv sabablar esa xalq xo'jaligi va umumiy rivojlanishga ulkan zarar yetkazgan ichki urushlardir.

Turkistonni Rossiya imperiyasi bosib olgandan keyin o'lka metropoliyani tabiiy boyliklari, xususan, paxta va ipak bilan beg'araz ta'minlab turgan xomashyo bazasiga aylandi. Keyinchalik boshqa tabiiy resurslarni ham qazib olish va markazga haydab berish dasturi ishlab chiqildi, faqat ushbu maqsadlarga erishishda xizmat qiluvchi sohalar rivojlantirildi. Rus sarmoyasining Turkistonga kirib kelishi, albatta, banklar rivojlanishi, temiryo'llar qurilishiga turtki berdi, ammo sudxo'rlik kapitalining rivojlanishidan singan dehqonlar sonini jiddiy tarzda oshirib yubordi. Bunga mana bunday raqamlar misol bo'la oladi: 1912 yil noyabriga kelib, aholining qarz beruvchi tashkilotlar oldidagi qarzi 157 million rublga yetdi. 1917 yilga kelib, Farg'ona viloyatining ayrim uezdlari – tumanlarida yersizlar 30 foizga, Andijon viloyatida esa 50 foizga yetdi. Turkistondagi ahvol qanday bo'lganini shu raqamlardan ham bilib olsa bo'ladi. Shu bilan birga, madaniy inqiroz, butunlay safsataga aylanib qolgan ta'lifning ahvoli haqida ham gapirishga to'g'ri keladi. Umuman, bu davrga kelib, islom falsafasi qadrini yo'qotib bo'ldi, ya'ni u sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarning ulamo tarafidan maishiy talqiniga aylanib qoldi, xolos.

Shuning uchun jadidlar – yoshlar, bu esa yoshlar harakati edi. Men jadidlarning yosh tarkibini o‘rgandim. Ma’lum bo‘lishicha, mashhur jadid va yoshlarning sevimli yozuvchisi Cho‘lpon 1910 yilda 13 yoshda, Behbudiyning yoshi esa 30 oshiqroq bo‘lgan ekan. O‘scha harakat ishtirokchilari faqat yoshlardan iborat ekani ma’lum bo‘lyapti. Ayni masalaga yongdashilganda, shundan kelib chiqish kerak bo‘ladi. Bu yoshlar intellektual jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunar edi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, ma’rifatparvarlikning chuqur ildizlari bo‘lib, faqat jadidchilik ko‘rinishida zuhur bo‘lgani yo‘q. Uning ma’rifatparvarlik ildizlari ham bor edi va jadidchilik ushbu harakatning akkumulyatori – quvvat yig‘uvchisi bo‘ldi. Albatta, u oldingi adabiyot, oldingi falsafa yutuqlariga asoslangan. Jadidlar o‘zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qildi. Bilamizki, mashhur ma’rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoni, Abay Qo‘nonboyev va olim Cho‘qon Valixonov islohotning hassos tarafdarlari bo‘lgan, ular boshi berk ko‘chadan chiqishni nafaqat ma’rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko‘rgan. O‘tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma’rifatparvarlikdan siyosatga o‘tgan jadidlar shu zaminda unib chiqqan.XVIII asr fransuz ma’rifatchilari aql va ongning roliga juda yuksak baho bergan edilar. Jahon adabiyotidagi ma’rifatchilik bosqichi bilan shug‘ullangan taddiqotchilar XVIII-XIX asr Yevropa ma’rifati va madaniyatining rivoji ma’lum darajada ilohiyashtirilganligini e’tirof etadilar. Bu, tabiiyki, Yevropa mamlakatlarda kapitalizmning rivoji, feodal-patriarxal munosabatlarning taraqqiyotga to‘g‘anoq bo‘lib qolishi, jamiyat hayotida ilm-fan rolining birdan kuchayib ketishi kabi qator omillarga bog‘liq edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistonda ham shunga yaqin sharoit maydonga keldi. Nazarimizda, o‘lkamizda 1905 yildan keyin yaqqol ko‘zga tashlangan fikriy uyg‘onish va madaniy ko‘tarilish o‘z mohiyati bilan XVIII asr fransuz ma’rifatchiliga ko‘p jihatdan o‘xshash edi. Shu sababli bir qator fransuz olimlari tomonidan Turkistonda yuzaga kelgan ma’rifatchilik harakatiga nihoyatda qiziqish uyg‘ongan. Avloniy ma’rifatchiligining ildizi ham shunga borib taqaladi. “Turkiy guliston...”da aql va ilmning, ma’naviy- axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug‘lanishi adib ma’rifatchiligining bevosita mazmunidan kelib chiqadi. Mana u nima deb yozadi: “Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, akd boshlovchidir...” Muallif o‘z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday muqoyasa keltiradi: “Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidin keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson... aql va idroki soyasida o‘ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergen insonlarning aqlidur”. Hukamolardan biri: “Har narsa ko‘paysa, arzon bo‘lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur”, — demish. Adibning qarashlarida

Navoiyning inson haqidagi mashhur “inson — xilqat toji” nuqtai nazari (konsepsiysi)ning ta’siri yaqqol sezilib turadi.

Turkiston jadidlari ilmiy- ma’naviy merosi Fransiyalik jadidshunos olimlar Stefan Duduongon , Aleksandr Benningsen va Shantal Lemersiye-Kelkujey tomonidan keng o‘rganilgan. Stefan Duduongon jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ijtimoiy-falsafiy jihatlari, uning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o‘rni, jadidshunos olimlar shuningdek, Cho‘lpon ijodi (“Kecha va kunduz”, fr. “Nuit” haqida o‘zining qator ilmiy-tadqiqot ishlarida to‘xtalib o‘tgan. Aleksandr Benningsen va Shantal Lemersiye-Kelkujeylarning ilmiy ishlarida ko‘proq jadidlarning mintaqaga xalqining ongi, ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lida olib borilgan ishlar: milliy matbuotning tashkil etilishi, gazeta va jurnallar, darsliklar yaratilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

1883 yilda qrim-tatar farzandi Ismoil Gasprinskiy tomonidan asos solingan “Tarjimon” gazetasi, keyingi yili esa Boqchasaroyda isloh qilingan maktabning bosqichma-bosqich muhim rol o‘ynaganini barcha tarixchilar hali hanuz e’tirof qilib kelishadi. XX asr musulmon jamiyatini qayta tiklashning kuchli “dvigateli”ga aylanib, an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlab siyosiy mustaqillikkacha bo‘lgan yo‘l bosib o‘tildi.

Jadidchilar tomonidan olib borilgan islohotlarning izchil davomi sifatida Xivada Bobooxun Salimov boshchiligidida “Jamiyati xayriya” tuzilib, uning ko‘magi bilan 1904 yil 10 noyabrda Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. 1908 yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Shu yili jadidlar tomonidan Buxoroda ma’rifiy jamiyat – “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) tashkil etgan. Xayriya jamiyatining say – harakati va yordami bilan 1908 yilda 14 ta, 1911 yilda 15 ta, 1912 yilda 30 ta buxorolik va turkistonlik yoshlar Istanbulda tahsil olgan . Ular orasida Abdurauf Fitrat, Usmonxo‘ja, Hamidxo‘ja Mehri, Otaxo‘ja, Mazhar Mahzum, Burxon Mahzum kabilar ham bor edi. “Tarbiyai atfol”ning ko‘magi asosida Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” va “Sayha” asarlari, shuningdek, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid. Burhonov va boshqalarning kitoblari Turkiyada nashr etilib, Turkistonda tarqatilgan.

1909 yilda xayriya jamg‘armalarini tashkil etish faollashdi. Abdulla Avloniy ham “Jamiyati xayriya” tuzib, yetim bolalarni o‘qitgan. 1909 yili Toshkentda Munavvarqori tomonidan “Jamiyati Imdodiya” tuzilgan. U ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishga yordamlashgan. “Ko‘mak” xayriya jamiyati ham Toshkentda 1909 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning ta’sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo‘jayev va Tushxo‘ja Tuyoqboyevlar bo‘ldi.

Jadidchilik harakati tomonidan ishlab chiqilgan jamiyatlar maktab doirasi bilan chegaralanib qolishni maqsad qilgan emas edi va tez orada bu harakat siyosiy tus oldi. Xususan, Rossiya protektorati ostidagi Buxoro va Xiva xonliklarida hukmronlarning o‘zboshimchaliklari bilan bog‘liq edi. Shunday qilib, Rossiya ma’muriyati tomonidan

mavjud bo‘lgan so‘nggi xonliklarning o‘ta siyosiy qoloqligi tufayli “Yosh Buxoroliklar” va “Yosh Xivaliklar” tashkilotlari, o‘n yil oldin tuzilgan Usmonli modelini qoralaydi. Chunki, Usmoniyalar sultanati parchalanishdan oldin paydo bo‘lgan “Yosh turklar”ning asosiy maqsadi mamlakatda turli xil nizolarni keltirib chiqarish hamda Turkiyada ajnabiylar hukmronligiga qarshi kurash va demokratik jamiyat qurish bo‘lgan. Turkistondagi harakatlarning asosiy maqsadi ham yuqoridagilarga o‘xhash bo‘lsada, asosiy e’tibor yoshlarni chet ellarga yuborish, ularning zamonaviy bilim olishlarini ta’minlash bo‘lgan. Mavjud vaziyatda 1917 yilning 9 mart kuni Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidida Mustafo Cho‘qayev, Abdulvohidqori, Mirkomil Mo‘minboyev, Ahmadbek Temurbekov kabi bir guruh a’zolar “Turon” jamiyatidan ixtiyoriy ravishda ajralib chiqdi va mustaqil siyosiy jamiyat - “Sho‘royi Islomiya” tashkilotiga asos soldilar . 1917-1918 yillar qishida Turkiston Muxtoriyati, keyin esa 1920 yil avgust-sentabr oylarida ma’lum darajada Buxoro va Xorazm Xalq respublikalarining e’lon qilinishi siyosiy faoliyatning bevosita natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy Turkiston jadidchiligi tarixining bir-biriga chambarchas bog‘langan ikki qizil ipi, uning paydo bo‘lishidan to Ikkinci jahon urushi arafasida uning so‘nggi vakillarining stalincha qatag‘onlarigacha bo‘lgan eng keng muxtoriyatni zabt etish, so‘ngra rivojlangan davlatlar hamjamiyatiga qo‘shilish istagi edi. Darvoqe, harakatning buyuk namoyandalari Munavvar Qori, Behbudiy va Fitratlar 1917 yildagi ketma-ket voqealarga, ayniqsa, shafqatsiz qatag‘onlardan so‘ng, o‘z tahririyatlarida (“Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Buxoro axbori”, “Najot”, “Kengash”) bolshevizmni tanqid qilib turli xil maqolalar e’lon qilishni boshlaganlar. Turkiston siyosiy tashkilotlari, xususan, Fitrat boshchiligidagi harakat Rossiya sotsial-demokratik mehnat partiyasi hokimiyatni Petrogradda qo‘lga kiritishini la’nat sifatida qabul qilgan bo‘lsada, Turkiston jadidchiligining Avloniy yoki Tavallo kabi boshqa qahramonlari Sovet hukumati Turkistonga hech bo‘lmaganda o‘z nomini barpo etish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy ta’lim tizimini olib kelishiga ishonch hosil qilib, avvalo uning xizmatiga murojaat qildilar [5]. Bu umidsizlik Avloniyning “Ishtirokiyun” gazetasida chop etilgan “Qizil bayroq”, “Coz” she’rlarida so‘zsiz ifodalangan. Aynan adabiyot va nashriyot sohasida jadidchilikning asosiy nazariyotchilari va siyosatchilari ma’lum muddat panoh topib, jamoatchilik ongini mustahkamlashga qaratilgan ijodiy faoliyatini davom ettirmoqchi edilar.

Turkiston jadidchiligi o‘zining birinchi nazariy ifodasini topgan bo‘lib, uni qo‘llashning ustuvor yo‘nalishi maktab islohoti edi. Hattoki, jadidchilik haqiqatan ham O‘rta Osiyoning janubiy qismida bugungi kungacha saqlanib qolgan shakllarda zamonaviy adabiyotning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan degan fikri ilgari surishi mumkin – o‘zbek adabiyoti tarixchilari odatda XX asr boshidagi ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan innovatsion asarlarni “jadidlar” deb atashadi. Darvoqe, birinchi yirik zamonaviy tanqidchilarimizdan biri chig‘atoy turkiy tilidagi adabiyot tarixida 20-30

yillarda hozirgi o‘zbek tilida adabiyot paydo bo‘lishidan darhol oldingi ikki buyuk davrni ajratib ko‘rsatilgan:

O‘rta Osiyoda homiylik harakati yaxshi rivojlangan edi. Tadbirkorlar, boylar va savdogarlar orasida jadidlarga homiylik qilgan kishilar ko‘p bo‘lgan. Masalan, mashhur Azimboyevlar urug‘ini olaylik. Bu dongdor urug‘ vakillari hali Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olmay turib, Rossiya bilan savdo aloqalari o‘rnatgan, o‘sha yerga qatnab turgan. Albatta, ularga yaxshi, ma’lumotli, rus tilini biladigan mutaxassislar kerak bo‘lgan, shuning uchun ular ushbu maktablar va gazetalarinng ahamiyatini yaxshi tushungan. Masalan, Said Azimboyev bunday maktablar ochish uchun maxsus joy ajratgan, pul bergen. Andijon viloyatidan Mirkomilboy ham pul ajratgan. Bunday kishilar juda ko‘p edi. Ular gazetalarga homiylik qilgan, chunki homiylik mablag‘larisiz gazetalarni chop etishning iloji bo‘lmagan. 1900 yildan boshlab, O‘rta Osiyo uchun nisbatan ko‘p gazetalar paydo bo‘lgan. Masalan, 1906 yilda Obidov muharrirligida “Taraqqiy” gazetasi nashr etilgan, o‘sha yili Munavvarqori rahbarligida “Xurshid”, 1907 – 08 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida “Shuhrat” gazetasi chiqa boshlagan. Bektemirov “Osiyo” gazetasiga rahbarlik qilgan. Biroq tez orada mustamlakachilar hukumati o‘z eksperti Ostroumov bergen ma’lumotga tayanib, ushbu nashrlarni yopadi. Ostroumov maktablar va gazetalarni yopish uchun ko‘p “jonkuyarlik” qilgan. Biroq ma’rifatparvarlikning gazeta va jurnallar chop qilish bilan ifodalangan yangi to‘lqini 1913 yili boshlandi hamda “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Turon” va Oyna” singari gazeta va jurnallar dunyo yuzini ko‘rdi. 1917 yilga kelib, Turkiston muxtoriyati o‘rnatilgach, “Hurriyat”, “Najot”, “Buyuk Turkiston” va eng muhimi, Said Azimboyevning sharofati bilan “Tujjor” gazetasi paydo bo‘ldi. O‘sha gazeta jadidlar uchun minbar vazifasini o‘tadi, islohot borasidagi g‘oyalarini targ‘ib qilish bilan yanada ko‘proq imkoniyatlar oolib berdi. Umuman olganda, ular soni 15 ta bo‘lib, ulkan mafkuraviy kuchga ega edi. Men 1917 yildan so‘ng matbaa ishlari qanchalik rivojlanganini bilmayman, chunki endi boshqa qonunlar amal qila boshlagan edi. 1918 – 1919 yillarga kelib, Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishga rozi bo‘lgan jadidlar faoliyat ko‘rsatgan qaysidir gazetalar boshqa nomlar bilan chiqib turgan. Lekin oradan ko‘p o‘tmay hammasi yopilib ketgan.

Xulosa qilib Turkiston diyorida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy harakat hisoblanadigan jadidlar faoliyatiga nafaqat yurtimizda balki, xorijda ham e’tibor juda katta. Shuningdek, boshqa chet davlatlari singari fransiyalik tadqiqotchilar tomonidan jadidlar ilmiy-ma’naviy merosi ijtimoiy-falsafiy jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar so‘nggi yillarda ortib bormoqda.

REFERENCES

1. Adilovich, Nosirov Rashod. "THE STRATEGIC VALUE OF EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TRAINING OF PROMISING PERSONNEL POTENTIAL." (2022): 183-186.
2. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 203-205.
3. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
4. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
5. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 8.1 (2021): 1388-1396.
6. Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
7. Bakhtiyarovna, Y. M., Shukhratovna, S. I., Izatullaevna, I. I., Muydinjanovna, Y. D., Yurevna, F. L., & Mamadjanovna, K. M. (2022). INDEPENDENT EXTRACURRICULAR WORK OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF A CREDIT MODULAR SYSTEM. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3302-3305.
8. Mamura Bakhtiyarovna Yuldasheva (2022). THE STYLISTIC SIGNIFICANCE OF TRANSLATING PORTRAITS UZBEK NOVELS INTO ENGLISH. Academic research in educational sciences, 3 (2), 224-228. doi: 10.24412/2181-1385-2022-2-224-228
9. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. Theoretical & Applied Science, (3), 11-14.
10. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
11. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
12. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.

13. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
14. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. Academic research in educational sciences, 3 (10), 372-376.
15. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
16. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_6_2
17. Н. Ш. Юнусова, Жавлон Алимухаммедов, & Мухаммад Суяров (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ДИН ВА АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 222-226.

BUGUNGI DAVRDA CHET TILINI O‘QITISHNING ASOSIY DOLZARB MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY TAHLILI

Yuldasheva Mamura Baxtiyarovna
Toshkent davlat transport universiteti
“Chet tillari” Kafedrasи o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim sohasidagi yutuq va kamchiliklari haqida gap borganda bu bevosita o‘qitish mazmuniga borib taqaladi. Ma’lumki, bugungi kunda har qanday fan o‘qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko‘ra, uning mazmuni tanlanadi. Hamda ularni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan innovatsion texnologiyalar foydalanish usulari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Chet tili, pedagogik mahorat, interfaol metodlar, fan, texnika, Chet tili ommalashtirish, zamonaviy texnologiyalar, zamonaviy usul, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar,

Kirish. Bugungi kunda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar kundan kunga oshib bormoqda. Zamonaviy avlod vakillari monolingual bo’lib qolishni xoxlashmaydi. Ayniqsa shiddat bilan rivojlanib borayotgan ingliz tili butun dunyonи butun bir global jamiyatga aylantirdi. Barcha sohalar biznes olamidan tortib ta’lim ,ishlab chiqarish, axborot va dasturlash tillari ingliz tilida olib borilyapti. Biz esa albatta xar qanday tilni qisqa muddat ichida o’zlashtirishni va ona tilidek gapirishni xoxlaymiz . Dunyo olimlari bu masala ustida anchadan beri bosh qotirishmoqda. Quvonch bilan aytish mumkinki, ushbu muammolar yechimini topishda ancha ilg’or tajriba va yutuqlarga erishildi. Ushbu maqola har qanday chet tilini o‘qitishdagi zamonaviy 3 usul haqida bo’lib tilni o‘qitishda ham o‘rganishda ham shubhasiz qo’l keladi. Biroq har qanday usulni qo’llashdan avval o’zingizda kuchli istakni shakllantira olish va maqsad qo’yish zarur. Aks xolatda sizga hech bir metod yordam bermaydi. Stiven Kovi takidlaganidek “ Maqsadsiz yashash bu mashinani nomalum tomonga tumanda haydash deganidir. Qayoqqa borishni bilmaysan ammo vaqt va yo’l o’taveradi”. Xurmatli mushtariylardan esa quyidagi usullarni qo’llashdan avval qaysi tilni qancha muddatda o‘rganish uchun aniq maqsad qoyib olishingizni so’raymiz.Hayotimizni ta’lim sohasidagi yutuq va kamchiliklari haqida gap borganda bu bevosita o‘qitish mazmuniga borib taqaladi. Ma’lumki, bugungi kunda har qanday fan o‘qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko‘ra, uning mazmuni tanlanadi. Uni o‘zlashtirish uchun unga mos metodlar tanlanadi. So‘ngra o‘quv vositalari va nihoyat, bularga mos ravishda o‘qitish shakli tanlanadi. Biz fanni, jumladan chet tilini o‘qitishda va tinglovchiga yetkazib berishda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelarkanmiz, ularga sababchi bo‘lgan omillarni ko‘rib chiqishimiz joiz. Avvalo tanlangan

adabiyotlarga e'tibor qaratish kerak. Masalan, texnik yo'nalishlarda xalqaro ta'lim standarti bo'yicha talabga javob beradigan darslik va adabiyotlarning yo'qligi shular jumlasidandir. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy va moliyaviy masalalarini hal qilish, uzlusiz ta'lim tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralar ni ishlab chiqishni talab qiladi. Sifatli o'quv adabiyoti nafaqat o'rganuvchilarning qiziqishini oshiradi balki yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'limgan o'qituvchilarning kamchiliklarini ham bartaraf qiladi. Boshqacha aytganda hatto ta'lim oluvchilarni sifatli darslik bilan o'qitayotgan oddiy o'qituvchi ham yaxshi o'qituvchiga aylanishi mumkin. YA'ni, yaxshi o'qish ham, samarali o'zlashtirish ham o'quv adabiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, yaratiladigan o'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quv adabiyotlarning mazmuni erkin fikrlash, olingen bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlardan izlab topish ko'nikmalarini hosil kilishni ta'minlashi kerak.

Fan, texnika, san'at, sayyohlik, xalqaro aloqa va xalqaro ishlarda keng qo'llanilayotgan tillar ilg'or tillar bo'lib, bugungi kunda dunyoning aksar davlatlarida chet tili sifatida o'qitilishi tilning faqat o'z davlati chegaralaridagina emas, balki boshqa millatlar va madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lishini, uni samarali tarzda tan olinishi va o'rgatilishi uchun ko'proq o'rganilishini anglatadi. Xorijiy tillardan xususan ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy ta'lim metodlari ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, o'zlashtirishning o'ziga xos muammolari mavjud. Maqolada shu muammolar haqida fikr yuritamiz.

An'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil bu pedagogning faoliyati hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'ringa ta'lim jarayonidagi talabalarning faoliyati qo'yiladi. Shunday ekan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy kilish, xorijiy hamda hamdo'stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak o'quv jarayonidagi tanlangan metod ham guruhdagi talabalar bilimini hisobga olgan holda ishlanishi kerak. Agar tanlangan metod orqali talaba ijodiy ishlasa, guruh faol bo'lsa, mavzuni tahlil qila olsa, bu har ikki tomonning ko'zlangan maqsadidir. Fanda o'ziga xos qo'llash kerak va mumkin bo'lgan texnologiyani tanlashda o'qituvchi o'z mahorati va imkoniyatiga tayanadi. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan maqsad – darsni qiziqarli va samarali o'tkazish, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilimini mustahkamlash, shuningdek talaba va o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri

tashkillashtirishdir. Bunda natijaga erishish uchun o‘qituvchi biror texnik vositadan yoki tarqatma materiallardan, o‘yinli mashqlardan, jumboqli savollar va shunga o‘xshashlardan foydalanishi mumkin, lekin buning uchun xonaning, guruhning holatini, ya’ni talabalar sonini, ularning imkoniyatini, bilim saviyasini hisobga olishi zarur. Agar o‘qituvchi uchun samarali, lekin talabaga tushunarsiz yoki bilimiga nisbatan qiyinlik qiladigan, vaqt hisobga olinmagan pedagogik texnologiya natija bermaydi, shunday ekan bu har tomonlama o‘ylab qo‘llanilishi kerak bo‘ladigan texnologiyadir. Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda chet tili darsida ham bir necha yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Ta’lim jarayonida pedagog mavzu yoki matnni o‘rgatish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada talaba faoliyati o‘z aksini topmog‘i, vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko‘rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi hisobga olinishi lozim. Jahan tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlarida keng ommaviylik tusini olgan o‘qitish metodlaridan biri kichik guruhlarni tashkillashtirish. Guruhlarga berilgan vazifalar bosqichma-bosqich navbatlanishi ya’ni galma-gallanishi lozim. Ta’lim yunalishi va pedagogik maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda bunday guruhlar aralash bilimli (a’lo, yaxshi, qoniqarli) talabalar orqali shakllantiriladi va unda barcha talabaning galma-gal ishtiropi talab qilinadi. Bu esa o‘quvchi-talabaga ham o‘z ijodini namoyish qilishga, munosabatga kirishishida, o‘z fikrini bayon qilishiga va xatolarini anglashiga yordam beradi. Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo‘llaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, o‘kuv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Chet tili o‘qitish metodikasida zamonaviy metodlar. Z.Sanaqulov, B.Juraboyev. 2021. www.ares.uz
2. Teens English 7. Pupil’s book.
2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
3. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. Theoretical & Applied Science, (3), 11-14.

4. Yuldasheva Ma'Mura Bakhtiyarovna (2020). The organization of the mental lexicon. Наука, образование и культура, (1 (45)), 44-45.
5. Bakhtiyarovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY
6. Bakhtiyarovna, Y. M. THE ROLE OF CULTURAL AND STYLISTIC ASPECTS IN LITERARY TRANSLATION.
- 7.YO'LDOSHEVA, M. (2022). БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОСТИЛИСТИК ВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ.
- 8.YO'LDOSHEVA, M. (2022). Портрет тасвирилаш бадий қаҳромонни LITERARY таржимада қайта ифодалашнинг асосий усули сифатида
- 9.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI. PEDAGOGS jurnali, 25(2), 118-121.
- 10.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. World scientific research journal, 11(1), 60-65.
- 11.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). PROS AND CONS OF DISTANCE EDUCATION TODAY TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY. World scientific research journal, 11(1), 76-80
12. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
- 13.Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
- 14.Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
- 15.Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
16. Adilovich, Nosirov Rashod. "THE STRATEGIC VALUE OF EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TRAINING OF PROMISING PERSONNEL POTENTIAL." (2022): 183-186.
17. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – С. 203-205.
18. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
19. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
20. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 8.1 (2021): 1388-1396.

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLOHOTLAR

Saydivaliyeva Barno Saidbaxromovna

Toshkent davlat transport universiteti

"Chet tillari" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya – ushbu maqolada O'zbekistonda ta'lismizda amalga oshirilayotgan ishlohotlar uyg'onish davrini bevosita ta'lismizda sohasiz tassavvur qilish mushkul bo'lган davrda yoshlarning ta'lismizda tarbiyasini eng birlamchi masalalaridan biri qilib ilgari surgan holda, amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning yaqin yillarda o'zining kutilgan natijalarining ilmiy xulosalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lismizda tarbiya, uchinchi Renessans, "Baytul hikma", "Ma'mun akademiyasi", "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya"si.

KIRISH. Ta'lismizda sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari uning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va pedagogikasi, shuningdek, jahon xalqlari pedagogikasining ilg'or yutuqlari asosida ta'lismizda mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda o'qituvchilar, pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochib berish va uni har tomonlama rag'batlantirish, bilim va ko'nikmalarining puxtaligini ta'minlaydigan zamonaviy didaktik vositalar qo'llashni keng ko'lamda yo'lga qo'yish, shu asosda ta'lismizda mazmunini yaxshilashga erishishdan iborat bo'ldi.

Bugungi kungacha o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda ta'lismizda amalga oshirilgan islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga va uning taraqqiyot istiqbollariga mos keladigan ta'lismizda tizimini tashkil qilishga olib keldi. Unda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- ta'lismizda bozor iqtisodiyotiga va ochiq jamiyatga qayta yo'naltirish;

- aholining turmush farovonligini oshirishning zarur sharti sifatida ta'lismizda olish uchun teng imkoniyatlar yaratish;

- ta'lismizda xizmatlarining barqaror va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida ta'lismizda moliyalashtirish tizimini yaxshilash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;

- ta'lismizda sektorining boshqaruvini takomillashtirish.

O'zbekistonda davlatning bu sohadagi siyosati va Ta'lismizda islohot qilish Konsepsiysi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tomonidan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lismizda to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. 1-bosqich – 1997-2001 yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo‘srimcha ravishda 65 milliard so‘m mablag‘ sarf qilindi.

Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturining moddiy-texnik ba’zasini yaratish davri deb nomlandi. 2-bosqich – 2001-2005 yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi deb nom oldi. 3-bosqich – 2005 yildan boshlanib, undan keyingi yillarni ham o‘z ichiga olmoqda. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosi yakuniga etkazilib, erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, tahlil etilmoqda hamda shu asosda yurtimizda yangi ta’lim tizimi yanada takomillashtirilmoxda. SHu boisdan bu bosqich ta’lim tizimini modernizatsiyalash davri deb atalmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan:

- ta’lim tizimida kadrlarning salohiyatini har tomonlama takomillashtirish hamda o‘qituvchilar, ustozlar va ilmiy xodimlarning professional nufuzini oshirish;
- ta’lim tizimini tarkibiy qayta qurish, ta’lim va professional dasturlarni tubdan o‘zgartirish, ta’lim, fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi jahon yutuqlariga tayanish;
- majburiy o‘rta umumta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim va tarbiya tizimiga o‘tishni ta’minlash.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganidan so‘ng respublikamiz butun ta’lim tizimi, jumladan, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishi ham tubdan isloh qilishning aniq strategik dasturiga ega bo‘ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining O‘zbekistonga xos eng muhim xususiyati – yangi turdagи 3 yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi. Zamonaviy o‘quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta’lim standartlari va axborot texnologiyalari, interaktiv usullar o‘quv jarayoniga tatbiq etildi.

Oliy ta’limda bakalavriat va magistratura tizimi joriy qilindi. jahon standartlariga xos oliy ta’lim tizimiga o‘tildi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovningso‘zlari bilan aytganda «Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g‘ayrat-shijoatli shaxslarni, o‘z mamlakatimizning chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma’naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkin».

Ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni bilan belgilangan bo‘lib, maktabgacha ta’lim, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus va professional

ta’lim, oliy professional ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim shakllarida tashkil qilindi. Yurtimizda yangilanish jarayonlari va islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda mamlakatizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida tub o’zgarishlarga erishish, va uning kelajagini ta’minalash uchun, avvalo, yosh avlodlarning dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadryatlarimizga tayangan holda yangi O’zbekistonda yangicha dunyoqarashni shakllantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu boisdan, yoshlarimizda vatanga muhabbat ruhini uyg’otishda, avvalambor, ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash hamda O’zbekistonni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Hozirgi paytda mamlakatimizning ishlab chiqarish sohalariga muttasil ravishda yuqori samaradorlikka asoslanib kelmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davlatlar safidan o’rin olishga harakat qilayotgan O’zbekiston uchun bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarida asosiy diqqat-e’tibor yoshlarning ijtimoiy-siyosiy dunyo qarashlarini, fikrlashlarini Vatan manfaatlariga yo’naltirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugun Yurtimizda yangilanish jarayonlari va islohotlarga dahldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o’z o’rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo’lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga va g’oyaga ega bo’lgan zamонавиј yoshlarni tarbiyalashda ta’limni rivovlantirishning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmoqda.

Kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo shaxsni ko‘rishi lozim. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, komil insonlar etib voyaga yetkazish ishi ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lib qoladi. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi. Talimni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda butun mamlakat miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o’rgatish tizimlarini tubdan yangicha isloh qilishga nihoyatda katta e’tibor qaratilayotganligining boisi ham shunda. Ko‘plab mamlakatlar barqaror rivojlanishining yangi darajaga ko‘tarilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydigan asos, bu-ta’lim, fan hamda innovatsiyadir.

Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “yangi O’zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yanimiz, erishayotgan zalvarli yutuqlarimizning e’tirofidir. O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sш urgan hozirgi

zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik:

1.IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davr, u al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg'oniy, Buxoro tarixchisi Narshaxiy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg'oniy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziy, Mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritishi bilan bog'liq.

2.Ikkinchi Renessansi XIV asr oxirgi choragi – XVI asr birinchi choragi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasiga 1,5 mln.kv. kilometr territoriyada hukmronlik qilgan (XIV-XVI asrlar) davriga to'g'ri keladi. Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Husayin Voiz Koshifiy, Kamoliddin Begzod kabi buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoniga lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

"Baytul hikma"da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o'girgan. "Baytul hikma", Xorazm Ma'mun Akademiyasi, umuman, islam olami olimlari faoliyati o'sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunalaridan biridir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma'naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o'rghanmasdan, biz Uchinchi Renessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga goyaviy va ilmiy tolerantlik, ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g'oyaviy mutassiblikni tamomila inkor etish xos bo'lmog'i lozim.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg'or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo'lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirishimiz zarurdir.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya zarurligini taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talablariga to'liq javob beradigan kishi turli dvrarda har hil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni "tugal er", Forobiy "fozil kishi", tasavvuf namoyandalari "komil inson" deb ataganlar. "Har tomonlama rivojlangan shaxs", "uyg'un rivojlangan shaxs" atamalari ham qo'llanilgan.

Biz, ayni chog'da hayot-mamot masalasi – farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasini eng birlamchi masalalaridan biri qilib ilgari suryapmiz. Bunday siyosat yaqin yillarda o'zining kutilgan natijasini beradi. Bizning tabarruk zaminimizdan butun dunyo Uyg'onishga turtki bergen Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo

Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olim va ijodkorlar yana ko‘plab yetishib chiqishiga ishonamiz.

Nihoyatda jozibali mazkur strategik g‘oya o‘zining ulug‘vorligi, milliy yuksalish barcha sohalarda qanday umumiy maqsadni ko‘zlamog‘i zarurligini ko‘rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekiston milliy g‘oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bogchalar va maktablar tizimida maqtanishga arzigelik ulkan ishlar qilindi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari qurish hamda Zamonaviy maktab dasturini joriy etish borasidagi say-harakatlar ham izchillik bilan davom ettirilmoqda. Binobarin, O‘zbekiston respublikasi prezidentining “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni ushbu islohotlarni amalga oshirishda katta axamiyatga ega. “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘yan ekanmiz, - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, - bunga faqat islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun yangi avlod o‘quv yurtigacha, ta’limning barcha bo‘g‘inida islohot qilishni boshladik. Ilm yo‘q joyda, qaloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi milliy kadriyatlarimizga sodik bo‘lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi lozim.

2019-2021 yillarda mutlaqo yangi mazmun va shakldagi 14 ta Prezident maktabi, 9 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlantirish uchun 2022-yil xolatiga ko‘ra oliy o‘quv yurtlari soni 162 taga yetgan, jumladan, 30 ta nufuzli xorijiy universitetning filiallari xamda 25ta nodavlat oliy o‘quv yurtlari . Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalariga 2021-2022- o‘quv yilida jami 808,4 nafar talaba o‘qishga qabul qilindi.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – “Economist” jurnali O‘zbekistonni 2019 yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – “Yil mamlakati” deb e’tirof etdi. Buyuk Britaniyaning Times Higher Education agentligi tomonidan e’lon qilingan “World University Rankings – 2023” reyting natijalariga ko‘ra, bu yil respublikaning yana 18 ta oliy ta’lim muassasasi «reporter» maqomida qayd etildi. Bu bilan Top-1000 talik reytingdan joy olish uchun da’vogarlar o‘tgan yilgi 10 tadan 28 taga yetdi. Taraqqiyot strategiyasi loyihasiga ko‘ra, kelgusi 5 yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini 62 foizdan 80 foizga yetkazish rejorashtirilmoqda. 2026-yilga kelib esa 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq

nodavlat muassasalarini qurish, 160 mingdan ko‘proq kadrlar malakasini oshirish maqsad qilingan.

Oliy ta’limda yoshlar uchun barcha qulayliklar joriy etilmoqda. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2020 yilda 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkaziladi. So‘nggi 4 yilda mamlakatimizda 43 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 121 taga yetdi. 2022-2023 yili oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun 1,2 millionga yaqin yoshlarimiz hujjat topshirdi (2020 yilda salkam 1,5 million). Davlat granti bo‘yicha o‘qiyotganlar 120 ming nafarni (jamiga nisbatan 14,8 foiz) tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar 2020/2021-o‘quv yiliga nisbatan taqqoslanganda davlat granti bo‘yicha o‘qiyotganlar soni 23 ming nafarga (23,5 foizga) ortgani kuzatiladi. Ma’lumot uchun, 2022/2023-o‘quv yili uchun ham 190 mingdan ziyod abituriyent talabalikka tavsiya etildi..

Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etildi. Oliy Majlis palatalari Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida iqtidorli va tashabbuskor o‘g‘il-qizlarimizning 8 mingdan ziyod biznes loyihalariga qariyb 1,7 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Hukumat qarori bilan, xotin-qizlarga tijorat banklari tomonidan foizsiz ta’lim krediti ajratish tartibi joriy qilingandi. Bunda, talaba va bank o‘rtasida 14%li ta’lim krediti ajratish to‘g‘risida shartnoma imzolanadi hamda kredit bo‘yicha foiz stavkalari to‘liq davlat byudjetidan qoplanadi Ma’lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu boisdan ham biz “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi” doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta “Tarbiya” fanini joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlari samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi karor qiladi:

Konsepsianing maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiysi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

-birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

-ikkinchi bosqich — maktabgacha ta’lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

-uchinchi bosqich — umumiyl o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

-to‘rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar

Buning uchun ularning hayoti va faoliyatiga oid badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr asarlari, hujjatli filmlar yaratish zarur. Ularning portretlari maktab, kollej, litsey, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, madaniyat saroylari, kutubxonalar, kino va konsert zallari foyelerida, xatto metro bekatlarida bo‘lsa, yosh avlodga o‘rnak olish, taqlid qilish, intilish uchun imkoniyatlar yaratgan bo‘lar edik. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘z paytida ijod ahliga kino, televide niye va teatrlarimizda zamonamiz qahramonlari obrazlarini yaratish to‘g‘risida nihoyatda zarur ko‘rsatmalar bergen edi. Lekin, afsuski, bu vazifa ko‘ngildagidek bajarilmadi. Chunki farzandlarimiz o‘zimizning milliy qahramonlarimizni bilmasa, u holda, chetdan “qahramon” izlab topadi. U topgan “qahramon” banklardagi seyflarni ochib, pul o‘maradigan o‘g‘rimi, odam o‘ldirishdan tap tortmaydigan ashaddiy kallakesarmi, insonlarning mabdag‘larini turli zamonaviy usullar bilan o‘zlashtiradigan firibgarmi, bunisi endi bizga noma’lum. Aytishadiku, agar biz o‘z farzandlarimizni o‘zimiz tarbiyalamasak, ularni “tarbiyalovchilar” bir zumda topiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya — kelajak, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Zero, mamlakatimiz aholisining 64%izini yoshlar tashkil etar ekan, ularni Yurtimizdagи yangilanish jarayonlari va islohotlar davrida yoshlarni millat, ona Vatanga muhabbat va ularning taqdiriga befarq bo‘lmagan hamda o‘z ajdodlariga munosib zamonaviy yoshlar etib ulg‘aytirish maqsadida ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda, chekka hududlarda ham zamon talablariga mos maktablarning barpo etilishi, shuningdek, iste’dodli o‘quvchilarni rag‘batlantirish borasidagi keng ko‘lamli ishlar samarasи bugun erishilayotgan natijalar, yutuqlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Darhaqiqat, yangilanayotgan O'zbekistonda kelajagi negizi bu yuksak marralarni ko'zlab katta yo'lga chiqqan, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan biz yoshlarmiz. Shunday ekan, hozirgi kundagi Prezidentimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar va islohotlardan foydalangan holda barchamiz yagona maqsad yo'lida vijdonan ishga kirishsak, albatta, zafar biz tomonda bo'ladi.

REFERENCES

1. Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar. Z.Sanaqulov, B.Juraboyev. 2021. www.ares.uz
 2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
 3. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. Theoretical & Applied Science, (3), 11-14.
 4. Yuldasheva Ma'Mura Bahtiyorovna (2020). The organization of the mental lexicon. Наука, образование и культура, (1 (45)), 44-45.
 5. Bakhtiyorovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY
 6. Bakhtiyorovna, Y. M. THE ROLE OF CULTURAL AND STYLISTIC ASPECTS IN LITERARY TRANSLATION.
 - 7.YO'LDOSHEVA, M. (2022). БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОСТИЛИСТИК ВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ.
 - 8.YO'LDOSHEVA, M. (2022). Портрет тасвирлаш бадиий қаҳромонни LITERARY таржимада қайта ифодалашнинг асосий усули сифатида
 - 9.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI. PEDAGOGS jurnali, 25(2), 118-121.
 - 10.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. World scientific research journal, 11(1), 60-65.
 - 11.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). PROS AND CONS OF DISTANCE EDUCATION TODAY TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY. World scientific research journal, 11(1), 76-80
 12. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
- <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>

- 13.Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
- 14.Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
- 15.Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
16. Adilovich, Nosirov Rashod. "THE STRATEGIC VALUE OF EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TRAINING OF PROMISING PERSONNEL POTENTIAL." (2022): 183-186.
17. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 203-205.
18. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
19. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
20. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector:

“ЦЕЛЬ, ЗАДАЧИ И ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТАМИ”

Abdurazakova Albina Rinatovna

*Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til imkoniyatlari, ijodiy tafakkur sohibi, kommunikativ savodxonlik, pedagogik texnologiya, ongli verbal kognitiv ta’lim to‘g‘risida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Til imkoniyatlari, ijodiy tafakkur sohibi, kommunikativ savodxonlik, pedagogik texnologiya, ongli verbal kognitiv ta’lim, amaliy maqsad, ta’limiy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad.

Аннотация: В данной статье описаны языковые возможности, творческое мышление, коммуникативная грамотность, педагогические технологии, сознательное словесно-познавательное образование.

Ключевые слова: Речевые возможности, творческое мышление, коммуникативная грамотность, педагогическая технология, сознательное словесно-познавательное образование, практическая цель, воспитательная цель, развивающая цель.

Annotation: This article describes language capabilities, creative thinking, communicative literacy, pedagogical technology, and conscious verbal cognitive education.

Key words: Language capabilities, creative thinking, communicative literacy, pedagogical technology, conscious verbal cognitive education, practical purpose, educational purpose, developmental purpose.

В честь независимости осуществляются большие реформы в сфере образования. С первых дней независимости серьезное внимание уделялось воспитанию подрастающего поколения. Введение в действие Закона «Об образовании», «Национальной программы подготовки кадров», «Государственных образовательных стандартов» характеризуется как важнейший этап в этих процессах. Эти документы также устанавливают ряд требований к обучению на родном языке. На этой основе также были обновлены программы и учебники по родному языку. Изданы и внедрены в преподавание два поколения обновленных учебников родного языка. Взгляды и требования к преподаванию родного языка изменились. Учебники создавались исходя из этих требований.

Хотя методика обучения родному языку как педагогическому предмету накопила богатый опыт, в связи с преподаванием этого предмета возник ряд

проблем. Причина этого в том, что ряд современных технологий вошел и входит в образовательный процесс, обновлены учебники родного языка общеобразовательных школ, созданы учебники для академических лицеев и профессиональных колледжей. Взгляды и анализы, связанные с этим, методические указания должны стать предметом изучения методики обучения узбекскому языку. В этом смысле содержание данного предмета можно определить следующим образом: разработка последовательной системы обучения родному языку, подбор и внедрение методических рекомендаций по организации занятий родным языком, а также современных педагогических технологий в области методологии., интерактивные методы обучения языку заключается в разработке отраженных в нем научных основ. Этот предмет направлен на внедрение полученных знаний в педагогическую практику, эффективное использование передовых педагогических технологий. Методика обучения узбекскому языку изучает дидактические основы формирования творческого мышления. Научная методика преподавания родного языка подрастающему поколению: что?, сколько?, как? отвечает на вопросы, которые необходимо преподавать.

Изучение методики преподавания языка означает поиск, выбор и применение на практике подходящих методов для разных этапов обучения.

Основной целью методики обучения узбекскому языку является формирование у учащихся навыков и умений правильного, точного, уместного и эффективного использования языковых возможностей, развитие логического и творческого мышления, повышение коммуникативной грамотности, формирование у учащихся национальной самостоятельности. в формировании идеи и духовном обогащении личности школьника.

Основной задачей методики обучения языку является воспитание учащихся, умеющих свободно, творчески и самостоятельно выражать свои мысли в устной и письменной форме, опираясь на нормы литературного языка, и обладающих способностью передавать один и тот же смысл в различных ситуациях.

Наука о методике преподавания узбекского языка имеет свои теоретические основы и научные методы исследования. Это следующие: 1. Наблюдение. Лингвисты и ученые-методисты читают, слушают и следят за методическими статьями и лекциями, прочитанными на научных конференциях, периодических изданиях и педагогических исследованиях, наблюдают за современными моделями уроков и делают из них соответствующие выводы. С помощью этого метода преподаются проблемы, связанные с обучением родному языку, определяются новые взгляды и методы.

2. Эксперимент. Ученые-методисты делятся результатами своих научных исследований на научных конференциях и апробируют методы, которые они

предлагают и хотят использовать в определенных школах или академических лицеях, на основе разумных и надежных критериев. Они анализируют результаты. Этот метод создает основу для доказательства достоверности и обоснованности рекомендуемых научно-методических гипотез.

3. Тестирование. С помощью этого метода изучаются теоретические знания, навыки и умения студентов. Проведение контрольных вопросов позволяет сделать обобщенные выводы о знаниях и приобретенных практических навыках учащихся и студентов.

4. Раздача анкет и анкет. С помощью этого метода изучаются отношение, интересы и желания преподавателей и студентов к науке.

5. Учебно-методическое наследие. Хотя история обучения родному языку восходит к глубокой древности, методика его преподавания не имеет долгой истории. Хотя в произведениях живших в прошлом художников, таких как Аль-Хоразми, Фараби, Ибн Сина, Беруни, Замахшари, Навай, есть идеи, связанные с образованием и обучением, но как учить родной язык, непонятно. нет мыслей, связанных с обучением. Аль-Хорезми «Познание чувством есть частичное знание, логическое знание есть истина», Абу Насра Фараби «Знание, просвещение, хорошие нравы делают знающего, просвещенного, зрелого, совершенного человека. Для этого образование должно быть правильно организовано, управляемое и направляемое учителем на определенные цели» служит основным критерием в методике обучения узбекскому языку.

К началу 20 века к традиционным методам обучения добавились европейские. В создании учебников и пособий принимали активное участие местные интеллектуалы, такие как Фитрат, Мунаввар Кори, Хамза, А. Авлони, Кори Ниязов, Каюм Рамазан, Мурад Шамс, Маджид Кадири. В 1940-х годах вышло пособие С.А. Фвессалониского «Методика обучения родному языку». В пособии широкое место отводится вопросам развития речи и сочинения, а методике обучения морфологии и синтаксису особого внимания не уделяется. С 1940-х годов узбекские ученые стали проводить исследования, связанные с проблемами обучения языком. В 1944 г. М.Шамс выполнил исследование "Методика преподавания орфографии", К.Хайруллаев - "Типичные орфографические ошибки и их устранение".

В 1950 году М. Шамс издал пособие «Методика преподавания узбекского языка». В 1952 году под редакцией Ф. Камала была опубликована первая часть «Методики преподавания узбекского языка». В 1960 г. были изданы «Методика преподавания синтаксиса и пунктуации» Х. Рустамова и «Методика преподавания узбекского языка» Н. Абдурахманова, в 1963 г. К 1975 году Ю.Гуломов, И.Расулов, Х.Рустамов, Б.Мирзаахмедов создали более совершенный учебник. Этот учебник также называется «Методика преподавания узбекского языка». Этот учебник используется на практике до сих пор. В течение

1960-х и 1980-х годов объем работ по методологии увеличился. В настоящий период широко проводятся научные исследования по методике преподавания родного языка.

Методика обучения узбекскому языку прежде всего тесно связана с философией и общим языкознанием, теоретическими основами языкознания. Прежде всего, наука о языке определяет научную основу и содержание изучаемого в школе предмета родной язык. Правильная организация и эффективность обучения родному языку зависят от научных и точных лингвистических выводов о языке. Методику обучения родному языку и его развитие невозможно представить без науки языкознания.

Методика обучения родному языку работает в связи с науками педагогики и психологии. Педагогика – это наука, определяющая принципы воспитания. Образовательные принципы применяются также на уроках родного языка. Дидактическая часть педагогической науки является теоретической основой методики обучения родному языку, в ее основе лежат все дидактические принципы методики обучения родному языку.

В заключение можно сказать, что учителю необходимо изучать психологические способности своих учеников, учитывать их при объяснении материалов родного языка. Преподаватель должен уметь вызвать интерес к своему предмету, привлечь их внимание и использовать способы запоминания этого материала.

Использованная литература:

1. Абдураимова М., Кадыров М. и др. Родной язык 6 класс. Методическое пособие для учителей. Ташкент, «Шарқ», 2012, 239 с.
2. Бердиалиев А. Представление некоторых синтаксических понятий в программном проекте и их интерпретация. «Обучение языку и литературе», 1991, выпуск 9, стр. 9-11.
3. Ибрагимов Х., Бобомирзаев Х. Педагогическая психология. Ташкент, «Национальное общество философов Узбекистана», 2007, 407 с.

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA DEPUTATNING SIYOSIY FAOLIYATI

Malikov Behzodjon Qurolovich

Mahalliy hokimiyatning vakillik organlari faoliyati doirasida deputat so'rovini amalga oshirishning imkoniyatlari Oliy Majlis deputatlarining vakolatlaridan farq qiladi. O'zbekiston siyosiy davlat tuzilishi (unitar davlat) ning o'ziga xosligi mahalliy vakillik organlariga qonun chiqarish vakolatini bermaydi. Federativ davlatlar qonunchiligidagi (Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari) da mahalliy hokimiyatning vakillik organlariga huquq ijodkorligi vakolati berilib, interpelyatsiyaga shart-sharoit yaratiladi.

Mahalliy kengashlarda faoliyat olib borayotgan deputatlarda sessiyalarda ishtirok etish, doimiy komissiyalar va partiyalarning deputatlik guruhlari faoliyatini uysushtirish, o'zлari saylangan okruglaridagi mavjud muammolardan kelib chiqib, tegishli hududdagi mansabdor shaxslarga ularning vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish huquqi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 99-moddasida "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'y sunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) Hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar degan qoidaning mavjudligi Konstitutsiyaviy maqomda mahalliy kengash deputati "davlat va fuqarolar manfaatlarini ko'zlab" faoliyat yuritishini, davlat va fuqarolar manfaatlarini ifoda etishini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'grisida"gi qonunining 18- moddasida, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunning 5, 8- moddalarida deputat so'rovi hamda uni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan.

Yuqoridagi qonun hujjatlarida deputat so'rovini amalga oshirish bilan aloqador qoidalari mustahkamlab qo'yilishiga qaramasdan, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish jarayonida mahalliy kengashlar deputatlarining nazorat funksiyalaridan unumli foydalanish ehtiyoji qo'shimcha tarzda deputat so'rovini amalga oshirishning mexanizmlarini yaratish zaruriyatini vujudga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2007-yil 9-martdagи qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalar"da, 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari mahalliy kengashining doimiy komissiyalari to'g'risida"gi Namunaviy Nizomda, shuningdek, boshqa manbalarda deputat so'roviga doir fikr va muloha - zalar, tavsiyalar berilgan. Senat tomonidan o'tkazilib kelinayotgan seminar

mashg'ulotlarida ham deputat so'rovidan unumli foydalanish bo'yicha mamlakatimizning yetakchi siyosatchilari, huquqshunoslari o'zlarining tavsiyala- rini berib kelmoqda. Amalda mahalliy hokimiyatning vakillik organlarida deputat so'rovidan foydalanish samaradorligini o'rganish maqsadida Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashi Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekoliya doimiy komissiyasi faoliyatida deputat so'rovidan 12 marotaba foydalanilgan. Deputat so'rovi-deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdar shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabidir.

Mahalliy kengashlardagi deputatlarning siyosiy faolligini oshirishda deputat so'rovining ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Olib borilgan o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, deputatlar siyosiy hokimiyatini amalga oshirishning muhim yo'nalishlari doimiy komissiyalar, fuqarolar qabuli, o'zini o'zi boshqarish organlari, korxona, tashkilot va muassasalardagi uchrashuvlar doirasida olib borilsa, deputat so'rovi esa ko'proq hokimiyatning ijro organlari faoliyatini nazorat qilish bilan bog'liq. Viloyat, tuman va shaharlar (tumanga bo'ysunuvchi shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari)da hokim yetakchilik qiladigan vakillik va ijro organlarining o'zaro mutanosib ishlashini ta'minlash borasida deputat so'rovining ahamiyati har ikki organning rahbari - hokim tomonidan imzolangan va kengash qarori bilan tasdiqlangan qarorning bajarilishini nazorat qilish bilan izohlanadi. Deputat so'rovi mahalliy kengashlardagi doimiy komissiyalarga yoki deputatning o'zi tomonidan mansabdar shaxslarga yuborilishi mumkin. Doimiy komissiyalar tegishli qonun, farmon, qarorlar ish rejaga kiritilgan vazifalarning ijrosini o'rganish jarayonida deputat so'rovidan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qonunga muvofiq deputat so'roviga 10 kunlik muddatda javob berilishi zarur. Mahalliy kengash deputatining deputat so'rovidan foydalanishi natijasida qonun, qaror, farmonlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosi qay darajada bajarilayotganligini aniqlash, shuningdek, ularning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha aniq xulosalarga kelish uchun imkoniyat yaratiladi. Misol uchun, Xalq deputatlari Andijon viloyat kengashining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekoliya doimiy komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2009-yil 4-dekabrdagi "Aholini ish bilan ta'minlash va bandlik dasturi to'grisida"gi qarori ijrosini o'rganish doirasida har bir fermer xo'jaliklarida bir nafardan obodonlashtirish bo'yicha xodimni ishga qabul qilishning viloyatdagagi ahvoli bo'yicha ma'lumot berish yuzasidan viloyat

fermerlar uyushmasi rahbari nomiga deputat so'rovi yuborildi. Olingan ma'lumotlar tahlil etilib, bu boradagi qilinayotgan ishlar doimiy komissiya yig'ilishida muhokama etildi. Natijada viloyat miqyosida bandlik bo'yicha qilinayotgan ishlarni yanada kuchaytirish imkoniyati vujudga kelib, yangi yuzlab ish o'rnlari yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatni yanada demokratlashtirish borasidagi islohotlarning o'zi deputat siyosiy faoliyatining muhim shakli va deputat nazo-ratini amalga oshirish mexanizmi sifatida deputat so'rovining ahamiyati oshib borayotganligini namoyon etmoqda.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. К. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАҶНАВИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.

11. Маликов, Б. К., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. O’Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA “OILA” VA “JAMIYATNING” AXAMIYATI . World Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445> Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 203-205.
13. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
14. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
15. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 8.1 (2021): 1388-1396.
16. Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
18. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3178-3190.
19. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE "ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-3/. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE "ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
20. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
21. Akbarova, L. U. (2022). SOME PROBLEMS OF LIFELONG EDUCATION IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF A MARKET ECONOMY. Journal of new century innovations, 16(1), 130-132

SIYOSIY JARAYONLARNI AMALGA OSHIRISH USULLARI

Malikov Behzodjon Qurolovich

Hozirgi davrda O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar fuqarolarning jamiyat siyosiy hayotida faol ishtiroki bilan xarakterlidir.

"Jarayon" tushunchasi o'z yo'nali shiga ega bo'lgan ma'lum harakat, holat, bosqich, evolyutsiyaning navbati bilan o'zgarishi, qandaydir natijaga erishish uchun bo'lgan izchil harakat jamlamasidir. "Siyosiy jarayon" tushunchasi jamiyat siyosiy hayotining rivojlanish dinamikasi, uning holati, makon va zamondagi o'zgarishlarini ifoda etadi.

Siyosiy jarayonning harakatlanuvchi kuchi siyosiy jarayon qatnashchilari – ijtimoiy-siyosiy kuchlarning o'zaro harakati davomida paydo bo'lgan qaramaqarshiliklar hisoblanadi Aynan, qatnashchi-subyektlar hokimiyat o'rganlari shaxsiy tarkibidagi xatti-harakatlarni ta'minlaydi, siyosiy qarorlar qabul qiladi, ijtimoiy hayotni meyoriy jihatdan tartibga soladi va o'z manfaatlarini amalga oshirish maqsadida yaxshiroq siyosiy sharoitlar yaratishga intiladi.

Siyosiy jarayonning mohiyati siyosiy tizim turli komponentlari, siyosiy faoliyatdagi shaxs, siyosiy hukmronlik tuzilmalari, institutlar va vositalarni, siyosiy ishtirok, siyosiy madaniyat va turli me'yorlarni ishlab chiqish, siyosiy tizim orqali ma'lum ijtimoiy tartiblar va o'zgarishlarni yaratishdan iborat.

Siyosiy jarayon o'z ichiga : a) siyosiy jarayonning paydo bo'lishi va amal qilishi, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar; b) siyosiy harakat subyektlari va ularning obyektga ta'sir o'tkazish vositalari; v) siyosiy manfaatlar, siyosiy o'zaro aloqaning xulq-atvor motivlari va maqsadlari; g) subyektlarning kurash va hamkorlik shaklidagi o'zaro harakatlarini qamrab oladi.

O'zining tarkibi (tuzilishi)ga ko'ra jarayonlar inqilob, islohot, modernizatsiya, siyosiy tanglik, maqsadli siyosiy harakat, ixtilof, hamkorlik, saylov kompaniyasi tarzida ifodalanadi. Siyosiy jarayon insonlarning o'z manfaatlari uchun kurashi yordamida amalga oshadi. Aynan u siyosiy jarayon generator sifatida muhim ro'l o'ynaydi.

Umuman olganda, siyosiy jarayonning uch jihatini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) siyosiy jarayon subyektlari va obyektlarining "ishtirokchi", "muallif", "subyekt", "obyekt", "ifodalovchi" iboralari nisbati; 2) siyosiy makon va zamondagi (vaziyatli tahlil) siyosiy holat siyosiy jarayonning boshlang'ich jihat ekanligi, joy-joyiga qo'yish, qayta guruhash, siyosiy kuchlar nisbati; 3) o'zaro hamkorlik usullari:

- davlat boshqaruvi yo'nali shi (davlat faoliyatining funksional jihat, davlat boshqaruvi va siyosiy tartib);
- partiya strategiyasi va taktikasi (funksional jihat);

- uch darajadagi siyosiy ishtirok; jamoat birlashmalari, ijtimoiy birlik va individlar, ular ham o'z navbatida siyosiy yetakchilik va alohida fuqarolarning siyosiy ishtiroki sifatida ikkiga ajratiladi.

Siyosiy fanlarda siyosiy jarayonni amalga oshirishning ikki usuli qayd etiladi: konservativ-eskicha va radikal-islohotchilik. Birinchi usulning xarakterli belgisi shundaki, ushbu jarayon shakllangan siyosiy institutlar (davlat, pariyalar, jamoat tashkilotlari, ma'muriy apparat, sud tizimi, qonun chiqaruvchi hokimiyat) va boshqaruv shakllari (siyosiy tartib)ni saqlashga yo'naltirilgan. U insonlar faoliyatining turli sohalaridagi xulq-atvorini tartibga soluvchi, ko'proq darajada hokimiyatli vakolatlarni yuqori organlarga berish, siyosiy tizimda plyuralizm va muxolifatning yo'qligi kabi qoidalarning ko'pligi bilan farqlanadi. Natijada, siyosiy tizimning yangi o'zgarishlarga bo'lgan moyillik holati kamayadi

Radikal-islohotchilik usuli yangi ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarni qondirishni ifoda etadi. Unda tashkil etishning moslashuvchan shakllari amal qiladi. U avvalgi vazifalarni sifatli yangilashga, siyosiy faoliyat vositalarni sifatli yangilshga, siyosiy faoliyat vositalari va usullari o'zgarishiga olib keladi. Bunda yangiliklarga bo'lgan munosabat doimo ijobiy va turli innovatsiyalarga qarshilik oqilona, meyoriy xarakter kasb etadi.

Siyosiy jarayonni amalga oshirishning ushbu ikki usulidagi farqlarni alohida ko'rsatish lozim, chunki amaliy hayotda ular bir-biri bilan qo'shilib va o'zaro to'ldirilib turadi, turli davrlarda birinchi o'ringa ba'zan radikal-islohotchilik, ba'zan esa konservativ-eskicha usul chiqadi. Shu tarzda jamiyat siyosiy tizimi doimiy harakatda bo'ladi, ya'ni uning ma'lum bir holati boshqasi bilan almashib turadi. Bu, o'z navbatida, siyosiy jarayonning qismi, uning bo'g'ini bo'lgan alohida siyosiy vaziyat orqali kechadi. Ikki xil siyosiy vaziyat atrofida siyosiy voqealar yuz beradi (siyosiy partiya syezdlari, saylovlari, turli kutilmagan voqealar). U yoki bu voqealarning paydo bo'lishi eskining tugashi (halokati) yoki yangi siyosiy vaziyatning boshlanishi bo'lishi mumkin. Shuning uchun siyosiy jarayonni umumiy tarzda, bir siyosiy voqeadan boshqasiga o'tish deb, tasavvur etish mumkin (masalan, partianing syezddan syezdgacha, saylovdan-saylovgacha, bir siyosiy kompaniyadan boshqasiga, bir siyosiy qarordan boshqasiga o'tishida kuzatish mumkin). Shu bilan birgalikda islohot, inqilob, qo'zg'olon, isyon, g'alayon, to'ntarish, siyosiy tanglik, siyosatdagi turli harakatlar (miting, namoyish, ish tashlash), ixtilof va hamkorlik-bularning barchasi o'ziga xos siyosiy voqealardir. Siyosiy jarayon esa aniq siyosiy faoliyatdir.

Siyosiy jarayon unda ishtirok etayotgan subyektlar nuqtai nazariga ko'ra nisbatan aniqroq va oshkora ravishda kechadi. Shuningdek, muayyan siyosiy jarayonni tahlil etishda, unda qanday subyektlar qatnashayotganligi, ularning maqomi, maqsadi, harakat resursi va strategiyasini, masalan, modernizatsiya, isloh etish, liberallashtirish va ixtilofli holatlarning kechishini ham e'tiborga olish zarur.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. К. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАЪНАВИЯТ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. O'.Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIyatning" AXAMIYATI . *World*

Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from
<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>

13. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 203-205.
14. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
15. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
16. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 8.1 (2021): 1388-1396.
17. Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
18. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3178-3190.
19. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE" ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-3/. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE" ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
20. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
21. Akbarova, L. U. (2022). SOME PROBLEMS OF LIFELONG EDUCATION IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF A MARKET ECONOMY. Journal of new century innovations, 16(1), 130-132

MUSTAQILLIKNING TARIXIY, MA’NAVIY VA SIYOSIY AHAMIYATI

*Mamatov Odil Xudayqul ógli - TDTrU talabasi
Raimov Órinboy Muzaffar ógli - TDTrU talabasi*

Mustaqillik yillarda sodir bo’layotgan tub o’zgarishlarning ko’lami va darajasi shunchalik salmoqli, yuqoriki, mazkur voqelik umumlashgan tarzda ma’naviyatda yaqqol aks etadi. To’g’rirog’i, bu xalqimiz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida shakllangan yangi boyliklar yig’indisi, ya’ni mustaqillik ma’naviy madaniyatidir.

“Xalqning ma’naviyati va madaniyati, - deydi Islom Karimov, -uning haqiqiy tarixi va o’ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiyiy ettirish yo’lidan muvaffaqiyatli ravishda olg’a siljishda hal qiluvchi, ta’bir joiz bo’lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”. Shuning uchun ham istiqlol yillarda ma’naviy madaniyatni tadqiq etishga, milliy tiklanishga va barkamol yangi avlodni tarbiyalash yo’llarini topishga katta e’tibor berilmoqda. Ma’naviyat serqirra xususiyatga ega bo’lib, inson faoliyati, ongi, hayot tarzi bilan bog’liq barcha sohalarda uning ta’sirini kuzatish mumkin. Substansional nuqtai nazardan insonning ongli mavjudot sifatida hatti-harakatlari uning ma’naviy madaniyatining ifodasidir.

Xalqimiz tarixiy-madaniy merosining milliy tiklanishdagi o’rni va ahamiyati katta. Tarixiy-madaniy merosni o’rganish xalqning ekzistensional borlikda, umumjahon tarixida, madaniyatida o’zining o’rnini topishiga yordam beradi. Ta’rrixiy-madaniy meros millatni milliy maxdudlikka berilish, millatchilik, ekstremizm xavflaridan asraydi. U barcha xalqlar, millatlar madaniyatini teng huquqli, tabiiy voqelik ekanini anglashga undaydi. Madaniyatlararo aloqalar, integratsiya xalqaro hayotning, insoniyat mavjudligi va taraqqiyotining asosi bo’lib kelganini ko’rsatadi.

Tarixiy-madaniy merosga munosabat haqida gap ketganida, sho’rolar davrida xalqimiz tomonidan yaratilgan va o’zlasahtirilgan boyliklarni eslamay bo’lmaydi. Ba’zi adabiyotlarda, ayniqsa, gazeta va jurnal maqolalarida sho’rolar davrini nigilistcha qoralash keng tarqagan. Bu oqilona munosabat emas. Xalqimiz arab bosqinchilarining qarashlarini ifoda etadi deb “Qur’oni karim” va islam dinidan, Chor Rossiyasining vakili deb Pushkin, Lermontov, Dostoevskiy, Tolstoydan voz kechgani yo’q-ku?! XX asr o’zbek xalqi tarixida milliy-madaniy taraqqiyotning o’ziga xos va ziddiyatlarga to’la davridir. Unda xalqimiz va uning talantli farzandlari betakror madaniy boyliklar, ijodiy asarlar yaratdi, ilmiy-texnik kashfiyotlar qildi. Tarix, arxeologiya, etnografiya, kimyo, geologiya, san’atshunoslik sohalarida erishilgan yutuqlar jahon ilm ahliga yaxshi ma’lum. Ular O’zbekiston xalqining ulkan mehnati, behalovat izlanishlari, intellektual salohiyati mahsulidir. Kommunistik mafkura ularni mutlaq inkor qilmaydi hatto zarur shart-sharoitlar yaratib, qo’llab-quvvatladi ham. Ammo u ushbu yutuqlarni o’ziniki qilib ko’rsatishga intilganini ham

rad etib bo'lmaydi. Aslida u xalqimizning fidokorona mehnati, ilmu fanga bo'lgan hurmati, qiziqishi natijasidir.

Milliy tiklanish uchun muhim vazifalardan yana biri xalqimizning an'anaviy axloqiy madaniyatini mustahkamlashdir. Gap shundaki, insondagi barcha fazilatlar, hislatlar oxir-oqibatda uning axloqi bilan o'lchanadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini mustahkamlash o'zbek xalqining an'anaviy axloqiy madaniyatini tiklash bilan bog'liqidir. Ushbu xalq an'anaviy madaniyati sharqona xususiyatlarga ega. Ularga: kattani hurmat, kichikni izzat qilish; farzandning ota-onasi qaroriga, o'git va pandlariga bo'ysunishi; tarixiy-madaniy tajribalarga tayanish; hamma narsani, shu jumladan, nizoli masalalarni ham xotirjamlikda, bamaslahat, tomonlar roziligi bilan hal etish; tarbiyada, ta'limda ibratga, namunaga tayanish va xalq og'zaki merosidan, tarixiy tajribasidan foydalanish; shaxs axloqi, odobi va ma'naviyatini asosiy boylik deb qarash kabilari kiradi.

Axloqiy madaniyat ikkiga: jamiyat axloqiy madaniyati va shaxs axloqiy madaniyatiga bo'linadi. M.Abdullayevning yozishicha, "Jamiyatning axloqiy madaniyati mazmunan individ axloqiy madaniyatidan farq qiladi. Jamiyat axloqiy madaniyati axloqiy qadriyatlar va yo'nalişlar tizimini yaxlit va keng qamrovda ifodalaydi, shaxs axloqiy madaniyatida esa ana shu tizimning muhim komponentlari individual o'ziga xoslik bilan aks etadi". Biroq demokratiya sharoitida individ axloqi bilan jamiyat axloqi o'rtasida, nafaqat farq, balki ziddiyat ham paydo bo'lishi tabiiy holdir. Ijodiy qobiliyat kamdan-kam hollarda umumiyligi me'yordarga mos keladi va ularni qabul qiladi. Bu ziddiyatni hal etish eng muhim ilmiy-nazariy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. To'g'ri, madaniyatshunos olim M.Abdullayev ushbu yechimni quyidagicha hal etadi:"Jamiyat axloqiy madaniyatining taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan shaxs axloqiy madaniyati barkamolligiga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan, jamiyatning axloqiy madaniyati nechog'lik darajada boy bo'lsa, individlar axloqiy madaniyati kamol topishi uchun shunchalik qulay imkoniyatlar yuzaga keladi". Ushbu dialektik talqin ma'lum ma'noda muammoni hal etish yo'lini ko'rsatgandek tuyuladi. Biroq real borliq nuqtai nazaridan ularni hech qachon amalga oshirib bo'lmaydi. Birinchidan, jamiyatning axloqiy madaniyati nima? U nimalar bilan o'lchanadi? Qaysi me'yordarga muvofiq shaxs axloqiy madaniyati jamiyat axloqiy madaniyatiga mos keladi? Shunday o'lchov bormi? Ikkinchidan, shaxs axloqiy madaniyatini jamiyat axloqiy madaniyatidan farqlovchi o'lchovlar, mezonlar qanday? Xullas, bu borada tayyor me'yolar, andazalar yo'q. Ammo shaxsning barcha hatti-harakatlarini xalq madaniyatining hususiyatlari, me'zonlari, maqsadlari va an'analariga muvofiq o'lchasa bo'ladi.

Milliy g'oya va mustaqillik ma'naviy madaniyati bir-biriga dialektik bog'liq ijtimoiy voqelikdir. Milliy g'oya ma'naviy taraqqiyot uchun zaruriyatdir. Aynan ushbu zaruriyat milliy g'oyaga keng qamrovlilik, dinamizm baxsh etadi, har bir inson uchun

istiqbol yo'li hisoblanadi. Kishi g'oyadan o'z kelajagi uchun kuch-quvvat, yo'l-yo'riq ,ma'naviy-ruhiy madad olishi darkor. De'mak, ushbu uch yo'naliш milliy istiqlol g'oyasini ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan bog'laydi, ularni yaxlit bir konsepsiyaga aylantiradi.

"Istiqlol g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur", deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz Islom Karimov.

Xalq madaniyatini yuksaltirish, eng avvalo, ishlab chiqarishni, jamiyatning moddiy ne'matlar yaratuvchi sohasini modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini zamon talablari darajasiga ko'tarish, yangi texnologiyalar, asbob-uskunalardan foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, og'ir qo'l mehnatini kamaytirish, agrosanoatni qayta ko'rish, xullas, xalq xo'jaligini yuksaltirish xalq madaniyatiga oid vazifalardir. Xalq hayoti, turmushini yuksaltirish ana shu vazifalarni jadal hal etishga undaydi, chunki mamlakat rivojini ta'minlovchi ishlab-chiqarish sohasi, o'z navbatida, xalq madaniyatini yuksaltirish omili hamdir.

Xalq madaniyati uchun e'tiborsiz yoki ikkinchi darajali soha yo'q, u ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi.U bir vaqtning o`zida ushbu sohalarning ham mezoni, pirovard natijasi, ham ularga insoniylik, zamonaviylik, milliylik baxsh etuvchi vositadir. Xalq madaniyatining ushbu integrativ funksiyasi uni umumiy ijtimoiy taraqqiyotning ko'rsatkichiga aylantiradi.

Mustaqillik ma'naviy madaniyati milliy tiklanish jarayonlariga mazmun, mohiyat baxsh etadi, insondagi yaratuvchanlik kuchini, intellektual salohiyatini milliy taraqqiyot maqsadlariga yo'naltiradi. Barkamol avlod mustaqillik ma'naviy madaniyatini egallagan shaxs sifatida shakllanadi. Shu tariqa, u xalq madaniyatini yuksaltirishni, milliy taraqqiyotga xizmat qilishni qalbiga joylagan ijodkor shaxs, subyekt sifatida voyaga yetadi.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagimuammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.

3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАХДИДЛАРДАН ХДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. *ISSUE, 1(1)*, 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. К. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАЪНАВИЯТ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Ikrom Boboqulovich Mirzaev GLOBALLASHUV DAVRIDAGI “SOXTA DINIY DUNYOQARASH” // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globalashuv-davridagi-sohta-diniy-dunyo-arash> (Kirish sanasi: 18.01.2023).
13. O'.Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA “OILA” VA “JAMIyatNING” AXAMIYATI . World Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>

- 14.Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
- 15.Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
- 16.Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 8.1 (2021): 1388-1396.
- 17.Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
18. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3178-3190.
- 19.Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE" ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-3/. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE" ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
- 20.Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
21. Akbarova, L. U. (2022). SOME PROBLEMS OF LIFELONG EDUCATION IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF A MARKET ECONOMY. Journal of new century innovations, 16(1), 130-132

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA MA'NAVIY OMILNING O'RNI

Malikov Behzodjon Qurolovich

Jamiyat hayotini yanda demokratlashtirish, mamlakatni modrenizatsiyalash jarayonini takomillashtirish asosida fuqarolik jamiyatini barpo etish fuqarolarimizning ma'naviy barkamolligi va salohiyatini muntazam yuksalib borishi bilan uzviy bog'liq .O'zbekiston ham demokratik taraqqiyotga erishish uchun jamiyat hayotiga rivojlanishning o'ziga xos va mos iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy asoslarini joriy etdi .Bu bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh asosiy tamoyili negizida davlatimiz rahbari tomonidan nazariy asoslab berilgan yaxlit ta'limot va tadrijiy rivojlanish usuli – taraqqiyotning o'zbek modeli sifatida e'tirof etildi .

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, muayyan davlatning qudrati moddiy boyliklariga yoxud xarbiy imkoniyatlariga emas, yoshlarning intellektual salohiyatiga ko'ra belgilanadi. Shu sababdan hozirgi kunda yuqori texnologik , istiqbolli g'oyalar, ixtirolarni amaliyotga tatbiq eta oladigan, innovatsion fikrlash qobilyatini shakillantiradigan ta'lim tizimi hamda fan yutuqlariga tayangan innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish ; iqtidorli yoshlarmizda ilm-fanga bo'lган qiziqishni yanada oshirish, ularning ilmiy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun kengroq imkoniyatlarni yuzaga keltirish; xorijiy mamlakatlarning ko'zga ko'ringan mutaxassislarini jalg etish va shu orqali jahonda nufuzli ilmiy markazlar bilan o'zaro manfaatdor bo'lismagan korxonalarini tugatish va ular o'rnida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish; fan sohasida innovatsiya mahsulotlarini yaratish va uni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'yektlari sonini oshirish alohida o'rinni egallayotganligini aytish joiz.Bu tadbirlarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, yangi ish o'rinnarini tashkil qilish, ishsizlik muammosini hal etishga ham xizmat qiladi.

Hozirgi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda yengilmas kuch zamonaviy qurol-yarog'lar, moddiy va molyaviy resurslar emas, balki ma'naviyat ekanligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Moddiy va moliyaviy resurslar texnalogik jarayonlarni jadallashtirishi mumkin, lekin ma'naviy asosgina shu texnik yechimlarning yaratuvchisi bo'lган insonga kuch-quvvat beradi. Ayni chog'da texnalogik taraqqiyot natijalari insonning intellektual salohiyati, bilim va tajribasining oshishiga ko'maklashadi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek,"...xozirgi murakkab va tahlikali zamon talablari, jamiyatimizni yangilash, mamlakatni modrenizatsiya qilish bilan bog'liq maqsadlarimizga uyg'un va hamohang ravishda hayotning o'zi oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda".

Modrenizatsiya murakkab ijtimoiy-madaniy fenomen hisoblanib, u orqali inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida o'zgarishlar ro'y beradi. Natijada ijtimoiy-madaniy hayotda yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Shu bois, mamlakatimizda modrenizatsiya jarayonlari avj olar ekan, ularning markazida turgan sub'yeqt — inson tarbiyasi, farzandlar taqdiriga beparvo bo'lmasligimiz, ta'lim-tarbiya tizimini muttasil takomillashtirib borishimiz, bunda soha oldiga zamon qo'yayotgan talablarni yodda tutish barobarida milliy ahloq, milliy ma'naviyat ildizlariga tayanmog'imiz kerak.

Birinchidan, millatning ma'naviyati, ilg'or qarashlari, milliy qadriyatları, urfatları, odamlarni jipslashtiruvchi milliy an'analar mazkur jarayonda ishlab chiqarish munosabatlariiga singdirib borilishi lozim. Zero, modrenizatsiya sharoitida millat, avvalo, yoshlarning diniy, dunyoviy, milliy qadriyatlarimizdan vos kechmasligi, aksincha ma'naviyatning asosini tashkil etadigan mehr-oqibat, murvvat, halollik, poklik, adolat, insof singari yuksak fazilatlardan samarali foydalanishi muhim .

Ikkinchidan, modrenizatsiyon jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishi taraqqiy topgan davlatlarning ijobiy tajribasini o'tganish va chuqur tahlil etish bilan bog'liq. XX asr oxiridagi moliyaviy inqirozdan so'ng qayta oyoqqa turib, iqtisod sohasida mo'jiza yaratgan qator davlatlar tajribasi bu mamlakatlar qo'lga kiritgan yutuqlarning siri ularning milliy o'zligi va ma'naviyati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xususan bu xalqlarda o'zbeklarga xos yuksak ma'naviy fazilatlar, fidoyilik, vatanparvarlik, jamoaga sodiqlik, mardlik, halollik, bir so'z bilan aytganda, hayotiy e'tiqodini shakllantiradigan xislatlarning inson ongiga chuqur singdirilishi jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omilning hal qiluvchi rolidan dalolat beradi.

Uchinchidan, jamiyat modrenizatsiyasi globallashuv sharoitida kechayotganligini, shuningdek, yagona jahon madaniyatini qaror toptirish, xalqlarning madaniy-ma'naviy o'zagini zaiflashtirish maqsadlariga qaratilgan g'oyaviy xurujlar olib borilayotganligini e'tiborga olish zarur . Bundan ma'naviy tahdid, yod g'oyalarning singdirilishi insonlarni mustaqil fikrlashdan, milliy his-tuyg'ulardan mahrum qilib, ularni ojiz himoyasiz va mute qilib qo'yishi mumkinligini nazarda tutish darkor.

To'rtinchidan, modrenizatsiya zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni, shiddat bilan kechayotgan voqea-hodisalar oqimida kata hajimdag'i axborotning mazmunini anglash, uni to'g'ri talqin etib, xulosalar chiqarishni talab qiladi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish esa modrenizatsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi bo'lgan insondan keng dunyo qarash, kuchli tafakkurga, yuksak ahloqqa ega bo'lishni taqozo etadi.

Beshinchidan jamiyatni modrenizatsiyalash faqatgina ishlab chiqarish, texnologiya sohalarini qamrab olmasdan, mamlakatdagi demokratik jarayonlarning yanada avj olishiga ham ta'sir etadi. Yurtboshimiz qayd etganidek, "Demokratiya,

avvalambor, ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatidir".

Shu ma'noda, mamlakatimizni modrenizatsiya qilish va yangilash borasida olib borilayotgan islohatlar ma'navi-madaniy yuksalish hamda barkamol avlodni shakillantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ҒОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. Қ. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАҲНАВИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ҒОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.

10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚКИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
13. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
14. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. Academic research in educational sciences, 3 (10), 372-376.
15. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
16. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЛЬИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_6_2
17. Н. Ш. Юнусова, Жавлон Алимухаммедов, & Мухаммад Суяров (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ДИН ВА АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 222-226.
18. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3178-3190.
19. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE "ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-3/. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE "ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
20. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.

MILLIY G'OYA VA MAFKURAVIY YANGILANISH DAVRI

*Malikov Behzodjon
Mangliev Shoxruz Raxmon ógli
TDTrU talabasi*

Mustaqillik bilan boshlangan o'tgan yigirma yil davomida jamiyatimiz hayotning barcha sohalarida tub ijobiy o'zgarishlar bo'lib, o'tish davri (1991-2000 yillar) g'oya va mafkura sohasidagi mazmun-mohiyati bilan alohida orin egallaydi.O'tish davrining zarurligi g'oya va mafkura nuqtai nazaridan quyidagilar bilan xarakterlanadi: 1) ong va tafakkurda milliy g'oya bilan bog'lik maqadlarni olib kirish oson bo'limganligi bois , ma'lum vaqt (davr)talab etilishi; 2) davlat va jamiyat qurilishi sohalarini , u to'g'risidagi tushuncha va qarashlarni

Yangidan ko'rib chiqish, uning yangicha konsepsiyasini ishlab chiqish; 3) jamiyatga zorlik bilan kiritilgan eski mafkura asoratlarining zararli , yet va begona ekanligini tushuntirishga xizmat qiladigan madaniy-g'oyaviy muxit yaratish; 4) mamlakatda yangi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy negizlari to'g'risidagi g'oya va maqsadlarni,uni amalga oshirish yo'nalishlari , tamoyillarini belgilab olish, xuquqiy asoslarini ta'minlab berish.

Jamiyat bir ijtimoiy-tarixiy bosqichdan ikkinchisiga o'tayotganida ayrimlarda ruxiy tushkinlik, hayotdan bezish, ideallarda,kelajakka,adolatning muqarrarligiga ishonchszilik ham paydo bo'ladi.Shuning uchun jamiyatning bir siyosiy tizmidan ikkinchisiga o'tishda fikriy yangilanishlar,g'oya va mafkura sohasidagi o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'tish davri nuqtai nazaridan yondashganda bu ong va tafakkurdagi o'zgarishlarning onson kechmasligi kechmasligi bilan bog'liq hodisadir.Ya'ni , avvalo ong va tafakkurda yangi fikrning shakillanishi, g'oyadagi ijobiy o'zgarishlar,ikkinchidan,bu aniq maqsad va vazifalar,belgilangan rejalarda o'z ifodasini topishi; uchinchidan, oldingi siyosiy tizimda amal qilgan fikr ,g'oya va mafkuraviy tamoyillar yangi tizim oldiga qo'ygan maqsadlariga mos kelmasligi; to'rtinchidan , jamiyatda yangi fikr, g'oya va mafkura sohasigadi yangilanishlar bir zumda amalga oshmasligi bois ong va tafakkurda ham o'tish davri kechishi bilan bo'g'liq.

Islom Karimov rivojlanishning g'oyaviy-mafkuraviy jihatlari haqida shunday deydi "Odamlarning ming yillar davomida shakllangani dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni shu xalq, shu millatning kelajagi va uning dunyodagi urnini aniq ravshan belgilab berishga xizmat, qiladigan kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishiga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman ". Mazkur "ko'prik" kechagi va ertangi kun o'rtasi – o'tish davrida qarashdagi yangicha g'oyaviy yondashuv bo'lib, nafaqat o'tish davri bilan bo'g'liq muhim islohatlatni amalga oshirishga,balki mamlakatda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish

vazifalarini bajarishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda g'oya va mafkura sohasida amalga oshgan o'zgarishlar to'g'risidagi muayyannazariy hamda konseptual g'oyalarni taxlil etganda ijtimoiy hayotning bir biri bilan uzviy bog'liq ikki bosqichda ko'zga tashlanadi. Birinchisi, 1991-1992 yillar (Mustaqillikning qo'lga kiritilishidan Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishiigacha), ikkinchisi, 1992 yil dekabrdam 2000 yilgacha bo'lган davr. har ikki bosqichdagi o'ziga xos ijtimoiy hayot umuman ijtimoiy o'tish davriga bog'liq bo'lsa-da, ularning ayrim xususiyatlarini amalga olishni taqazo etadi

1991-1992 yillar g'oya va mafkura sohasida jamiyat ijtimoiy xayoti amal qiladigan g'oyaviy, mafkuraviy tamoyillarni aniqlash, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish bilan bog'lik bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi, ya'ni ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilmayxilligi asosida rivolanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi qonun bilan belgilandi. Bu huquqiy, ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan katta ahamiyat kasb etib, birinchidan, sobiq totalitar tuzumga xos yagona mafkuraviy tamoyillardan voz kechilganligini anglatadi. Ikkinchidan, ijtimoiy hayot mafkuraviy pluralizmga o'tilganligini bildiradi. Uchinchidan, jamiyatning yangi, ya'ni milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillariga asoslana boshlaganligi uning "kommunistik goya"dan tubdan farq qilishini anglatadi. To'rtinchidan, davlat mafkurasidan voz kechilganligi hech qanday mafkura davlat mafkurasi bo'la olmasligini ifodalaydi. Beshinchidan, milliy g'oyaning jamiyat mafkurasi sifatida amal qilishi ijtimoiy hayot sohalarini g'oyaviy jixatdan to'g'ri va xolisona idrok etishga qaratilganligi bilan farq qiladi xamda o'tish davri vazifalarini samarali amalga oshirishga ko'maklashadi.

Ijtimoiy xayotning fikrlar va mafkuralar xilma xilliga asoslanishi va g'oyaviy-malakuraviy yangilanishlar mamlakat xayotida tub o'zgarishalarni amalga oshirish omili bo'lib xizmat qiladi. G'oya, mafkura-ijtimoiy bashorat funksiyasini bajargani tufayli millat, xalqning ma'rifatparvar tajribali, bilimli qatlami uni kishilar ongi va qalbiga singdirishga intiladi. O'tish davrida g'oyaviy-mafkuraviy yangilanishga extiyoj seziladi, u zaruratga aylanadi, extiyoj va zarurat, o'z navbatida, tafakkur o'zgarishiga turki bo'ladi. Fikrlar rangbarangligini qaror toptirish-demokratik jamiyat barpo etishning asosiy sharti bo'lganligi bois, demokratiya davlat va jamiyat qurilishi, uni idora etishning eng maqbul shakli sifatida har bir fuqaroga o'z qarashlari, fikrini erkin ifoda etish uchun sharoit yaratadi. Bu esa insonning mamlakat siyosiy-ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hayotidagi ishtirokini, qonunlarni ishlab chiqish va xayotga joriy etishdagi faolligini ta'minlaydi. Milliy g'oyamizning ushbu tamoyili olamdagি turlitumanlik bilan insoniyat dunyosidagi xilma-xillikning, odamlar fikrashi, Orzumidlari, g'oya va maqsadlari sohasidagi rang-baranglikning uyg'unligini ifodalaydi.

O'zbekiston ijtimoiy hayotining g'oyaviy-mafkuraviy yangilanishi hamda fikrlar, mafkuralar xilma-xilliga asoslanishi bizningcha, quyidagi xususiyatlar bilan

tavsiflanadi: 1) Demokratik jamiyatga o'tish jarayonida alohida axamiyat kasb etishi; 2) o'tish davridan keyingi modernizatsiya jarayonida plyuralizmning o'zi ham takomillashib borishi; 3) u mamlakatning strategiyasi, demokratiyaning muhim jihatlari: xukquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadlariga xizmat qilishi bilan uzviy bog'lik ekanligi. Jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy yangilanishi, fikrlar xilma-xilligini amalda ta'minlash va unga erishish o'tish davri bilan bog'liq jarayon ekanligi yana shu bilan xarakterlanadiki, u o'ziga xos evolyutsiyasiga, rivojlanish dinamikasi va tadrijiy bosqichlariga ega. Shuning uchun ham isloxtlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish g'oya va mafkuraviy o'zgarishlar bilan bog'liq voqelikdir. Bu uziga xos ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ham taqozo etadi. Chunki ijtimoiy hayotda fikrlar, mafkuralar xilma-xilligiga erishish stixiyali amalga oshmaydi. Bu jarayon yangi sharoitni tushunishni, u bilan hisoblashishni, unga toqat qilish madaniyatining ham shakllanishini taqozo etadi. Mustaqillik tufayli o'tish davrida g'oya va mafkuraning mazmun-mohiyati o'zgarib, takomillashib, jamiyat hayoti sohalari, negizlarini yangicha tushunish uchun o'ziga xos taraqqiyotning ilmiy-nazariy konseptsiyasini bo'lib xizmat qila boshladi. O'tish davrining ilk bosqichida g'oya va mafkura, milliy g'oya hamda jamiyat mafkurasi, uning negizlari bilan bog'lik qarashlarning zarurligi keng jamoatchilikka yetkazildi. Bu ong va tafakkurda mustahkam o'rinni olgan "kommunistik g'oya" stereotiplarining o'rniga yangi g'oya, qarash va maqsadlar bilan bog'lik tushuncha, tamoyillarning kirib kelishiga, unga ishonch va e'tiqod uyg'otishiga asos yaratdi. Odamlarda milliy g'oya va mafkura bilan bog'liq maqsadlar shakalanishi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'la bosh ladi, jamiyat hayotida mustaqillik mafkurasining zarurligi to'g'risida aniq tasavvur va qarashlar, ishonch va etiqodning shakllanishiga ijobiy tasir ko'rsatdi. Bu davr fikrlar va mafkuralar xilma-xilligi asosida milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini ilmiy ishlab chiqish va hayotga joriy etish bosqichi sifatida axamiyatlidir.

O'tish davrining asosiy mazmuni milliy g'oya va mafkura nuqtai nazdridan yondashganda quyidagilarda o'z ifodasini topdi: birinchidan, jamiyat ijtimoiy hayoti mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosiga qurildi: ikkinchidan, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyotida milliy g'oya negizlari, ya'ni milliy-madaniy xususiyatlar e'tirof etildi; uchinchidan, uni amalga oshirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy yo'nalishlarda chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jamiyat hayotining barcha sohalari milliy g'oya asosida qayta ko'rib chiqildi. Ular: ta'lim va tarbiya; fan va ilmiy muassasalar; madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar; adabiyot va u san'at; din; jismoniy tarbiya va sport; urf-odat, marosim va bayramlar; oila; mahalla; mehnat jamoalari; siyosiy partiyalar; nodavlat-notijorat tashkilotlari; ommaviy axborot vositalariga tegishlidir. Boshqacha aytganda, ijtimoiy hayotda g'oya va 2 mafkura yangicha ma'no-mazmun kasb etib, davlat mafkurasi maqomidan jamiyat mafkurasi maqomiga o'tkazildiki, bu davrda "jamiyat mafkurasi" degan atama paydo bo'lidi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, o'tish davri vazifalari g'oya va mafkura sohasida xam tub o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Bu jamiyatda amal qilib kelgan eski mafkura aqidalarining yangi. Mustaqillik talablariga mos kelmaganligi bilan uzviy bog'lik.

Ikkinchidan, milliy g'oya tamoyillari "kommunistik goya" tamoyillaridan tubdan farq qiladi. Jamiyat ijtimoiy hayotining mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi ijtimoiy hayotda g'oyaviy-mafkuraviy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun o'tish davrini zarur qilib qo'yadi. Bu «kommunistik g'oya» negizlaridan xalos bo'lish, yangi milliy g'oya negizlariga o'tish davridir.

Uchinchidan, o'tish davrining zarurligini, g'oya va mafkuraga bo'lgan o'zgarishlar, yangicha qarashlar taqozo etdi. Bu davlat mafkurasidan voz kechish, iqtisodiyotni mafkuradan xalos etish uchun lozim bo'lgan huquqiy me'yoriy asoslarni yaratish, odamlar ong va tafakkurining yangicha yo'nalihsda shakllanishini ta'minlay oladigan qarashlar hamda kontseptsiyalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish bilan bog'liq.

To'rtinchidan, o'tish davri ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarni milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari asosida qayta rivojlantirish ma'naviy tiklanish davri hisoblanadi. Bu davr jamiyat a'zolari ong va tafakkuri, dunyo

qarashi, ishonch va e'tiqodida ijobiy o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berganligi bilan xarakterlidir.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. Қ. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАҶНАВИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУХИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.

8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
13. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
14. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. Academic research in educational sciences, 3 (10), 372-376.
Those are to help the student connect the term to prior knowledge, one of the questions in the graphic organizer's center is linked to the new vocabulary. This question's response, to the term "doll," would be "toy" or "plaything." What is it like then? is answered by defining the phrase. A doll can be thought of as a play baby or a play model that you can dress in various outfits. The final question is What examples? is a question that requires students to consider their prior knowledge of the term and apply it to objects that match the definition and meaning.

According to the above explanation, it can be inferred that using word mapping to improve students' vocabulary mastery is more beneficial. To effectively communicate, write, listen to, and comprehend the reading in English, students must expand their vocabulary. Finally, it can be said that a word mapping strategy can help students become more proficient in vocabulary. The researcher is aware of how far from perfect the research still is. The researcher hopes that this study will be able to contribute to future research, particularly when it comes to studies on vocabulary

mastery with various subjects and designs. Additionally, this research will be developed by other researchers using different angles and objects.

Teaching vocabulary in and of itself does not increase comprehension or achievement. Most studies that failed to show a link between vocabulary instruction and improvement of reading comprehension used teaching methods where students were provided limited exposure to the words and centered on the word-definition relationship.[5] Definitions do have an important place in word learning, but the inadequacies of using just the word-definition approach must be recognized and its use supplemented with more in-depth engaging endeavors. [6]

The teacher assigns words to be defined in the traditional definitional approach method of vocabulary instruction, and the student researches and commits the definitions to memory. Often, this kind of instruction does not result in improved comprehension. Lack of instruction in word meaning at the depth necessary for reading comprehension is one factor contributing to this failure to increase comprehension.

Flashcard

A flash card is a method that can make cardboard, paper, or anything consisting of simple words, sentences, or drawings as cited [7] flashcards is a simple picture on a piece of card or paper, and usually, this media always used as an educational tool. Moreover, based on www.wikipedia.com flash cards are information cards on both sides and colors, used in the classroom or private study.

There are many ideas for this study in the area of using flash cards to teach vocabulary. First, it is advised that future research be done in areas such as teaching grammar, reading, writing, speaking, and listening. To improve teaching effectiveness and prevent children from becoming bored, it is recommended that teachers use engaging images on flash cards. Thirdly, the teacher can design a fun learning process, like playing games, if he uses the word list as a strategy for teaching vocabulary. In general, it is advised that young students be taught vocabulary using flash cards.

In this research students in 9th grade were involved. During one lesson they were given pre-vocabulary tests while conducting the main aim of the lesson those words were used in listening, and reading skills. At the end of the lesson, students were tested again to analyze the result.

Results

Twenty questions were made up of a vocabulary pre- and post-test that was given to the students. The range of the pretest scores was 2 to 11, and the posttest scores were 10 to 18. Improvements score for the students ranged from 6 to 12 points.

Discussion

A pre-and post-test on vocabulary knowledge was given to the class. Direct vocabulary instruction was taught during the study using read-aloud. Read-aloud were employed in this study because they were already being used in the classroom, despite

the fact that there are numerous ways to teach vocabulary. The vocabulary knowledge of each participant in the study significantly improved. ELL students require specialized vocabulary instruction because they are simultaneously learning content and the English language. Because they are still learning English, they are unable to use context clues in the same way as other students. As a result, when students are taught vocabulary in a direct manner, both their content knowledge and English proficiency improve.

Conclusion.

It is impossible to dispute the importance of games in teaching and learning vocabulary. However, selecting the right games is crucial if you want to get the most out of vocabulary games. Every time a game is to be played, the total number of students, Factors like proficiency level, cultural context, timing, learning topic, and classroom settings should be considered.

In conclusion, playing games to learn vocabulary is an engaging and effective strategy that can be used in any classroom. The findings of this study imply that games are used not only for enjoyment but, more significantly, for the practice and review of language lessons, helping students to become more proficient communicators.

References.

- [1] Sirbu, Anca. "The significance of language as a tool of communication." Scientific Bulletin "Mircea cel Batran" Naval Academy 18.2 (2015): 405
- [2] Banga, C. L., Jyonica Suri, and N. Delhi. "Role of language in human life." International Journal of English Language, Literature and Humanities 3.7 (2015): 180-197.
- [3] Burton, S.H. 1985. Mastering English Language. Milan Press Ltd. Milan.
- [4] Khodjaniyazova, U. K. (2021). Challenges of writing process and the ways of overcoming them. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(9), 132-134
- [5] McKeown, M., Beck, I., Omanson, R. & Pople, M. (2005). Some Effects of the Frequency of Vocabulary Instruction on the Knowledge and Use of Words. Reading Research Quarterly, 20(5), 522-535.
- [6] Blachowicz, P. Fisher, D., & Ogle, S. (2006). Vocabulary: Questions from the classroom. Reading Research Quarterly, 41(4), 524-539.
- [7] Komachali, M. E. (2012). The Effect of Using Vocabulary Flash Card on Iranian PreUniversity Students " Vocabulary Knowledge. 5(3)

SHARQ MAMLAKATLARIDA KICHIK BIZNES ISLOHATLARI

TDTrU talabasi - Sadriddinov Iqboljon Baxriddin ógli
TDTrU talabasi - Sadullayev Firdavs Samad ógli

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hududi mamlakatlari kichik biznes sohasi yutuqlari haqida gapirganimizda, tadqiqotchilar ko'pincha Yaponiyani namuna qilib ko'rsatadi. Yaponianing jahon iqtisodiyotidagi o'rmini inobatga olganda, bunday yondashuv o'zini oqlaydi. Qolaversa, Yaponiya iqtisodiyoti o'n yildan buyon retsessiya sharoitida bo'lib kelmoqdaki, bu kichik biznes sohasida yuz beruvchi jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatyapti. Shu bois Osiyo-Tinch Okeni mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi(OTMIX)mutaxasislari kichik biznesni rivojlantirish borasidagi etalon sifatida Yaponiyadan ko'ra Tayvanni maqbul ko'rishmoqda. Tayvan iqtisodiyoti yaqinda yuz bergen iqtisodiy inqiroz sharoitida ham muntazam rivojlanib bordi.

Tayvandagi kichik va xususiy biznesning faoliyati asosan oilaviy biznesni tashkil etishning milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu yerda biz F.Fukuyamaning Xitoy (Tayvan) biznesida kichik va xususiy korxonalarning ko'pligi bevosita ijtimoiy-madaniy kadrlar tizimida oilaning markaziy o'rinni egallashi bilan bog'liq degan fikrini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Xitoy va unga Yaponiya va Janubiy Koreyadan ustunlik beriladi.

Tayvandagi biznes ko'lамини aniqlash uchun asosiy kapitalning miqdoriy ko'rsatkichlari va band bo'lganlar sonidan foydalaniladi. Ishlab chiqarish sanoatida ishchilar soni 100 kishiga, asosiy kapitali 40 millionga etadi.Tayvan dollaridan oshmaydiganlar soni (taxminan 1,3 million AQSH dollari) 100 dan 500 nafargacha, kichik, ish bilan band 7,5 million kishi. . AQSh dollarigacha asosiy kapitalga ega bo'lsa, u o'rtacha hisoblanadi. Tayvanda kichik va xususiy biznesning rivojlanishiga 1950-1970 yillarda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilgan islohotlarning samaradorligi ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.Bunda Aqshning tashkiliy va moliyaviy ko'magi bilan irrigatsion tizimlarni barpo etish va yuritish;uy-joy,yo'l hamda qishloq xo'jalik infratuzilmasining boshqa obyektlarini qurish;tayyor mahsulotni saqlash,qayta ishlash va sotish ;qishloq xo'jalik sohasida ishlab chiqarish va ta'minlash singari xo'jalik sohalarini qamrab olgan kooperativ harakat uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi dehqonlar jamiyatini tashkil etilgan edi.

Bosqichma-bosqich kooperativ va unga qarashli kichik va o'rta korxonalar faoliyati chorva mollarini sug'urtalash, kreditlash, yangi urug'lik navlari, o'g'it turlari, yerga ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bu borada 60—70-yillarda tashqi savdo korxonalari bilan keng aloqalar o'rnatilishi va 1980-yillarda xususiy xorijiy kapitalning iqtisodiyotga kirib kelishining kuchayishi ham ijobjiy natija berdi.

Shu bilan birga, Tayvandagi kichik biznes o'z faoliyat sohasini doimiy ravishda kengaytirib, yangi hamkorlar, investitsiyalar, texnologiyalar va savdo bozoriga qo'shimcha kirish imkoniyatini topmoqda. Natijada kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahalliy va xorijiy kichik biznes vakillari orasidan hamkor tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunday sharoitda bir qator mamlakatlarda iste'molchilar uchun bir turdag'i mahsulotni parcha-parcha ishlab chiqarish tajribasi kichik va o'rta korxonalarda mahsulot tannarxining oshishi va pasayishiga, sifatining oshishiga olib keldi.

Kichik korxonalarda ishchilar soni 10 dan kam bo'lgan nisbatan kichik kompaniyalarning ulushi tabiiy ravishda kamayadi (Rossiyada vaziyat teskari). Shunday qilib, 1960-yillardan 1990-yillarga qadar ularning ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi ikki barobarga, ya'ni 14 foizdan 7 foizga qisqardi.

Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti xodimi S. Shelovtsevning fikricha, bu jarayon Tayvan kichik biznesining asosi bo'lgan oziq-ovqat sanoatining 1970-1980 yillarda sanoat ishlab chiqarishining umumiyligi hajmida qisqarishi natijasida yuzaga kelgan.

Shu bilan birga, Tayvanda kichik biznes nafaqat an'anaviy sanoat tarmoqlarida, balki iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlarida (elektronika, elektrotexnika, mashinasozlik, asbobsozlik) mavjud bo'lib, ularning ishtiroki ortib borayotgani ham muhimdir. Bunga ko'p jihatdan yirik mahalliy korxonalar, davlat sektori va xorijiy kompaniyalar va kichik biznes tizimlari bilan organik subpudratchilik munosabatlarining o'rnatilishi sabab bo'ldi.

1980-yillarda Tayvanda biznes davlat moliyaviy ko'magi asosida ilmiy-texnik taraqqiyot yo'lini topdi. Xuddi shu davrda import sezilarli darajada erkinlashtirildi. Bu kichik va o'rta korxonalarni modernizatsiya qilish, ularning tashqi bozorga chiqishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yaponiyada iqtisodiyot yirik korporatsiyalarga asoslangan. Ular mavjud mehnat munosabatlari va korporativ boshqaruvning o'ziga xos tizimi bilan bir qatorda ko'p yillar davomida yapon kompaniyasining namunaviy modelini belgilab kelgan. Bu yerda ko'p sonli mayda korxonalar (umumiyligi miqdorining 99 foizigacha) rivojlanmagan xisoblanib, asosan subpudrat ishlarida foydalanilgan. O'zga davlatlatrdan farqli o'laroq, Yaponiya subpudratchilik tizimi muhim urin tutadi, ya'ni yirik korxonalar buyurtmalarni o'rtalariga, ular esa o'z navbatida kichkinalarga, kichkinalari yanada maydalarga yetkazib beradi. Retsessiya davrigacha Yaponiyadagi kichik va o'rta korxonalarda yuqori malakali bo'limgan xodimlar, ayollar yoshlar va qishloqlardan kelgan kam savodli aholi mehnat qiladi.

Keyingi yillarda ahvol ko'p jihatdan o'zgardi. Retsessiya oqibatida kichik va o'rta korxonalarda yirik kompaniyalardan bo'shatilgan mutaxasislar soni ko'payib bordi. Ularning korxona ishiga joylashishi jamoalar chiqarishi xorijda yo'lga qo'yish, yangi sohalarni o'zlashtirish, kompyuterlashtirish kabi masalalarni hal etishga

yordam beradi.Qolaversa, Yaponiyada hukumat ko'magi bilan mayda korxonalarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqarish sohasida tadqiqotlar olib borish, o'quv dasturlari yaratish uchun javobgar hisoblanuvchi kichik va xususiy biznesning ilmiytadqiqot markazi tashkil etilgan.Ushbu markaz Yaponianing turli hududlarida joylashgan yettita bo'limga ega va har yili ularda o'n mingga yaqin odam tahsil oladi.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. Қ. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАҶНАВИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшкурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.

12. Ikrom Boboqulovich Mirzaev GLOBALLASHUV DAVRIDAGI "SOXTA DINIY DUNYOQARASH" // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-davridagi-sohta-diniy-dunyo-arash> (Kirish sanasi: 18.01.2023).
13. O'Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIYATNING" AXAMUYATI . World Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from [- 17. Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
- 18. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. \(2022\). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. Specialusis Ugdymas, 2\(43\), 3178-3190.
- 19. Akbarova, L. U. \(2022\). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE" ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16\(1\), 133-3. Akbarova, L. U. \(2022\). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE" ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16\(1\), 133-135.
- 20. Akbarova, L. U. \(2022\). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16\(1\), 128-129.
- 21. Akbarova, L. U. \(2022\). SOME PROBLEMS OF LIFELONG EDUCATION IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF A MARKET ECONOMY. Journal of new century innovations, 16\(1\), 130-132](http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445//Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 203-205.14. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.15. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.16. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyor Ergashevich.)

**TA'LIM TIZIMIDA CHET TILLARINI O'RGATISHDA
ZAMONAVIY YONDASHUV**

Xalikova Latofat Uktamovna

Toshkent davlat transport universiteti

“Chet tillari” kafedrasи o’qituvchisi

Rasulov Nurmuhammad Rustam o'g'li

Mustafayeva Kamola Nuriddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ingliz tili darsni samarali tashkil etishning zamonaviy metodlari va ingliz tili fani bo'yicha bilim olayotgan talabalarini aynan ingliz tilga qiziqtirish va o'rgatish. Chet tili fanni kuchli mahorat va malaka bilan o'rgatish, oson lug'at yodlatish metodlari borasida so'z yuritilib ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, chet tili fanida dars mashg'ulotlarini ni qanday qilib hammaga birdek qiziqarli bo'lishi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Metodlar, yoshlar, eshitish, tinglash, multfilm, mashg'ulot, chet tili, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar.

Kirish. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqr islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lif tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lif sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lif platformalarini joriy

etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'naliishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi. Professor-o'qituvchilarining xorijdagи oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamenti yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygochlар va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'naliishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi. 2018 -yil 1-sentabrga qadar chet tillarini o'qitishning asosiy bosqichlari umumiyligi o'rta ta'lim mussalari va akademik litseylarda ta'minlashni nazarda tutgan holda uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'zaro uzviylik va uzlusiz tamoyillariga asosan o'quv dasturlarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish vazifasiyuklansin.

Chet tili bu Xorijiy mamlakatlar tili hisoblanadi G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, fransuz, nemis) tillari va sharq tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu chet tillari ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rinni olgan. Bugungi kunga kelib chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagи mutaxassilargacha chet tillarini o'rgatishga harakat qilayaptilar. Bu ijobjiy holat albatta chunki tilini o'rganish o'sha gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf -odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yarattdi. Prezidentimiz chet tillarini o'rganishni ommalashtirish faoliyati sifati jihatdan yangibosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida.

2021- yil 19- maydagi PQ- 5117-sonqaroriga muvofiq,shuningdek xorijiy tillarini o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkily chora - tadbirlar amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarini o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora - tadbirlar to'g'risida 2021- yil 19 maydagi PQ - 5117- son qarorining:

1. Bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rnlarda - Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'ston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilsin;

2. Bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O'zbekiston davlat Jahon tillar universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyoviy metodikalarini rivojlantirish respublikasi ilmiy - amaliy markazning 34 ta shtat birligi,Xalq ta'lim vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin shuningdek Davlat ta'lim muassalari xorijiy tillari o'qituvchilar uchun xorijiy tillari o'zlashtirish darajasi bo'yicha quydagilar talablar belgilansin:

2022 - 2023 o'quv yilidan boshlab davlat muassalarining xorijiy tillar o'qituvchilar lavozimlarga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim:

2022 - 2023 o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillari o'qituvchilar kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

2024 - 2025 o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (Xorijiy tildan tashqari) o'qituvchilarining 50% foiz kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenlashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

2024 - 2025 o'quv yiliga qadar umumiyl o'rta,o'rta maxsus va professional ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillari o'qituvchilar kamida B2 darajada milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi,Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Agentlik bilan birgalikda bir oy muddatga ta'lim tashkilotlari o'qituvchilar tegishli sertifikatni olish uchun tayyorlanish tashkil etsin shuningdek qator qarorlar qabul qilindi.

Chet tillarini o'qish bizga ko'p qulayliklar keltirishi mumkin.O'rta umumiy ta'lif maktablarida chet tili o'qitish metodikasi fani erishgan yutuqlarini egallash talabalar uchun quydag'i imkoniyatlarni yaratdi.

1. Kelajak kasbiy faolitatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi.
2. Ta'lifning zamonaviy metodlari tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiriladi.
3. Talabalarning olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo'lay olishlari uchun ko'nikma va malakalar hosil qiladi.
4. Barcha fanlardan o'zlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarini maktab ta'lif - tarbiya ishida ijodiy tadbiq etishga ko'maklashadi.Metodika institut (universitet) da berilgan bilimlar yig'indisi bilan maktab tajribasi orasidagi " ko'pri" vazifasini o'tovchi fandir.Leksiya va amaliy mashg'ulotlarda.Chet tili o'qitish qonuniyatları bayon etildi. metodika faniga ta'lifning xususiy nazariyasi sifatida qarash shakllantiriladi.O'zbekistonda tilni o'rganisga ko'plab sharoitlar yaratilgan.Institut va maktab xonalariga zamonaviy televizor joylashtirilgan.Undan tashqari til o'rganishga qulay bo'lgan hamma jihozlar bor.Men va siz kabi yoshlaridan birdan bir talab qilinadigan narsa bu o'qishdir. Shunday ekan ko'proq bilim olib O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'taraylik aziz tengdoshlarim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lif sohasida amalg aoshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbliji hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

REFERENCES

1. Халикова, Л. У. (2021). РОЛЬ КОММУНИКАТИВНОЙ МЕТОДИКИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ. Вестник науки и образования, (15-1 (118)), 30-33. <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-kommunikativnoy-metodiki-v-obuchenii-angliyskomu-yazyku>
2. Халикова, Л. У., & Абдураззаков, Ш. А. У. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Academy, (6 (69)), 43-44. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-motivatsii-u-studentov-neyazykovyh-spetsialnostey-pri-izuchenii-angliyskogo-yazyka>

3. Халикова, Л. У., & Мустафаева, К. Н. К. (2021). РАБОТА С АНГЛИЙСКИМ АЛФАВИТОМ И ИЗУЧЕНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРАММАТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ. *Academy*, (6 (69)), 39-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/rabota-s-angliyskim-alfavitom-i-izuchenie-otdelnyh-grammaticheskikh-yavleniy>
4. Uktamovna, X. L. (2021). TEACHINING COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MODERN FOREIGN LANGUAGES. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(6), 53-56. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/189>
5. Bakhtiyorovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY
6. Bakhtiyorovna, Y. M. THE ROLE OF CULTURAL AND STYLISTIC ASPECTS IN LITERARY TRANSLATION.
- 7.YO'LDOSHEVA, M. (2022). БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОСТИЛИСТИК ВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ.
- 8.YO'LDOSHEVA, M. (2022). Портрет тасвирлаш бадиий қаҳромонни LITERARY таржимада қайта ифодалашнинг асосий усули сифатида
- 9.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI. PEDAGOGS jurnali, 25(2), 118-121.
- 10.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *World scientific research journal*, 11(1), 60-65.
- 11.Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). PROS AND CONS OF DISTANCE EDUCATION TODAY TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY. *World scientific research journal*, 11(1), 76-80
12. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
- <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
- 13.Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
- 14.Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
- 15.Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
16. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT

- OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
17. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3178-3190.
18. Xasanova, V. X., Muratova, G. K., Atamuhamedova, G. S., & Xalikova, L. (2021). The development of speech competence among students of non-linguistic technical universities in teaching Russian. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(2), 296-301.
https://ejmcm.com/pdf_3207_d50a883c70847e131ebd9a35f4beaefa.html%20https://ejmcm.com/article_7252.html
19. Xalikova, L. U. (2018). THE ESSENCE OF INTEGRATED SKILLS IN IMPROVING STUDENTS'CRITICAL THINKING. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 7, No. 4, pp. 66-67). ROST.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Vfj_4SAAAAAJ&citation_for_view=Vfj_4SAAAAAJ:WF50mc3nYNoC
20. Uktamovna, K. L. (2022). MASTERING EDUCATIONAL AND RESEARCH SKILLS IN A FOREIGN LANGUAGE. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(10), 70-75.
<https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/343>
21. Uktamovna, K. L. (2022). USE OF MULTIMEDIA FOR THE IMPLEMENTATION OF VARIOUS METHODS OF LEARNING. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(10), 64-69.
<https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/342>
22. Uktamovna, K. L., & Ismailovna, M. S. (2021). MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE IN NON-LANGUAGE UNIVERSITIES. Вестник науки и образования, (11-2 (114)), 85-87.
<https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-of-teaching-english-language-in-non-language-universities>
23. Uktamovna, K. L. (2022). Opinions of Scientists About the Deixis Phenomenon. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 8, 117-121.
<https://www.geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1505>

GLOBALASHUVNING TALABA-YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

Xalikova Latofat Uktamovna

Toshkent davlat transport universiteti

“Chet tillari” kafedrasи o’qituvchisi

Muxammadjonov Bekzod Baxromjon o'g'li

Mustafayeva Kamola Nuriddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda talaba-yoshlar dunyoqarashiga ta'siri oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Talaba-yoshlar, ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adolatlilik, yoshlar ongida, xalq.

Kirish. Bugungi kunda talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish muammolarini keng ko'lamda tadqiq etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu borada ilmiy-nazariy ahamiyatga ega monografiyalar, risolalar, to'plamlar chop etish, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlash istiqbolda o'z samarasini beradi, albatta. Shu boisdan globalashuvning talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongiga ta'sirining konseptual asoslarini tadqiq qilish muhim. Chunki, ilmiy-nazariy va uslubiy adabiyotlarda mazkur muammoning turli qirralari har tomonlama va mukammal tahlil etilmagan. Globalashuv sharoitida talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish haqidagi tasavvurlarning o'zgarib borishi ularning mohiyati, namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi turlicha bahs-munozarali fikr-mulohazalarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat falsafa va etika fani doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayangan holda, ushbu tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan ta'riflarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Bugungi globalashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jahbalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, xususan, yoshlar ham bu jarayondan holi emas. Bu bir tomonidan umumiyl, tabiiy jarayon. Chunki hozirgi axborotlashgan jamiyat muhitidan talaba-yoshlar ham turli omillar orqali xabardor bo'lmoqda. Lekin ularning mafkuraviy immunitet darajasi qadriyatlarga nisbatan turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim yoshlar ongida xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlarga mos bo'lmanan xatti-harakat, nosog'lom g'oyalar, qadriyatlarga moyillik paydo bo'lishining oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlarning tez-tez o'tkazilib turishiga

ehtiyoj seziladi. Bu quydagilar bilan bog‘liq: Birinchidan, globallashuv jarayonida jamiyatimiz ma’naviy hayotiga xavf solayotgan xatarlar, tahdidlar o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lib, ularning ta’sir kuchi kundan-kunga ortib bormoqda. loballashuv davrida yoshlarni ma’naviy tahdidlar, “ommaviy madaniyat”dan himoyalash masalalari.

“Tahdid” arabcha “do‘q qilish, qo‘rqtish”, degan so‘zdan olingan bo‘lib, kundalik hayotda “birovni qo‘rqtish, unga do‘q, po‘pisa qilish hamda biror falokatning, qo‘rqinchli voqeanning sodir bo‘lish xavfi”⁴⁶, degan ma’nolarni anglatish uchun ishlataladi. Falsafiy ma’noda “Tahdid - inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan havf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushuncha”⁴⁷, bo‘lsa, jamiyatning rivojlanishiga ta’siri, ya’ni tor ma’noda esa tahdid deb, makon va zamonda mavjud bo‘lgan real jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarini zaiflashtirishga, qolaversa, yemirishga qaratilgan shaxsiy, mahalliy, xududiy, mintaqaviy omillarning qo‘rkitish, do‘q, po‘pisa qilishdan iborat bo‘lgan xatti-harakatlariga aytildi.

Tahdidlarning xususiyati va taraqqiyot sohalariga o‘tkazadigan ta’sir darajasiga qarab, inson, shaxs, fuqaro, millat, davlat, jamiyat, mintaqa, global, ichki va tashqi, katta va kichik, shuningdek, iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy-iqlimiylar, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin va boshqa shakkllarga ajratish mumkin. Ammo ular qanday shaklda yuzaga kelishidan qat’i nazar, o‘zining mohiyat-mazmuniga ko‘ra jamiyat taraqqiyotiga qarshi qaratilgan kuch hisoblanadi.

I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” nomli asarida ma’naviy mafkuraviy tahdid tushunchalariga to‘xtalar ekan: “Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim”, deb o‘yayman.

Agarki, masalaga amaliy ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj - bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlarga, milliy g‘urur, milliy iftixon tuyg‘usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo‘ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo‘lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida» 2017 yil 28 iyuldaggi 3160-sont qarorida ta’kidlanganidek, «Bugungi kunda

dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda». Shuningdek, Prezidentning xalqaro tinchlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatini ta’kidlab o‘tishimiz joiz. «Biz tashabbus tariqasida Afg‘onistonda ta’limni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus xalqaro fond tashkil etishni taklif qilamiz. Bundan ko‘zlanadigan asosiy maqsad – mamlakatda talab katta bo‘lgan sohalar bo‘yicha milliy kadrlar tayyorlash, iste’dodli talabalar va yosh olimlar uchun stipendiya va grantlar ajratish borasida afg‘on tomoniga ko‘maklashishdan iborat. Bularning barchasi, hech shubhasiz, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni zo‘ravonlik va radikalizm mafkurasidan himoya qilishda yordam beradi»¹. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

«Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda.

Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi»².

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT faoliyatiga to‘xtalib o‘tar ekan, uning kelgusida barqaror ish olib borishi uchun Xavfsizlik Kengashiga a’zo davlatlar sonini oshirishni taklif qildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari bugungi kunda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami mavjudligini inobatga olgan holda BMT minbarida «Yoshlar huquqlari to‘g‘risida»gi BMT konvensiyasini qabul qilishni taklif qildi. Mamlakat Prezidenti bunga yoshlarning soni ikki milliarddan ortib qolgani, xalqaro terrorizm va esktremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini asos qilib ko‘rsatdi. Zero, globallashuv vositalari «ommaviy madaniyat»ni keng yoyilishiga imkoniyat yaratmoqda. U o‘zbek xalqining tafakkuriga, musiqasi, kiyinishi, o‘zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda. Bizga qarshi ma’naviy qo‘poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o‘z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, hamma vositalarni ishga solmoqda, ko‘plab mablag sarflamoqda, eng zamnaviy usul-uslublarni qo‘llagan holda, yoshlarni o‘ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar, musiqiy kanallar tashkil etmoqda. Bunday manbalar orqali buzg‘unchi g‘oyalar targ‘ib etilmoqda, eng yomoni ularni hali oq-

¹ Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 372 б.

² Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 505 б.

qoraning farqiga bormaydigan, ishonuvchan, ta'sirga beriluvchan yoshlarimiz ko'ryapti, tomosha qilyapti. Bu esa «ommaviy madaniyat» tizimi, mahsulotlari, yoshlarimizni avrashning o'ziga xos usuli shakllangani, demak, ularga qarshi kurash har birimizning kundalik amaliy ishimizga aylanishi zarurligini taqozo etmoqda. Shunday ekan, talaba-yoshlarimiz o'z dunyoqarashida milliy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O'zining milliy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. Shuning uchun ham yosh avlod bilan ishlash jarayonida mazkur holatlarni alohida hisobga olish kerak. Ayniqsa, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining bugungi holatini ratsional o'rghanish, ularning amaliy faoliyatlarida ko'proq qaysi qadriyatlar ustuvor bo'lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa ularning milliy-madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodini mustahkamlashdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda talaba-yoshlar dunyoqarashida, ularning milliy qadriyatlarga munosabatida aniq pozitsiyaning shakllangan bo'lishi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Globallashuv jarayonlarida talaba-yoshlar «ommaviy madaniyat», millat va yurt uchun butunlay begona bo'lgan salbiy axborot ta'sirlariga tushib qolmoqda. Bunday tahdidlarni oldini olish uchun «...madaniyat va ma'rifat, – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev, – yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirish zarur. Bu bugun bizning barchamiz uchun hayotiy muhim vazifadir». Shuningdek, SH.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi

72-sessiyasidagi nutqida «Yoshlar huquqlari to'g'risida»gi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish zaruratini asoslab, «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir»³, – deb ta'kidlagan edi. Bugungi kunning asosiy vazifasi – yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, vataniga mehr-sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni har xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish hamda himoya qilishdan iborat.

Ma'naviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari va ijtimoiy oqibatlarini bugungi davr nuqtai nazaridan o'rghanish, ilmiy tahlil qilishda yangicha yondashuvlar taqozo qilinmoqda; Ikkinchidan, hozirgi insoniyat taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya vositalari ma'naviy, mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy quroliga aylanib, ular globallashuv jarayonida tezkor, xilma-xil shakllarda namoyon bo'lmoqda. Shu bois, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarning bugungi davrda namoyon bo'lish xususiyatlarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan ilmiy tadqiq etish katta

³Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 252 б.

ahamiyat kasb etadi; Uchinchidan, bugungi kunda yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Yoshlar turli ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'sirida ma'naviy tahdidlarning asosiy ob'yektiga aylanib, kuchli g'oyaviy, mafkuraviy va informatsion bosim ostida yashashga majbur bo'lmoqda Bu ma'naviy tahdidlarning oldini olishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlarimizning hayotiy maqsadlarini, orzu-ideallarini bilish, ma'naviy-axloqiy hayotidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash talab etiladi; To'rtinchidan, yurtimizda o'zining ma'naviy-mafkuraviy ta'sir kuchiga ko'ra oila, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi va OAV g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda, ushbu fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy tahdidlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda muhim o'ringa ega. Shu sababli, ularning faoliyatida jamiyat ma'naviy xavfsizligi masalalari uyg'unligini ta'minlashni tizimli tahlil qilish orqali mavjud muammo va kamchiliklarning oqilona yechimlarini topishga xizmat qiladi.

Globallashuv insoniyat tarixiy rivojlanish sivilizatsiyasining zaruriy natijasi bo'lib, ilmiy-texnikaviy inqiloblar, fan rivojlanishidagi buyuk burilishlar natijasi o'laroq yuzaga kelgan sivilizatsiyalararo muloqotlar, planetar hodisalar mushtarakligi asosida dunyo xalqlari mentaliteti, ma'naviy olami ruhiyat va intilishlariga tez ta'sir etuvchi axborot kommunikatsiyalar, mafkuraviy ta'sirlarning umumiy aloqadorlik hodisasisidir. «Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, – deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, – globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin».

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi paytda globallashuvning o'tkir va keng qamrovli ta'sirini barcha sohalarda namoyon bo'layotganligi, ayniqsa, bu davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik masalalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalarning tez kirib kelishi, kapital va tovarlar, ishchi o'rinalarning yaratilishi unda ishchi kuchining erkin qulayliklarning vujudga kelishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, bu imkoniyatlarning ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv ta'siri natijasida erishilmokda. Globallashuv jarayonining

yana bir o'ziga xos jihat shundaki, zamonaviy axborot texnologiya va kommunikatsiyaning, ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi ham taraqqiyotga xizmat qilmoqda, shu bilan birgalikda yovuz kuchlar o'z g'arazli maqsadlariga erishishda internetda qulay mafkuraviy ta'sir o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlar mafaatiga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin. Bunday sharoitda yoshlarni ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda axborot va kiberxavfsizlik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 372 б.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъяят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 505 б.
3. Халикова, Л. У., & Мустафаева, К. Н. К. (2021). РАБОТА С АНГЛИЙСКИМ АЛФАВИТОМ И ИЗУЧЕНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРАММАТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ. Academy, (6 (69)), 39-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/rabota-s-angliyskim-alfavitom-i-izuchenie-otdelnyh-grammaticheskikh-yavleniy>
4. Uktamovna, X. L. (2021). TEACHINING COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MODERN FOREIGN LANGUAGES. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(6), 53-56. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/189>
5. Bakhtiyorovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY
6. Bakhtiyorovna, Y. M. THE ROLE OF CULTURAL AND STYLISTIC ASPECTS IN LITERARY TRANSLATION.
7. YO'L DOSHEVA, M. (2022). БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОСТИЛИСТИК ВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ.
8. YO'L DOSHEVA, M. (2022). Портрет тасвирлаш бадиий қаҳромонни LITERARY таржимада қайта ифодалашнинг асосий усули сифатида
9. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI. PEDAGOGS журнали, 25(2), 118-121.
10. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. World scientific research journal, 11(1), 60-65.
11. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). PROS AND CONS OF DISTANCE EDUCATION TODAY TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY. World scientific research journal, 11(1), 76-80
12. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>

13. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
14. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
15. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
16. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Journal of new century innovations*, 16(1), 128-129.
17. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. *Specialusis Ugdymas*, 2(43), 3178-3190.
18. Xasanova, V. X., Muratova, G. K., Atamuhamedova, G. S., & Xalikova, L. (2021). The development of speech competence among students of non-linguistic technical universities in teaching Russian. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(2), 296-301.
https://ejmcm.com/pdf_3207_d50a883c70847e131ebd9a35f4beaefa.html%20https://ejmcm.com/article_7252.html
19. Xalikova, L. U. (2018). THE ESSENCE OF INTEGRATED SKILLS IN IMPROVING STUDENTS'CRITICAL THINKING. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 7, No. 4, pp. 66-67). ROST.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Vfj_4SAAAAAJ&citation_for_view=Vfj_4SAAAAAJ:WF5omc3nYNoC
20. Uktamovna, K. L. (2022). MASTERING EDUCATIONAL AND RESEARCH SKILLS IN A FOREIGN LANGUAGE. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 70-75.
<https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/343>
21. Uktamovna, K. L. (2022). USE OF MULTIMEDIA FOR THE IMPLEMENTATION OF VARIOUS METHODS OF LEARNING. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 64-69.
<https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/342>
22. Uktamovna, K. L., & Ismailovna, M. S. (2021). MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE IN NON-LANGUAGE UNIVERSITIES. *Вестник науки и образования*, (11-2 (114)), 85-87.
<https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-of-teaching-english-language-in-non-language-universities>
23. Uktamovna, K. L. (2022). Opinions of Scientists About the Deixis Phenomenon. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 8, 117-121.
<https://www.geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1505>

**OLIY TA'LIM TIZIMI HAMDA YOSHLARGA OID DAVLAT
SIYOSATINING NATIJALARI**

Xalikova Latofat Uktamovna

Toshkent davlat transport universiteti

“Chet tillari” kafedrasи o’qituvchisi

Islomov Javoxir Shaxobiddin o'g'li

Mustafayeva Kamola Nuriddin qizi

Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti talabaları

Annotatsiya – Ushbu maqolada bugungi davri ta'limga, ayniqsa oliy ta'limga tizimini tashkil etish, yoshlarga berilayotgan e'tibor va bugungi kundagi yangi talablar qo'yilganligi, buning uchun Oliy ta'limga tizimi ham global mashhuvning noaniq jarayonlari va jamiyatning tezkor texnologik va axborot taraqqiyotidan kelib chiqadigan talablarga maksimal darajada javob berishi kerak bo'ladi. OTMga oid davlat siyosatini amalga oshirish istiqbollari o'ziga xos mahsuli bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, Oliy ta'limga tizimi, ijtimoiy integratsiyalashuv, Ta'limga, konsepsiya, demokratlashuv, Ijtimoiy integratsiyalashuv.

KIRISH. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi va quydagilar belgilab qo'yildi. a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda quyidagilar nazarda tutiladi: Oliy ta'limga sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'limga muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'limga bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish; O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'limga muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'limga muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'limga muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'limga muassasalari ro'yxatiga kiritish;

oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limga ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limga amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limga tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnni topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lамини kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

b) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanadirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta’lim kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi.

- professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

- oliy ta’limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta’lim berishda qo‘llanilayotgan ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligiga xolisona baho berish;

- ta’lim berishda yuqori sifatni ta’minlash yuzasidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

- oliy ta’lim muassasalari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va xolislikni ta’minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo‘shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o‘qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta’lim tizimiga jalb etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish asosiy vazifa qilib belgilab berildi

2016 yil 15 sentabrdan kuchga kirgan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi” sohadagi vazifalarni yangi bosqichga ko‘tardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Komissiya tuzish to‘g‘risida”gi F-4789-sonli farmoyishi ijrosi yuzasidan ham tizimli ravishda ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan joriy yil 10 apreldan boshlab oliy ta’lim muassasalarida kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Talabalarning siyosiy-huquqiy bilimlarini boyitish, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha “Yagonasan, muqaddas Vatan!”, “Soliq bilimdonlari”, “Tafakkur sinovlari”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Baxtiyorlar diyori” respublika ko‘rik-tanlovlari, Talabalar teatr studiyalari festivallari hamda turli mavzularda ijodiy ishlar tanlovlari o‘tkazilmoqda. Jumladan, “Yagonasan, muqaddas Vatan!” respublika ko‘rik-tanloving mamlakat bosqichida Samarqand davlat universiteti jamoasi faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘sishma chora-tadbirlar Dasturi” bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Dunyoda o‘xhashi bo‘lmagan uch bosqichli noyob tizim – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport musobaqalari bo‘lajak yetuk sportchilar uchun o‘ziga xos pillapoya vazifasini o‘tamoqda. O‘zbekiston Universiadalarini talaba-yoshlarimizni Osiyo, jahon va xalqaro yozgi Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etishi va eng qimmatli g‘alabalarni qo‘lga kiritishlarida o‘ziga xos poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan XXXI Yozgi Olimpiada va XV Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida 25 nafar talaba sportchilarimiz ishtirok etib, 13 ta medal (3 ta oltin, 2 ta kumush va 8 ta bronza)ni qo‘lga kiritishdi. Globallashuvning zamonaviy davri ta’limni, ayniqsa oliy ta’lim tizimini tashkil etish, boshqarish va mazmuniga yangi talablarni qo‘yar ekan, buning uchun Oliy ta’lim tizimi ham globallashuvning noaniq jarayonlari va jamiyatning tezkor texnologik va axborot taraqqiyotidan kelib chiqadigan talablarga maksimal darajada javob berishi kerak bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida ta’limning yangi konsepsiyasini barpo etish va yoshlarga zamonaviy bilimlar asosida ta’lim berish va tarbiyalashda, nafaqat an’anaviy, balki innovatsion yondashuvlardan

ham samarali foydalanish va o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish kutilgan natijalarga erishishga olib kelishi shubhasiz.

Ta’lim sohasidagi yangi O‘zbekiston davlat siyosatining mohiyati iqtisodiyotining eng intellektual salohiyatlari "tarmog‘i" sifatida ta’limning ustuvorligini ta’minlashdir. Oliy kasbiy ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi XXI asrning barcha qiyinchiliklariga javob beradigan ta’limning yetarli modelini shakllantirish, jamiyatning yangi O‘zbekiston shakllanishida yetakchi rolini tan olishdir. Bu davlat va jamiyat oldida ta’limning hozirgi holati, uni modernizatsiya qilishning samaradorligi, klassik jahon oliy ta’lim tizimining eng yaxshi an’analari va andozalarini saqlab qolish uchun alohida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni talab qiladi.

O‘zbekiston ta’limini modernizatsiya qilish bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim sohasidagi davlat siyosatining bosh strategik liniyasi sifatida rasman tan olinganligini biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning bu borada bildirgan fikrlari va qarorlaridan ham bilishimiz mumkin. Bu, albatta, O‘zbekistonning oliy kasbiy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ta’lim sohasidagi innovatsion o‘zgarishlarning eng ko‘zga ko‘ringan natijalaridan biri, bizning fikrimizcha, universitetda ta’lim olish jarayonida olingan bilimlarning "qarishi" ning tezlashuvi, shuningdek, nazariy bilimlarning jamiyat hayotining amaliy sohasi ehtiyojlariga mos kelmasligi. Shunga ko‘ra, ushbu bilimlarni doimiy ravishda yangilash va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimiz ta’lim tizimining ikki bosqichli tizimga (bakalavriatni joriy etish) o‘tish barcha soha uchun mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlikda amaliyot bilan birlashtirish va ilm-fanni yanada rivojlantirish davr zaruriyatiga aylandi. Bu borada olib borilayotgan ta’lim siyosatini tubdan takomillashtirish va huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash xalqaro ta’lim andozalariga integratsiyalashuvini ta’minlashga olib kelmoqda. O‘zbekistonning Boloniya Konvensiyasiga tobora qo‘shilishiga tayyorgarlik ko‘rilihi, yagona ta’lim makonini shakllantirish zarurligini va shunga ko‘ra, ta’lim sifati uchun Yevropa mezonlari bilan bir xil, yagona texnologik va gumanitar meyorlarga rioya qilish hamda barcha soha mutaxassislarini tayyorlash talablarini oldindan belgilab berdi.

Ikkinchidan, nafaqat O‘zbekiston, balki butun Yevropaning ta’lim sohasidagi yagona professional malakalarning mavjudligi universitet-larida tashkil etilgan majburiy kasbiy malakalar doirasida ijtimoiy-gumanitar sohalar bakalavrлari uchun zarur bo‘lgan bir qator parametrlarni, jumladan, til, madaniyat, iqtisodiyot, siyosat va boshqalarni ham butunlay o‘zgartirishga sabab bo‘ldi. Bo‘lajak mutaxassislarning zarur kasbiy va umumiyligi madaniy vakolatlarini shakllantirish nafaqat shakllar, darajalar, balki o‘quv jarayonining mazmuni ham muhim o‘zgarishlar fonida yuzaga keladi. Masalan, zamonaviy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyati ta’lim mazmunini davlat tomonidan shakllantirishdan ushbu tizimga yangi jihatlar va ishtirokchilarni,

xususan, ish beruvchilarni kiritishiga o‘tishdir. Shu bilan birga, ushbu yondashuv barcha darajadagi zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi, o‘quv jarayonini tashkil etishning mazmuni, shakllari va usullariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini kengaytiradi, hatto ta’lim muassasasining turini tanlashga yordam beradi . Bir tomonidan, ushbu yondashuv barcha darajadagi mutaxassislarning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi. Aslida, bu parametrlar bir daraja yoki boshqa ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minalash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagি PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Bugungi kunda respublikada 198 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 105 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi filiali tashkil etildi . Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta’lim yo‘nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019/2020 o‘quv yilida 59 ta oliy ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim, 10 ta oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakli joriy etildi. Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so‘nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi. Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 4,5 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqdalar. Magistratura talabalari-ning 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 13,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 3,2 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olmoqdalar. 2019/2020 o‘quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi. Respublikaning 16 ta oliy ta’lim muassasasida 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab xorijiy

oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil qilmoqda (2017 yilda 48 ta). So‘nggi 3 yilda 1693 nafar professor-o‘qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9636 nafarga yetdi (shundan 2130 nafari fan doktori (DSc), 7506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi.

So‘nggi 5 yilda oliy ta’lim muassasalarining 1611 nafar professor- o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim vailmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta’lim olishga qabul qilindi .

«El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali 46 nafar professor-o‘qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o‘tashi ta’minlanganligi, 2017-2019 yillarda ta’lim jarayoniga 1 154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalg‘ etilganligi (AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar) hamda Oliy ta’lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016 yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirilishi kabi masalalar ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga mazkur sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan: oliy ta’lim bilan qamrov darajasi pastligicha qolayotganligi; oliy ta’lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o‘zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlar samarali yo‘lga qo‘yilmagan, ish beruvchilarining oliy ta’lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emasligi; tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermayotganligi; professor- o‘qituvchilarining xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolayotganligi; o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan; iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emasligi; pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmaganligi, oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalari asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi kabi muammolar shular jumlasidandir. Konsepsiyada ko‘rsatib o‘tilganidek, ilmiy-tadqiqot va innovatsion

faoliyat sohasida ham ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariiga iqtidorli yoshlarni jalg etish natijadorligi yetarli emas, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmaganlig keltirib o'tilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etmoqda, ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshi 49 bo'lib (fan doktorlari — 56 yosh, falsafa doktorlari va fan nomzodlari — 43 yosh), yuqoriligicha qolmoqda, fan doktorlari orasida nafaqayoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etmoqda. Ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmagan

Keyingi yillarda oliy ta'limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash sohasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilishi zarurligi mavjud. YA'nikim, respublika oliy ta'lim muassasalari xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1000 talik ro'yxatiga kirmagan, ta'lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan, mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan, xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta'lim olishga keng jalg qilish borasidagi targ'ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o'tkazish va boshqalar) yetarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma ham xalqaro universitetlarda bo'lgani kabi mavjud emas. Kelgusida Oliy ta'lim bilan qamrovn kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilib borilishi Konsepsiya ham nazarda tutilgan: oliy ta'lim sohasida davlat- xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalg qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish; xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi, yetakchi ta'lim va ilm-fan markazi — Prezident universitetini tashkil etish; xotin-qizlarning oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, ta'lim olishda gender tengligi tamoyillari ustuvorligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish; oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan choratadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; davlat va

jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'limg-tarbiya usullaridan foydalanish; yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilishi kerak deb xisoblayman.

REFERENCES

1. Халикова, Л. У. (2021). РОЛЬ КОММУНИКАТИВНОЙ МЕТОДИКИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ. Вестник науки и образования, (15-1 (118)), 30-33. <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-kommunikativnoy-metodiki-v-obuchenii-angliyskomu-yazyku>
2. Халикова, Л. У., & Абдураззаков, Ш. А. У. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Academy, (6 (69)), 43-44. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-motivatsii-u-studentov-neyazykovyh-spetsialnostey-pri-izuchenii-angliyskogo-yazyka>
3. Халикова, Л. У., & Мустафаева, К. Н. К. (2021). РАБОТА С АНГЛИЙСКИМ АЛФАВИТОМ И ИЗУЧЕНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРАММАТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ. Academy, (6 (69)), 39-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/rabota-s-anglijskim-alfavitom-i-izuchenie-otdelynh-grammaticheskikh-yavleniy>
4. Uktamovna, X. L. (2021). TEACHINING COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MODERN FOREIGN LANGUAGES. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(6), 53-56. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/189>
5. Baktyiarovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY
6. Baktyiarovna, Y. M. THE ROLE OF CULTURAL AND STYLISTIC ASPECTS IN LITERARY TRANSLATION.
7. YO'L DOSHEVA, M. (2022). БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОСТИЛИСТИК ВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ.
8. YO'L DOSHEVA, M. (2022). Портрет тасвирлаш бадиий қаҳромонни LITERARY таржимада қайта ифодалашнинг асосий усули сифатида
9. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI. PEDAGOGS jurnali, 25(2), 118-121.
10. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. World scientific research journal, 11(1), 60-65.

11. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). PROS AND CONS OF DISTANCE EDUCATION TODAY TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY. *World scientific research journal*, 11(1), 76-80
12. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
13. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
14. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
15. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
16. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Journal of new century innovations*, 16(1), 128-129.
17. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. *Specialusis Ugdymas*, 2(43), 3178-3190.
18. Xasanova, V. X., Muratova, G. K., Atamuhamedova, G. S., & Xalikova, L. (2021). The development of speech competence among students of non-linguistic technical universities in teaching Russian. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(2), 296-301. https://ejmcm.com/pdf_3207_d50a883c70847e131ebd9a35f4beaefa.html%20https://ejmcm.com/article_7252.html
19. Xalikova, L. U. (2018). THE ESSENCE OF INTEGRATED SKILLS IN IMPROVING STUDENTS'CRITICAL THINKING. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 7, No. 4, pp. 66-67). ROST. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Vfj_4SAAAAAJ&citation_for_view=Vfj_4SAAAAAJ:WF5omc3nYNoC
20. Uktamovna, K. L. (2022). MASTERING EDUCATIONAL AND RESEARCH SKILLS IN A FOREIGN LANGUAGE. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 70-75. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/343>
21. Uktamovna, K. L. (2022). USE OF MULTIMEDIA FOR THE IMPLEMENTATION OF VARIOUS METHODS OF LEARNING. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 64-69. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/342>
22. Uktamovna, K. L., & Ismailovna, M. S. (2021). MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE IN NON-LANGUAGE UNIVERSITIES. *Вестник науки и образования*, (11-2 (114)), 85-87. <https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-of-teaching-english-language-in-non-language-universities>

ДИАГНОСТИКА И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ КРУПНОГО ПЛОДА У БЕРЕМЕННЫХ

Автор: М.И.Шаматова.

Научный руководитель к.м.н Д.А.Закирходжаева.

Ташкентский Педиатрический Медиценский Институт

Республика Узбекистан. город Ташкент.

Аннотация: Несмотря на значительное число исследований, посвященных проблеме родоразрешения беременных крупным плодом, общепризнанной тактики ведения беременности и родов не существует. Высокие показатели родового травматизма матери и неблагоприятные перинатальные исходы при макросомии плода имеют большое медицинское и, несомненно, социальное значение.

Ключевые слова: крупный плод; макросомия; плодово-тазовая диспропорция; дистоция плечиков; течение беременности и родов; перинатальные исходы.

ВВЕДЕНИЕ

Частота родов крупным плодом, по данным литературных источников, в последние годы составляет 4,5–20 % [1–4]. Роды плодом с массой тела 4000–4500 г наблюдаются в 7,6 %, 4500–5000 г — в 1,2 %, 5000 г и более — в 0,2 % случаев. Высокие показатели родового травматизма матери и неблагоприятные перинатальные исходы при макросомии плода имеют большое медицинское и, несомненно, социальное значение [2, 3]. В случае самопроизвольных родов крупным плодом в последующем у новорожденных нередко наблюдается нарушение мозгового кровообращения, а также симптоматика, связанная с повреждением плечевого сплетения. Нарушения физического и нервно-психического развития отмечаются более чем у $1/3$ таких детей на первом году жизни [2].

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Одной из важнейших причин, определяющих уровень заболеваемости детей, родившихся крупными, является диспропорция между размерами головки и тазом матери в родах [3]. Частота клинически узкого таза варьирует от 1,4 до 8,5 % к общему числу родов, доля макросомии плода в структуре данного осложнения составляет 5,8–60 % [1].

Частота осложнений при макросомии плода в анте-, интра- и постнатальном периодах значительно превышает таковую у пациенток, родивших детей со средней массой тела [2, 3]. Частота осложнений беременности при макросомии

плода, требующих стационарного лечения, по данным Н.А. Ляличкиной, составляет 54,1 %, что сопоставимо со среднестатистическими показателями [2]. Однако имеются данные, что возраст беременных крупным плодом в 60 % случаев превышает 35 лет [4]. В силу чего беременность в большинстве случаев протекает на фоне экстрагенитальной патологии и имеет свои особенности [2]. Частота раннего токсикоза у беременных крупным плодом составляет 13,4–36,5 %, анемии — до 74,1 % [2, 3]. Преэклампсия (гестозы) встречаются в $\frac{1}{3}$ случаев макросомии плода. Вероятно, данный факт связан с распространностью алиментарно-конституционального ожирения (25–72 %) среди женщин с макросомией плода. Анализ структуры осложнений беременности показал, что гестационный сахарный диабет отягощал гестацию у 3,5–50 % беременных крупным плодом. Распространность истмико-цервикальной недостаточности и угрозы прерывания беременности при макросомии плода в 2 раза превышает среднестатистические показатели и равняется 7,1 % случаев [2].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Макросомия плода сочетается с многоводием в 8,12–18,2 % наблюдений. Возникновение многоводия при макросомии плода может быть обусловлено гипергликемией плода, увеличением осмотического диуреза, который впоследствии приводит к полиурии. Многие авторы связывают многоводие с общей активизацией анаболических процессов в системе плацента — плод. Частота маловодия при макросомии плода составляет 3 %, что значительно ниже среднестатистических показателей. Плацентарные нарушения наблюдаются при макросомии плода в 20–31,8 %, что не отличается достоверно от показателей нормосомии плода. Нарушения в системе маточно-плодово-плацентарного кровотока возникают за счет увеличения потребностей растущего плода и невозможности его адекватного обеспечения существующей сосудистой системой. По мнению некоторых авторов, течение беременности при макросомии плода является более благоприятным в сравнении с нормосомией, исключая наличие гестационного и других видов сахарного диабета [2, 4].

Некоторые авторы полагают, что рождение крупного плода обусловлено перенашиванием. Частота перенашивания при макросомии плода варьирует в пределах от 5,8 до 19,5 %. Средний срок гестации у беременных крупным плодом на 6–8 дней больше, чем у женщин с нормосомией плода. Склонность к перенашиванию и высокая частота патологии родов во многом определяется «зрелостью» (готовностью) родовых путей. Согласно данным

M. Boulvain, при макросомии плода «незрелые» родовые пути встречаются в 3 раза чаще, чему женщин с нормосомией плода, в связи с чем часто требуется предварительная подготовка родовых путей, а также индукция родовой

деятельности. Предшествующий патологический прелиминарный период отмечается у 4,7 % рожениц с макросомией плода. Осложнения в течение родов крупным плодом в основном обусловлены двумя причинами: плодово-тазовой диспропорцией и нарушением сократительной функции матки в силу ее перерастяжения. В связи с отсутствием пояса плотного прилегания головки крупного плода и таза матери частота несвоевременного излития околоплодных вод (преждевременного и раннего) при макросомии плода в 3 раза превышает таковую при физиологических родах (22,4–35,6 %). Несвоевременное излитие околоплодных вод, в свою очередь, приводит к пролонгированному или затяжному течению родов, что обусловлено не только крупными размерами плода, но и неготовностью родовых путей. Ряд авторов полагают, что замедление I периода родов обусловлено в первую очередь развивающимся клиническим несоответствием. Увеличение продолжительности I периода родов при макросомии плода опосредовано большой частотой аномалий родовой деятельности, которые в 50 % случаев являются следствием плодово-тазовой диспропорции, и прогрессивно увеличивается прямо пропорционально массе плода. Родостимуляция при макросомии плода проводится в 2 раза реже, чем при средней массе плода [2].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Представленные данные не только свидетельствуют о необходимости индивидуального подхода при родоразрешении беременных крупным плодом, но и предполагают дальнейшее совершенствование методов диагностики макросомии плода, а также прогнозирования исхода родов. Крупных новорожденных независимо от общего состояния при рождении следует относить к группе высокого риска в связи с различными нарушениями в раннем неонатальном периоде, высокой частотой последствий родовой травмы, снижением реактивности организма в первые месяцы жизни.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Gaudet L, Ferraro ZM, Wen SW, Walker M. Maternal Obesity and Occurrence of Fetal Macrosomia: 2014;2014:640291. doi: 10.1155/2014/640291.
2. Najafian M, Cheraghi M. Occurrence of Fetal Macroso- mia Rate and Its Maternal and Neonatal Complications:A 5-Year Cohort Study. *ISRN Obstetrics and Gynecology*. 2012;2012:353791. doi: 10.5402/2012/353791.
3. Кравченко Е.Н. Родовая травма: акушерские и пе- ринатальные аспекты. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009.
4. Ласков В.Б., Полянская М.В. Особенности нейровегетативной сферы у лиц, родившихся с крупной массой тела // Неврологический вестник им. В.М. Бехтерева. – 2001. – Т. 33.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ASTRONOMIYA FANNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI	3
2	FEATURES OF MODERN INTERNET DISCOURSE	5
3	BOSHLANG'ICH SINFLARIDA MATEMATIKA DARSLARINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ORQALI O'QITISHNING USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI	8
4	1000 ICHIDA SONLARNI AYIRISH USULLARI	11
5	BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLIKLERIDA MILLIY DASTUR MAZMUNI	16
6	MULOHAZALAR	19
7	"O'QUV LUG'ATI" VA "O'QUV LUG'ATCHILIGI" TUSHUNCHALARI, ULARNING UMUMIY TASNIFLARI	23
8	BOSHLANG'ICH SINFLARDA HAR XIL JANRDAKI MATNLARNI TAHLIL QILISH USUL VA VOSITALARI	29
9	MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI	35
10	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASAL JANRIDAGI ASARNI O'TISHNING SAMARALI USULLARI	38
11	SENUROZ KASALLIGI VA UNGA TASHXIS QO'YISH	42
12	OLMA SIQMASIDAN OZIQ-OVQAT KLETCHATKAGA BOY TO'LDIRUVCHILARI OLISH TEKNOLOGIYASI	45
13	СОНОГРАФИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ПНЕВМОТОРАКСА	51
14	"TIL O'RGANISHDA FRAZEOLOGIZMLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI"	60
15	XORIJY TILLARNI O'QITISHDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING BIR NECHA JIHATLARI	70
16	JADIDCHILAR HARAKATINI O'RGANISHGADA MAHALLIY VA XALQARO OLIMLARNING FIKRLARI	76
17	BUGUNG'I DAVRDA CHET TILINI O'QITISHNING ASOSIY DOLZARB MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY TAHLILI	83
18	O'ZBEKİSTONDA TA'LIM TİZİMİDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN İSHLOHOTLAR	87
19	"ЦЕЛЬ, ЗАДАЧИ И ВЗАЙМОСВЯЗЬ МЕТОДИКИ РЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТАМИ"	96
20	DAVLAT BOSHQARUV TİZİMİDA DEPUTATNING SIYOSIY FAOLIYATI	100
21	SIYOSIY JARAYONLARNI AMALGA OSHIRISH USULLARI	104
22	MUSTAQILLIKNING TARIXIY, MA'NAVIY VA SIYOSIY AHAMIYATI	108
23	DAVLAT BOSHQARUV TİZİMİDA MA'NAVIY OMILNING O'RNI	113
24	MILLIY G'OYA VA MAFKURAVIY YANGILANISH DAVRI	117
25	XXI ASRDA GLOBAL AXBOROT JAMIyatining SHAKLLANISHI	122
26	AYOLLARNING IQTISODIY HUQUQ VA ERKINLIKHLARI	126
27	MILLIY O'ZLIK VA FUQAROLIK JAMIyatining O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	130

28	G'ARBDA MILLAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MUSHOG'ADASI	135
29	БАРКАМОЛ АВЛОД МА'ННАВИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШДА ХАЛҚ МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ	139
30	YOSHLARINI MA'NAVIIY-AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH MASALALARI (SHARQ MUTAFAKKIRLARNING NIGOHIDA)	142
31	ШАРҚ АЛЛОМАЛЛАРИНИНГ ҚАДРИЯТ ВА МА'ННАВИЯТ ХАҚИДАГИ МУЛОҲАЗАЛАРИ	148
32	МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ИНСОН ФАЗИЛАТИДАГИ ЎРНИ	154
33	ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАТЕГОРИЯЛАШТИРИШ СИЁСАТИГА ЦИВИЛИЗАЦИОН ЁНДАШУВЛАР	158
34	ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИНИ КАТЕГОРИЯДАШТИРИШ СИЁСАТИ НАЗАРИЯЛАРИ КЛАССИФИКАЦИЯСИ	166
35	ENHANCING VOCABULARY SKILLS OF LEARNERS THROUGH INTERACTIVE TECHNIQUES	176
36	SHARQ MAMLAKATLARIDA KICHIK BIZNES ISLOHATLARI	182
37	TA'LIM TIZIMIDA CHET TILLARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV	186
38	GLOBALLASHUVNING TALABA-YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	192
39	OLIY TA'LIM TIZIMI HAMDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING NATIJALARI	199
40	ДИАГНОСТИКА И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ КРУПНОГО ПЛОДА У БЕРЕМЕННЫХ	209